Тадқиқот амалга ошириш жараёнида комплекс ёндашувдан фойдаланилган бўлиб, назарий таҳлил ва амалий тадқиқот усуллари бирлаштирилган. Электр энергетикаси тармоғидаги йирик акциядорлик жамиятларининг молиявий ҳисоботлари тизимли таҳлил қилинган. Тадқиқот объекти сифатида «Иссиқлик электр станциялари» АЖ, «Худудий электр тармоклари» АЖ, «Ўзбекистон миллий электр тармоклари» АЖ ва «Ўзбекгидроэнерго» АЖнинг 2020-2024 йиллар давридаги молиявий ҳисоботлари танланган.

Молиявий ҳисоботларнинг асосий компонентларини таҳлил қилишда вертикал ва горизонтал таҳлил усулларидан фойдаланилган. Вертикал таҳлил активлар ва мажбуриятларнинг таркибий тузилишини аниқлашга имкон берган. Горизонтал таҳлил орқали молиявий кўрсаткичларнинг бир неча йиллик динамикаси ўрганилган. Бу икки усулнинг биргаликдаги қўлланилиши корхоналарнинг молиявий ҳолатини тўлиқ баҳолаш имконини берган.

Активларнинг турли категориялари - товар-моддий захиралар, пул маблағлари, асосий воситалар ва дебиторлик қарзлари - алоҳида ўрганилган. Ҳар бир категория учун абсолют ва нисбий кўрсаткичларнинг динамикаси ҳисоблаб чиқарилган. Бу молиявий ҳисоботларнинг турли компонентларида содир бўлаётган ўзгаришларни аниқлаш имконини берган.

Хусусий капиталнинг шаклланиши ва ўзгаришини таҳлил қилишда коэффициентлар усулидан фойдаланилган. Молиявий мустаҳкамлик, мустақиллик ва манёврчанлик коэффициентлари ҳисобланган. Бу кўрсаткичлар корхоналарнинг молиявий барқарорлигини баҳолашга ёрдам берган.

Таққослама таҳлил усули миллий бухгалтерия ҳисоби стандартлари ва МҲҲС талаблари ўртасидаги фарқларни аниқлашда қўлланилган. Молиявий ҳисоботларни тузиш принциплари, тан олиш мезонлари ва баҳолаш усулларидаги фарқлар батафсил ўрганилган. Бу МҲҲСга ўтишда туғиладиган муаммоларни олдиндан аниқлашга имкон берган.

Графикли таҳлил усули молиявий маълумотларни визуаллаштириш ва тенденцияларни аниқлашда қўлланилган. Активларнинг қиймати, хусусий капиталнинг миқдори ва бошқа асосий кўрсаткичларнинг динамикаси графикларда ифодаланган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР МУҲОКАМАСИ

Ҳозирги вақтда республикамизда бухгалтерия тизимини ислоҳ қилиш мамлакатнинг жаҳон иқтисодиётига интеграциялашувида муҳим роль ўйнамоқда. МҲҲСни қабул қилиш ва унга мувофиқ ҳисобот тақдим этиш глобал бозорда ягона молиявий ахборот алмашиш муҳитини яратади. Бу жараён ахборот шаффофлиги, ҳисобдорлик ва иқтисодий самарадорликнинг ошишига хизмат қилади. Шунингдек, МҲҲС қўлланиши бозор ликвидлигининг яхшиланиши, капитал бозорларининг ривожланиши, қимматли қоғозлар бозорларида савдолар кўламининг кенгайиши, хорижий инвестицияларнинг миллий бозорга кириб келиши ва инвесторларни ҳимоя қилишнинг такомиллашишига олиб келади.


Бухгалтерия баланси корхонанинг молиявий ҳолатини муайян санадаги ҳолатда акс эттирувчи асосий ҳисобот шакли ҳисобланади. Балансда активлар ва мажбуриятларнинг тўлиқ таркиби кўрсатилади. Акциядорлик жамиятларининг хусусий капитали мутахассисларнинг қўйилмалари, корхона ишлаб топган маблағлари ва қийматини аниқлаш ҳамда келгусида ўзлаштириш учун маблағлардан йиғиндисидан иборат.

Корхонанинг қўшилган капитали ва устав капитали йиғиндиси мутахассислар қўйилмаларининг йиғиндисига тенг. Захира капитали ва тақсимланмаган фойда йиғиндиси корхона ишлаб топган маблағларига тенг. Мақсадли тушумлар ва келгуси давр харажатлари йиғиндиси қийматини аниқлаш ва келгусида ўзлаштириш учун маблағлардан ташкил топган. Акциядорлик жамиятлари мулкдорлар ва бошқа кредиторлардан жалб қилинган капиталлардан унумли фойдаланган ҳолда даромад даражасини оширишга интиладилар.

Хўжалик субъектларида активлар рентабеллигининг минимал даражаси капитал нархи билан белгиланади. Хўжалик субъектларида етарли даражада ўз капиталига эга бўлиш молиявий барқарорликни англатади. Бунда нафақат асосий

маблағларнинг, балки айланма маблағларни ҳам шакллантириш муҳим бўлиб ҳисобланади. Хўжалик субъектларида молиявий ресурсларнинг аҳамияти ортиб бориши, унинг ёрдамида капитал фондни шакллантириш ва ишлаб чиқариш салоҳиятини ошириш, шунингдек жорий фаолиятни молиялаштиришда намоён бўлади.

Товар-моддий захиралар электр энергияси ишлаб чиқарувчи корхоналарда фаолият хусусиятларидан келиб чиқиб активларнинг муҳим қисмини ташкил этади.




1-расм. "ИЭС" АЖ, "Ҳудудий электр тармоклари" АЖ, "Ўзбекистон миллий электр тармоклари" АЖ, "Ўзбекгидроэнерго" АЖнинг ҳисобот даврида товар-моддий захиралари аудити, млн. сўмда[1]

Тадқиқот объекти ҳисобланган корхоналарда 2020 йилдан 2024 йилга қадар товар-моддий захиралар қийматининг сезиларли ўзгариши кузатилган. "Иссиқлик электр станциялари" АЖда товар-моддий захиралар қолдиқ қиймати 2020 йил 31 декабрь ҳолатига 605,1 миллиард сўмни ташкил этган бўлса, 2024 йил 31 декабрь ҳолатига келиб 2,3 триллион сўмга ошган. Бу кўрсаткичнинг тўрт баравардан ортиқ ўсиши корхонада ишлаб чиқариш жараёнининг кенгайишини ва янги лойиҳаларни амалга ошириш учун захираларнинг тўпланишини кўрсатади.

«Ҳудудий электр тармоклари» АЖда товар-моддий захиралар қиймати 2020 йилда 147,3 миллиард сўмни ташкил этган бўлса, 2024 йилга келиб 83,9 миллиард сўмга камайган. Бу камайиш захираларнинг самарали бошқарилиши ва керакли миқдорда сақланишини кўрсатади. «Ўзбекистон миллий электр тармоклари» АЖда эса товар-моддий захиралар қиймати 234,2 миллиард сўмдан 404,4 миллиард сўмга ошган. Товар-моддий захиралар қийматининг юқори даражада ўсиши мазкур корхоналарда ишлаб чиқариш жараёнининг жадаллик билан ривожланишига бевосита боғлиқ.

Пул маблағлари корхонанинг ликвидлилигини таъминловчи энг муҳим актив категориясидир.




2-расм. "ИЭС" АЖ, "Ҳудудий электр тармоклари" АЖ, "Ўзбекистон миллий электр тармоклари" АЖ, "Ўзбекгидроэнерго" АЖнинг ҳисобот даврида пул маблағлари аудити, млн. сўмда

Акциядорлик жамиятларининг молиявий ҳисоботидан фойдаланувчиларни корхонанинг пул маблағлари ва уларнинг эквивалентларини қандай ҳосил қилиши ва улардан фойдаланиши қизиқтиради. Корхоналар бир хил сабабларга кўра нақд пулга муҳтож бўлиб, уларнинг асосий даромад келтирувчи фаолияти қанчалик турлича бўлишидан қатъий назар, улар ўз операцияларини амалга ошириш, мажбуриятларни тўлаш ва инвесторларга даромад тўлаш учун нақд пулга муҳтож.

«Иссиқлик электр станциялари» АЖда пул маблағлари қиймати 2020 йилда 33,7 миллиард сўмни ташкил этган бўлса, 2024 йилга келиб 239,6 миллиард сўмга етган. Бу етти баравардан ортиқ ўсиш корхонанинг молиявий ҳолатининг яхшиланишини ва ликвидлилигининг ошишини кўрсатади. «Ҳудудий электр тармоклари» АЖда пул маблағлари 2020 йилда 795,7 миллиард сўмни ташкил этган бўлса, 2024 йилда 660,8 миллиард сўмга камайган. «Ўзбекистон миллий электр тармоклари» АЖда пул маблағлари 309,8 миллиард сўмдан 22,3 миллиард сўмга кескин камайган. Бу камайишлар инвестиция лойиҳаларига маблағлар сарфланганлиги билан изоҳланиши мумкин.

Асосий воситалар электр энергетикаси тармоғи корхоналари учун асосий ишлаб чиқариш омили ҳисобланади.

[1] Статистик маълумотлар асосида муаллиф томонидан тузилган.




3-расм. "ИЭС" АЖ, "Худудий электр тармоклари" АЖ, "Ўзбекистон миллий электр тармоклари" АЖ, "Ўзбекгидроэнерго" АЖнинг ҳисобот даврида асосий воситалар қолдиқ қийматининг аудити, млн сўмда[2]

Таҳлил маълумотларига кўра, тадқиқот объектларининг барчасида асосий воситалар қолдиқ қийматининг турлича ўзгариши кузатилган. «Иссиқлик электр станциялари» АЖда асосий воситалар қолдиқ қиймати 2020 йилда 39,2 триллион сўмни ташкил этган бўлса, 2024 йилда 11,2 триллион сўмга камайган. Бу камайиш асосий воситаларнинг амортизацияси ва баъзи объектларнинг ҳисобдан чиқарилиши билан боғлиқ.

«Худудий електр тармоклари» АЖда асосий воситалар қолдиқ қиймати 14,9 триллион сўмдан 23,6 триллион сўмга ошган. «Ўзбекистон миллий электр тармоклари» АЖда бу кўрсаткич 4,6 триллион сўмдан 6,3 триллион сўмга кўтарилган. Асосий воситалар қийматининг ўсиши янги электр тармоқларининг қурилиши, мавжуд объектларнинг модернизацияси ва техник жиҳозларнинг янгиланиши натижасида юз берган.

Дебиторлик қарзлари корхонанинг активларининг муҳим қисмини ташкил этади ва унинг бошқарилиши молиявий барқарорлик учун катта аҳамиятга эга.



4-расм. "ИЭС" АЖ, "Худудий электр тармоклари" АЖ, "Ўзбекистон миллий электр тармоклари" АЖ, "Ўзбекгидроэнерго" АЖнинг ҳисобот даврида дебиторлик қарзлари аудити, млн сўмда

«Иссиқлик электр станциялари» АЖда дебиторлик қарзлари 2020 йилда 4,1 триллион сўмни ташкил этган бўлса, 2024 йилда 3,4 триллион сўмга камайган. Бу ижобий тенденция қарзларни ундириш бўйича ишларнинг яхшиланишини кўрсатади. «Худудий электр тармоклари» АЖда дебиторлик қарзлари 1,5 триллион сўмдан 1,6 триллион сўмга бироз ошган. «Ўзбекистон миллий электр тармоклари» АЖда эса дебиторлик қарзлари 4,3 триллион сўмдан 2,7 триллион сўмга камайган.

Дебиторлик қарзларининг камайиши корхоналарнинг тўлов интизомини яхшилаш борасида олиб борилаётган ишларнинг самарадорлигини тасдиқлайди. Аммо электр энергетикаси тармоғи хусусиятларидан келиб чиқиб, дебиторлик қарзларининг муайян даражада сақланиб қолиши табиий ҳодиса ҳисобланади, чунки истеъмолчилар билан ҳисоб-китобларда муайян муддатлар белгиланган.

Молиявий ҳисоботларнинг МҲХСга мувофиқ тузилиши хусусий капитал ҳисобини ташкил этишнинг ижобий жиҳатларига эришиш учун муҳим шарт ҳисобланади. Хусусий капитални ҳисобга олиш ва акс эттириш бухгалтерия ҳисоби тамойиллари асосида тизимлаштирилган тарзда тўлиқлик ва ишончли амалга оширилиши керак. Акциядорлик жамиятларида хусусий капитал маълумотлари бухгалтерия ҳисоби тамойиллари асосида тизимлаштирилган тарзда тўлиқлик ва ишончли акс эттирилади.

МҲХСга мувофиқ ҳисоб сиёсатини ташкил этиш орқали бухгалтерия ҳисоби маълумотларининг ишончлилиги ва тўлиқлиги таъминланади. Эҳтиётқорлик тамойилларига асосланган ҳолда бухгалтерия ҳисоби ҳужжатларида маълумотлар аниқ ўзига хос хусусиятларига мувофиқ бўлиши лозим. Ишончлилик принципи муҳим ҳисобланиб, акциядорлик жамиятларидаги иқтисодий жараёнлар объектив маълумотларга таянган ҳолда юритилади.

Тадбиркорлик субъектларида ишлаб чиқариш, тижорат ва тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиш ва юритишдан асосий мақсад юқори натижавийликка эришиш ҳисобланади. Бухгалтерия ҳисобини тўғри ташкил этилиши молиявий ҳисоботларни тузишда унинг янада ишончлилигини таъминлашга хизмат қилади. Хусусийлаштириш, давлат тасарруфидан чиқариш ва акциядорлаштириш жараёнида турли мулкчиликка асосланган хўжалик юритувчи субъектларнинг салоҳияти уларнинг хусусий капитали кўрсаткичи билан характерланади.

Акциядорлик жамиятлари хусусий капиталга етарли даражада эга бўлмаган ҳолда фаолиятини узлуксиз ривожлантира олмайди ва бозорда вужудга келадиган рақобатга бардош қобилияти суст бўлади. Шунинг учун акциядорлик жамиятлари хусусий капиталга эга бўлиш, уни доимий

[2] Статистик маълумотлар асосида муаллиф томонидан тузилган.



тарзда кўпайтириб бориш уларнинг ривожланишига кафиллик берувчи муҳим элемент бўлиб ҳисобланади. Аввало, бухгалтерия ҳисоби ишларини ташкил этишда мукаммал тарзда ҳисоб сиёсатини шакллантириш, ҳар қандай фойдаланувчилар учун тушунарли бўлган ва самарали бошқарувни таъминловчи ҳисоботларни тузиш услубиятларини яратиш зарур.

Мамлакат иқтисодининг ривожида тадбиркорлик субъектларининг иқтисодий барқарорлиги бевосита боғлиқ бўлиб, молиявий ҳисоботларни тузишнинг концептуал асосларини ишлаб чиқариш уларнинг ривожланиши ва мустаҳкамланишига хизмат қилади. Хўжалик субъектларида молиявий ресурсларнинг аҳамияти ортиб бориши, капитал фондини шакллантириш ва ишлаб чиқариш салоҳиятини ошириш, шунингдек жорий фаолиятни молиялаштиришда намоён бўлади.

Хўжалик субъектининг молиявий барқарорлиги фаолият натижаларида қандай маблағларга эга эканлигига, улар узоқ муддатли ва жорий активларнинг мақсадга мувофиқ шакллантиришига боғлиқ. Молиявий ҳисоботлар бу жараёнларни тўлиқ ва ишончли акс эттириши керак. МҲХСга мувофиқ тузилган ҳисоботлар корхонанинг реал молиявий ҳолатини кўрсатади ва инвесторларга асосли қарорлар қабул қилиш учун зарур маълумотларни тақдим этади.

Электр энергетикаси тармоғида МҲХСга ўтишнинг алоҳида хусусиятлари мавжуд. Бу тармоқ корхоналари йирик асосий воситаларга эга бўлиб, уларнинг баҳоланиши ва амортизацияси махсус ёндашувни талаб қилади. Товар-моддий захираларнинг таркиби ва таснифи, дебиторлик қарзларининг шаклланиши ҳам соҳа хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши керак.

Пул маблағлари ҳаракати ҳисоботи корхонанинг ликвидлилик ҳолатини баҳолашда асосий роль ўйнайди. Бу ҳисоботда операцион, инвестицион ва молиявий фаолиятдан пул оқимлари алоҳида кўрсатилади. Электр энергетикаси тармоғида инвестицион фаолият катта ҳажмларга эга бўлиб, йирик инфратузилма лойиҳаларини амалга ошириш учун сезиларли маблағлар сарфланади. Бу пул маблағлари ҳаракати ҳисоботида тўғри акс эттирилиши керак.

Хусусий капитал ўзгаришлари ҳисоботи корхонанинг капитал таркибидаги барча ўзгаришларни батафсил кўрсатади. Бу ҳисоботда устав капиталининг ўзгариши, фойда тақсимоти, захира капиталининг шаклланиши ва бошқа операциялар акс эттирилади. Акциядорлик жамиятлари учун бу ҳисобот алоҳида аҳамиятга эга, чунки у акциядорларга ўз инвестицияларининг ўзгаришини кузатиш имконини беради.

Фойда ва зарарлар ҳисоботи корхонанинг иқтисодий самарадорлигини баҳолашда асосий восита ҳисобланади. Бу ҳисоботда даромадлар ва харажатлар, операцион фойда, молиявий натижалар ва соф фойда кўрсатилади. МҲХСга мувофиқ тузилган фойда ва зарарлар ҳисоботи даромадларни тан олиш ва харажатларни акс эттиришнинг халқаро принципларига асосланади.

Таҳлиллар натижасида аниқландики, МҲХСларига ўтишнинг имкониятлари, шарт-шароитлари ва амалга оширилиши шарт бўлган тайёргарлик ишларининг мазмун моҳияти кетма-кетликда ва узвий боғлиқликда очиб берилиши зарур. МҲХСлари асосида тузилган молиявий ҳисоботга бўлган эртанги заруратни қондириш учун бугун МҲХСларига ўтишга қадам қўйиш зарурлиги исботланди. Чунки МҲХСлари асосида молиявий ҳисобот тузишга эришиш бир босқичда тўлалигича, хатоларсиз амалга ошириладиган жараён эмас.

МҲХСга мувофиқ молиявий ҳисоботлар тузиш ва уни тайёрлаш ишларини амалга ошириш кўп уринишларни талаб қиладиган, вақт эвазига тажриба тўпланиладиган ва ҳар йили бойитилиб бориладиган жараёндир. Корхоналар бу жараёнга босқичма-босқич ёндашишлари ва ҳар бир босқичда олинган тажрибани кейинги босқичларда қўллашлари зарур.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Тадқиқот натижалари электр энергетикаси тармоғидаги корхоналарда асосий молиявий ҳисоботларни МҲХСга мувофиқ тузиш масалалари бўйича бир қатор муҳим хулосаларга келиш имконини берди. Бухгалтерия баланси, фойда ва зарарлар ҳисоботи, пул маблағлари ҳаракати ҳисоботи ҳамда хусусий капитал ўзгаришлари ҳисоботи корхонанинг молиявий ҳолатини турли жиҳатдан акс эттирувчи ўзаро боғлиқ ҳисобот шакллари эканлиги тасдиқланди.

2020-2024 йиллар давомида электр энергетикаси соҳасидаги йирик акциядорлик жамиятларининг молиявий кўрсаткичлари динамикаси МҲХСга ўтишнинг долзарблигини кўрсатади. Активларнинг таркиби ва тузилиши, хусусий капиталнинг шаклланиши, товар-моддий захираларнинг ҳажми, пул маблағларининг миқдори, асосий воситаларнинг қиймати ва дебиторлик қарзларининг динамикаси шаффоф молиявий ҳисоботга бўлган эҳтиёжни исботлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги 2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон қарори «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида».

3. МҲХС (IAS) 1 «Молиявий ҳисоботни тақдим этиш» халқаро стандарти. Халқаро бухгалтерлар федерацияси, 2023.

4. МҲХС (IAS) 7 «Пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот» халқаро стандарти. Халқаро бухгалтерлар федерацияси, 2023.

5. Қурбанов З.Н., Акрамов Ф.А. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишнинг долзарб масалалари. «Бизнес-эксперт» журнали, 2015 йил, 4-сон.

6. Собиров О. Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар талаблари даражасида такомиллаштириш. «Халқаро молия ва ҳисоб» илмий журнали, № 3, июнь, 2021 йил.

7. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Дарслик. Тошкент, 2019.

8. «Иссиқлик электр станциялари» АЖнинг 2020-2024 йиллар учун молиявий ҳисоботлари. Тошкент.

9. «Худудий электр тармоклари» АЖнинг 2020-2024 йиллар учун молиявий ҳисоботлари. Тошкент.

10. «Ўзбекистон миллий электр тармоклари» АЖнинг 2020-2024 йиллар учун молиявий ҳисоботлари. Тошкент.



Muroddov Tehron Furqat o‘g‘li
Samarqand shahar 3-son bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

RAQAMLI IDENTIKLIK VA SHAXS ONGINING RAQAMLI MUHITDA SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli identiklik va shaxs ongining raqamli muhitda shakllanishi masalalari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari inson hayotining barcha jabhalariga kirib borar ekan, shaxs o‘zini anglash, o‘zini ifoda etish va ijtimoiy muloqotda ishtirok etish shakllari ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Tadqiqotda raqamli identiklikning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, xususan, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt, axborot oqimi va algoritmik boshqaruv mexanizmlarining roli yoritilgan. Shuningdek, raqamli muhitda shaxs ongining kognitiv va axloqiy o‘zgarishlari, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi yangi kommunikativ munosabatlar tahlil etiladi. Maqola natijalariga ko‘ra, raqamli identiklikning sog‘lom shakllanishi uchun raqamli madaniyatni rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish va shaxsiy axborot xavfsizligini ta’minlash muhim omillar sifatida qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli identiklik, o‘zini namoyish etish, autentiklik, anonimlik, raqamli ong, ijtimoiy media, media-savodxonlik, raqamli fuqarolik.

Kirish



Zamonaviy raqamli muhit shaxsning shakllanishi va o‘zini anglash jarayonlariga beqiyos ta’sir ko‘rsatmoqda. Shishov va Kal’ney (2025) ta’kidlashicha, raqamli makondagi erkin axborot oqimi va doimiy bog‘lanish imkoniyatlari yoshlar shaxsiyati rivojiga misli ko‘rilmagan zamin yaratmoqda. Misol uchun, Pew Research Center ma’lumotlariga ko‘ra, 13–17 yoshdagi o‘smirlarning 95% da smartfon mavjud, 27% ijtimoiy tarmoqlar yordamida o‘zini kamroq yolg‘iz his qilishini bildiradi. Shuningdek, Veliev (2024) tadqiqotida raqamli texnologiyalarning miyamiz va ruhiy holatimizga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi; unga ko‘ra, raqamli muhit ongimiz va o‘z-o‘zini anglashimizni neyrobiologik darajada o‘zgartirish xavfini ham tug‘dirmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va virtual platformalarda shakllanayotgan kommunikatsion muhit shaxsning raqamli identifikatsiyasini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli fazo profil, avatar va onlayn obro‘ kabi elementlar orqali shaxsiy identifikatsiya qurishni ta’minlaydi. Shu tariqa, yoshlar o‘zlarini virtual hamjamiyatlarda tanishtiradi va real hamda virtual munosabatlarda yangi identifikatsiyalar paydo bo‘lmoqda. Masalan, Dzhura va Ivanchenko (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli muhit bugungi yoshlarning kundalik hayoti ajralmas qismiga aylanib, ularning ruhiy holati va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlangan. Raqamli texnologiyalar ta’lim va ijodkorlik imkoniyatlarini kengaytirar ekan, ijtimoiy tarmoqlarda doimiy taqqoslash hissi o‘z-o‘zini baholashga bosim ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi globallashgan dunyoda deyarli har bir kishi internet orqali u yoki bu tarzda ijtimoiy hayotda ishtirok etadi. 2025 yil holatiga ko‘ra, dunyo aholisining qariyb 5,4 milliard nafari (64% dan ortig‘i) ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi[1]. Bu shuni bildiradiki, ko‘pchilik insonlar raqamli ijtimoiylikning a’zosiga aylangan – ular Facebook, Instagram, Telegram, YouTube kabi platformalarda o‘z “profil”ini yuritadi, boshqalar bilan fikr almashadi. Virtual makondagi ushbu faollik shaxsning ichki dunyosiga, o‘zini anglashiga ta’sir etmay qolmaydi. Biroq bu ta’sirning mohiyati murakkab va ko‘p qirralidir: raqamli muhit shaxsga o‘zini erkin namoyish etish imkonini beradimi yoki sun’iy, ijtimoiy me’yorlar tomonidan boshqariladigan niqoblar ortida yashashga majbur qiladimi? Raqamli identiklik bilan bog‘liq yana bir savol – bu autentiklik (o‘zlikka sodiqlik) va anonimlik masalasi. Ko‘pchilik onlayn maydonda haqiqiy hayotdagidan boshqacha qiyofada namoyon bo‘ladi, ayrimlari hatto mutlaqo boshqa shaxs sifatida virtual hayot kechiradi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli identiklik va shaxs ongini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘paymoqda. Sotsiologiya va falsafa sohasida L.N. Solov’yeva (2018) axborot maydoniga inson kiritilishi natijasida «raqamli identifikatsiya»ning vujudga kelishini ta’kidlagan; uning fikricha, bu yangicha identitet informatsion makondagi shaxsning o‘z-o‘zini anglashini aks ettiradi[2]. Veliev (2024) esa «raqamli ong» tushunchasi orqali raqamli texnologiyalarning ongingizni tubdan o‘zgartirishi mumkinligini ko‘rsatdi; u, xususan, raqamli muhit ongimizga neyrobiologik darajada ta’sir qilishi mumkinligini qayd etgan[3]. Shu bilan birga, boshqa tadqiqotchilar onlayn kontekstda shaxsning o‘zini ifodalash usullarini tahlil qilgan: ular ijtimoiy tarmoqlarda yaratiladigan “virtual o‘zim” kontseptsiyasini ham o‘rganmoqda.

Psixologik tadqiqotlar raqamli muhit ta’sirini turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Masalan, Dzhura va Ivanchenko (2024) yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini o‘rganib, bu ularning o‘z-o‘zini anglash jarayonlariga ham ta’sir qilayotganini aniqladi. 2022 yilda Rudakova va Danilenko olib borgan eksperimental tadqiqotga ko‘ra, o‘smirlik yoshida virtual identifikatsiya real identifikatsiya to‘liq yoki qisman amalga oshirilgan sharoitda yuzaga keladi, rivojlanishi bilan birga esa murakkablashadi[4]. Avvalgi

[1] Dean, B. (2024). *Social media usage statistics (2024).* Backlinko. https://backlinko.com/social-media-users

[2] Труфанова, Е. О. (2018). *Цифровая идентичность как новый вид идентичности человека информационной эпохи*. Вестник Кемеровского государственного университета, 20(4), 1127–1132. https://doi.org/10.21603/2078-8975-2018-20-4-1127-1132

[3] Велиев, Д. Д. (2019). *Цифровое сознание и идентичность*. Гуманитарные науки. https://st-hum.ru/content/veliev-dd-cifrovoe-soznanie-i-identichnost

[4] Плешакова, А. Ю. (2021). *Влияние цифровой среды на идентичность личности в подростковом возрасте*. Инновационная наука, (3), 105–108. https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-tsifrovoy-sredy-na-identichnost-lichnosti-v-podrostkovom-vozraste

ishlar ijtimoiy tarmoqlarda yangicha ijtimoiy tuzilmalarni, xususan guruh a’zoligi va onglanishini o‘rganib, shaxsning o‘zini baholashi va e’tirof etilishi jarayonlarini tahlil qilgan[5]. Shu tarzda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsning raqamli muhitda o‘zini anglash jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, uni o‘rganishga oid qarashlar xilma-xil va dolzarbdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Raqamli identiklik – bu insonning raqamli makondagi o‘ziga xosligi, boshqalar nazaridagi virtual obrazi va o‘z-o‘zini anglash shaklidir. An’anaviy identiklik insonning jismoniy jamiyatdagi roli, kasbi, millati, oilaviy mavqei va boshqa omillar bilan belgilanar edi. Raqamli davrda esa har bir insonning bir nechta identiklik qatlamlari paydo bo‘lishi mumkin: masalan, professional tarmoqda (LinkedIn) bir xil shaxs, do‘stlari orasida (Facebook) ikkinchi qiyofa, anonim forumlarda esa tamoman boshqa bir obrazda namoyon bo‘lishi mumkin. Amerikalik olima Sherri Turkl (Sherry Turkle) raqamli muhitda shaxsning “ko‘p qirrali men” konsepsiyasini ilgari surib, kompyuter ekranidagi hayot odatdagi yagona identiklik o‘rniga ko‘p va turli identikliklarni shakllantirishini ta’kidlagan edi[6].

Unga ko‘ra, zamonaviy inson bir vaqtning o‘zida bir nechta virtual rollarni o‘ynaydi – masalan, bir kishi ertalab ishda jiddiy mutaxassis bo‘lib Zoom yig‘ilishida qatnashsa, kechga yaqin o‘zining blogida san’at haqidagi fikrlarini bo‘lishadi, tungi vaqtda esa onlayn o‘yinda boshqa bir taxallus ostida do‘stlari bilan muloqot qiladi. Har bir virtual rol uning identikligining muayyan qirrasini aks ettiradi.

Bunday ko‘p qirrali identiklik holati falsafada an’anaviy birxillik (oneness) tushunchasini shubha ostiga qo‘yadi. Agar ilgari “men kimman?” degan savolga javoban inson o‘zini yaxlit, uzviy bir shaxs sifatida tasavvur qilgan bo‘lsa, hozirgi kunda “men” turli vaziyatlarda turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Turklning ta’kidlashicha, onlayn maydonda bir nechta parallell hayot tajribasi (masalan, bir vaqtning o‘zida bir nechta chat va virtual olamda ishtirok etish) odamlarga o‘zlarini turli rollarda sinab ko‘rish imkonini berib, an’anaviy yagona identiklik tushunchasini qayta ko‘rib chiqishga olib kelmoqda. Bu, bir tomondan, shaxs erkinligini kengaytiradi – inson real hayotda imkoni bo‘lmagan tajribalarni virtual muhitda sinashi mumkin (masalan, jismoniy imkoniyati cheklangan odam internetda faol ijtimoiy hayot kechirishi). Boshqa tomondan esa, bu identiklikning parchalanganligi xavfini tug‘diradi – agar inson o‘z “men”ini juda bo‘lib yuborsa, uning ichki yaxlitligi zarar ko‘rishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli identiklik masalasiga oid turli yondashuvlar mavjud. Sosiologik yondashuv shuni ko‘rsatadiki, odamlar ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlarini ijobiy va ideal ko‘rinishda taqdim etishga moyil: ular faqat yaxshi yangiliklar, chiroyli suratlar ulashib, go‘yo “yaxshi hayot” obrazini yaratadilar.

Bu hodisa Gofmaning dramaturgik sotsiologiya konsepsiyasi (hayotni sahna, odamlarni aktyor deb olish g‘oyasi) bilan hamohangdir – ijtimoiy media bir turdagi sahna bo‘lib, har kim o‘z rolini ijro etadi. Raqamli identiklikning bunday kuratsiya qilinishi ayrim tadqiqotlarda “haqiqatga zidlik” yoki “avtentiklik muammosi” deb ataladi: ya’ni, onlayn profildagi odam qanchalik real hayotdagi odamga mos? Ko‘pincha, virtual imij haqiqatdan chiroyliroq bo‘ladi, chunki insonlar kamchiliklarini yashirib, faqat yutuqlarini namoyish etishga intiladilar.

Psixologik tadqiqotlar esa raqamli identiklik va o‘z-o‘zini qadrlash (self-esteem) o‘rtasidagi munosabatga e’tibor qaratadi. Ko‘pgina yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar olqishi (layk, izohlar) orqali o‘ziga baho beradi. Virtual muhitda “odob olish” ehtiyoji ba’zan haddan ziyod kuchayib, agar kutilgan e’tibor bo‘lmasa, shaxsda ruhiy bosim va depressiv holatlar paydo bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda, raqamli identiklik psixologik xatarlarga ham ega: ijtimoiy tarmoqlardagi ideal qiyofalar bilan raqobat, doimiy solishtirish hissi, yetarlicha “mashhurlik”ka erisha olmaslik qo‘rquvi kabilar ayniqsa yoshlar ongiga ta’sir qiladi.

Biroq raqamli identiklik ijobiy imkoniyatlar ham beradi. Masalan, ilgari o‘zini jamiyatda erkin ifoda eta olmagan ayrim insonlar (turli submadaniyat vakillari, kam sonli guruhlar, qiziqish klublari a’zolari) internet orqali hamjamiyat va qo‘llab-quvvatlash topishmoqda. Virtual jamoalar shaxsga o‘zini “o‘zinikilar” orasida his qilish, qabul qilinganligini sezish tuyg‘usini baxsh etadi. Masalan, noyob qiziqish yoki muammoga ega insonlar (aytaylik, kam uchraydigan kasallikka chalingan bemorlar yoki ekzotik hobbi bilan shug‘ullanuvchilar) ijtimoiy tarmoqlar orqali bir-birini topib, o‘zlariga yangi ijtimoiy identiklik yaratmoqda – “biz bir xil muammo/qarash/maqsadga egamiz” degan tuyg‘u.

Raqamli identiklikni tadqiq qilishda zamonaviy bir nazariy yondashuv – bu ijtimoiy konstruksionizm bo‘lib, unga ko‘ra identiklik doimo ijtimoiy muloqot va kontekst mahsulidir. Onlayn muloqot, xususan, matnli va audiovizual aloqa vositalari, identiklikni konstruksiya qilishning o‘ziga xos usullarini yaratadi.

Masalan, emoji va stikerlar orqali odamlar o‘z kayfiyati va hissiyotlarini ifoda etadi, bu ham virtual qiyofaning bir qismiga aylanadi. Shu tariqa, raqamli til va semiotika (belgilar tizimi) ham identiklik tarkibiga kiradi: kimdir anime avataridan foydalanadi, yana kimdir minimalistik uslubda profil yuritadi – bularning barchasi individuallikni bildirish vositalaridir.

---

[5] Ширшова, И. А. (2020). *Особенности влияния цифровизации на психику личности молодого человека*. Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения, (67), 145–149. https://sciup.org/osobennosti-vlijanija-cifrovizacii-na-psihiku-lichnosti-molodogo-cheloveka-147247267

[6] Nissley, T. (2001). *The psychology of the screen: Sherry Turkle and the construction of identity in the digital age*. Colorado State University Writing Gallery. https://writing.colostate.edu/gallery/nissley/turkle.htm

Yuqorida aytilganlarni jamlab, raqamli identiklik tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin: u ko‘p qirrali, dinamik va kontekstga bog‘liq hodisa bo‘lib, individual ong va ijtimoiy muhit o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi.

1-jadval

Raqamli identiklikning asosiy jihatlari va ularning tavsifi[7]

Raqamli identiklikning jihati	Tavsif va ahamiyati
O‘zini namoyish etish (self-presentation)	Inson ijtimoiy tarmoq profilida yoki boshqa onlayn platformada o‘zini qanday ko‘rsatishi. Odatda, odamlar virtual makonda ideal yoki yaxshilangan obrazini yaratishga intiladi, bu esa ularning o‘z-o‘zini baholashiga ta’sir qiladi.
Anonimlik va ko‘pqirralilik	Raqamli muhit ayrim hollarda shaxsga anonim qolish yoki taxalluslar ostida harakat qilish imkonini beradi. Natijada inson bir nechta turli identikliklarni (masalan, turli forumlarda har xil taxallus) yuritishi mumkin. Bu bir tomondan erkinlik bersa, boshqa tomondan identiklikning yaxlitligi muammosini tug‘diradi.
Maxfiylik (privacy)	Raqamli identiklik shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq. Onlayn faollik jarayonida inson haqidagi ko‘plab ma’lumotlar (rasmlar, fikrlar, joylashuv) oshkor bo‘ladi. Bu ma’lumotlar noto‘g‘ri qo‘llansa, shaxsga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois raqamli davrda **raqamli savodxonlik** – shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va hushyorlik juda muhim.
Jamoaviy identiklik (community)	Internet global miqyosda turli hamjamiyatlar shakllanishiga zamin yaratdi. Insonlar o‘z qiziqishi yoki muammosiga ko‘ra onlayn guruhlarga qo‘shilib, o‘sha jamoa identikligining bir qismiga aylanishadi. Bu ularga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, manfaatlar himoyasi va birdamlik tuyg‘usini beradi. Masalan, fanklublar, kasbiy tarmoqlar, “like-minded” forumlar.
Identiklikning parchalanganligi	Bir kishi turli platformalarda turli qiyofada bo‘lishi uning identikligini “parchalashi” mumkin. Masalan, real hayotda tortinchoq inson internetda o‘ta faol va hatto tajovuzkor bo‘lishi mumkin. Bu turli qiyofalarning uyg‘un emasligi ichki ziddiyatlarga olib kelishi ehtimoli bor. Shu sabab, psixologlar shaxsning raqamli va real o‘zliklari o‘rtasida sog‘lom muvozanat bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar.
Autentiklik (haqiqiylik)	Raqamli identiklik doirasida shaxsning o‘ziga sodiq qolishi darajasi. Ba’zi foydalanuvchilar virtual olamda ham o‘z haqiqiy qiyofasini saqlashga intiladi, boshqalar esa niqob ortida bo‘lishni afzal ko‘rishadi. Autentiklik yuqori bo‘lsa, virtual va real “men” o‘rtasida tafovut kam bo‘ladi. Bu masala ijtimoiy va axloqiy nuqtai nazardan muhim: masalan, do‘stlar orasida o‘zingizni boshqacha ko‘rsatish samimiyatsizlik deb qaralishi mumkin.

Yuqoridagi jadval raqamli identiklikning murakkab tabiatini ko‘rsatadi. Raqamli muhit shaxsga o‘zini har tomonlama sinab ko‘rish imkonini berarkan, unda ijobiy o‘zgarishlar va o‘zini rivojlantirish uchun sharoitlar mavjud. Shu bilan birga, inson o‘z raqamli qiyofasini ongli ravishda boshqarishi, raqamli etiket (onlayn odob qoidalari)ga amal qilishi va o‘z ruhiy holatini nazorat qilishi muhim. Keyingi bo‘limda raqamli muhitning shaxs ongiga ta’siri va ong shakllanishidagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Raqamli ijtimoiylik va ongning shakllanishi. Raqamli ijtimoiylik nafaqat identiklik, balki shaxs ongining rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Insonning ongini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri – bu axborot muhitidir. An’anaviy jamiyatda odam o‘z atrofidagilarning fikri, ommaviy axborot vositalari (gazeta, televideniye), oilaviy tarbiya va maktab orqali muayyan dunyoqarashni shakllantirgan bo‘lsa, hozirgi raqamli jamiyatda axborotning asosiy qismi internet orqali kelmoqda. Axborot transformatsiyasi deb ataluvchi jarayon tufayli bugun bir kunda inson o‘z ajdodlari bir oyda olganidan ko‘proq axborot oladi, degan fikrlar mavjud. Bu esa ong uchun katta yuk demakdir.

Raqamli muhitda shakllanayotgan ongning xususiyatlaridan biri – bu e’tibor (diqqat)ning yangi shakli. Doimiy ravishda bildirishnomalar (notifikatsiyalar), qisqa postlar va tezkor xabarlar oqimida inson miyasi ma’lumotni segmentlarga bo‘lib qabul qilishga ko‘nikmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar zamonaviy odamning diqqat jamlash qobiliyati pasayganini, masalan, kitob mutolaasi yoki chuqur tahlilga kam vaqt ajratilishini qayd etishadi[8].

[7] Muallif ishlanmasi

[8] Observatory of Educational Innovation. (2023, March 14). *Attention decreased: How technology affects our ability to concentrate*. Tecnológico de Monterrey. https://observatory.tec.mx/edu-news/attention-decreased-how-technology-affects-our-ability-to-concentrate



Raqamli ong tezkor almashinuv va yuzaki ko‘rishga moslashmoqda, bu esa tanqidiy tafakkur va tahliliy yondashuvga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin degan xavotirlar bor. Biroq, boshqa tomondan qaraganda, bugungi avlod bir vaqtning o‘zida ko‘p vazifani bajarishga (multitasking) va turli manbalardan kerakli ma’lumotni tez topishga moslashmoqda. Demak, diqqatning sifati emas, balki uslubi o‘zgarmoqda, degan qarash ham mavjud[9].

Raqamli ijtimoiylik sharoitida ijtimoiy ong va jamoaviy tafakkur ham yangi tus olmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar, “viral” (ommaviy tarqalgan) videolar va memlar butun boshli millionlab insonlarning fikrini ma’lum bir yo‘nalishda shakllantira oladi. Masalan, qisqa vaqt ichida keng tarqalgan bir xabar muayyan masalaga jamoatchilik diqqatini tortadi va ko‘plab odamlar shu asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradi.

Bu jarayonning xavfli tomoni – haqiqatning nisbiylashuvi. Ya’ni, agar ilgari biror yangilik rasmiy manbadan tasdiqlanib kelgan bo‘lsa, hozir ijtimoiy media platformalarida yolg‘on xabarlar ham haqiysi bilan aralash tarqalib, “post-haqiqat” deb ataluvchi hodisani vujudga keltirmoqda. Bu holatda odamlar hissiyotga yo‘g‘rilgan va subyektiv axborot ta’sirida qaror qabul qilishlari, real faktlar esa ikkinchi planga tushib qolishi mumkin. Shunday ekan, raqamli muhit ongga ta’sir qilarkan, tanqidiy fikrlash hamda media savodxonlikni shakllantirish inson ongi himoyasi uchun zarur bo‘lib bormoqda.

Shaxs ongining raqamli muhitda shakllanishi deganda, albatta, faqat salbiy jarayonlarni tushunmaslik kerak. Raqamli muhit fikrlar xilma-xilligini ta’minlash, ijodkorlikni rag‘batlantirish va innovatsion tafakkurni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Misol uchun, bugungi yoshlar turli onlayn platformalarda ijodiy kontent (video, musiqa, dizayn va h.k.) yaratib, ulashib, bir-biridan o‘rganmoqda. Bu ular ongining erkin va noan’anaviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Agar maktab yoki mahalla doirasida cheklangan qarashlar bo‘lsa, internet global miqyosda turfa madaniyat va g‘oyalar bilan tanishish imkonini berdi. Natijada, yosh avlodning dunyoqarashi kengayib, bag‘rikengligi oshmoqda deyish mumkin – chunki ular onlayn muloqot orqali dunyoning turli burchaklaridan tengdoshlari bilan bevosita tanishadilar.

Raqamli ijtimoiylik shuningdek ijtimoiy faollik va fuqarolik ongining yuksalishiga ham ta’sir qilmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor safarbarlik (petitsiyalar, xayriya aksiyalari, fleshmoblar) amalga oshirilayotir. Virtual makonda shakllangan fuqarolik pozitsiyasi real hayotdagi o‘zgarishlarga ham turtki bo‘lmoqda. O‘z navbatida, bu jarayon shaxs ongida “men jamiyatning bir qismiman va ta’sir o‘tkaza olaman” degan ishonchni shakllantiradi. Mahalliy misolda, O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda yoshlarning internet orqali turli ijtimoiy loyihalarda birlashishi, o‘z fikrini onlayn bildirish holatlari oshdi. Bu fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun ijobiy omildir.

Shaxs ongining raqamli muhitda shakllanishida alohida e’tiborga molik jihat – bu tafakkurning global

[9] Sahin, S. (2024). *The diminishing attention span: How technology is reshaping our minds. Medium.* Retrieved from https://medium.com/@sahin.samia/the-diminishing-attention-span-how-technology-is-reshaping-our-minds-47963d248d41

va mahalliy komponentlari uyg‘unligi. Yoshlar global platformalarda dunyo madaniyati va bilimlari bilan tanishar ekan, ular ongida globallashuv jarayoni kechadi. Shu bilan birga, ularning milliy va mahalliy o‘ziga xoslikni anglashlari ham muhim. Agar raqamli ijtimoiylik bir taraflama (faqat global yo‘nalishda) rivojlansa, shaxs o‘z milliy identikligini yo‘qotish xavfi bor. Aksincha, faqat lokal axborot bilan cheklanib qolsa, tor fikrlash vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy raqamli ong globallashuv va mahalliylikni birga singdira olishi kerak: bu – “o‘yla global, harakat qil lokal” degan tamoyilga hamohangdir.

Bundan tashqari, raqamli muhitda ong shakllanishida ta’limning roli ham juda katta. Agar oila va maktab bolaga internetdan to‘g‘ri foydalanishni, axborotni tahlil qilishni, onlayn muhitda o‘zini tutish qoidalarini o‘rgatsa, raqamli ijtimoiylikning salbiy ta’sirlari kamayadi. Bu borada ko‘plab mamlakatlarda “raqamli fuqarolik” tushunchasi joriy qilinib, maxsus o‘quv kurslari kiritilmoqda. Raqamli fuqarolik – bu shaxsning onlayn makondagi huquq va majburiyatlarini tushunishi, odob qoidalariga rioya etishi va mas’uliyatni his qilishidir. Masalan, kiber-xavfsizlik qoidalariga amal qilish, internetda boshqa odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, mazmunli kontent yaratish va tarqatish – bularning barchasi raqamli fuqarolik elementlari bo‘lib, ongli yondashuvni talab qiladi.

Raqamli identiklik – murakkab hodisa. Insonning onlayn maydondagi “men”i ko‘p qatlamli va doimiy o‘zgaruvchan. Biror foydalanuvchining virtual profili uning haqiqiy qiyofasini to‘la aks ettirmasligi mumkin. Tadqiqotlar raqamli identiklik ijtimoiy va individual omillar ta’sirida shakllanishini tasdiqlaydi: inson o‘zini qanday ko‘rsatishni tanlashi (individual faktor) va auditoriya yoki jamiyatning reaksiyasi (ijtimoiy faktor) o‘zaro aloqada bo‘ladi[10]. Masalan, foydalanuvchi Instagramda o‘z fotosuratini joylar ekan, u ma’lum ma’noda boshqalarning reaksiyasini oldindan hisobga olib, filtrlar va taglavhalar tanlaydi – ya’ni, o‘z identikligini ongli ravishda konstruksiya qiladi.

·**Virtual va real identiklik o‘rtasidagi munosabat.** Ko‘pchilik uchun raqamli identiklik real hayotdagi identiklikning davomidir: ular haqiqiy hayotda qanday bo‘lsa, onlayn maydonda ham shunday ko‘rinishga intiladilar. Boshqalar esa internetni yangi qiyofa sinab ko‘rish, ichki orzularini amalga oshirish maydoni sifatida ko‘radi. Sherri Turkl ta’kidlaganidek, ko‘p onlayn personajlarga ega bo‘lish aslida shaxsning ichki “men”ini o‘rganishiga yordam berishi ham mumkin – turli rollar orqali inson o‘zini yaxshiroq tushunib boradi[11]. Ammo ayni paytda, turli maskaradlarga berilib ketish, real o‘zlikdan uzoqlashish xavfi ham mavjud. Demak, muhim vazifa – virtual va real o‘zlikni uyg‘unlashtira olish, identiklikning yadrosini saqlab qolish.

·**Raqamli muhitning ongga ijobiy va salbiy ta’siri.** Raqamli ijtimoiylik sharoitida shakllangan ong ochiq, moslashuvchan va texnologik yangiliklarga tayyor bo‘ladi. Yoshlar axborotni tez qabul qilib, tez tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishgan, turli madaniyat va g‘oyalarni oson qabul qilishadi. Bu **ko‘pmadaniyatlilik** va **innovatsion tafakkur** uchun zamin yaratadi. Shu bilan birga, doimiy onlayn bo‘lish ehtiyoji, e’tiborning bo‘linishi, chuqur mulohaza qilishga vaqt ajratmaslik kabi omillar ongning yuzaki bo‘lib qolishiga olib kelishi mumkin degan xavotirlar bor[12]. Masalan, biror mavzu bo‘yicha chuqur bilim olish o‘rniga qisqa wiki-maqola yoki post bilan cheklanish holatlari ko‘paymoqda. Bu bilimning sayozlashuvi, fikrning yuzakilashtiruvchi omil sifatida ko‘riladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun raqamli muhitda ham sifatli, chuqur kontentni targ‘ib qilish, foydalanuvchilarda **reflektiv tafakkur** (o‘ylab ko‘rish) ko‘nikmasini rag‘batlantirish zarur.

·**Axloqiy va huquqiy masalalar.** Raqamli identiklik va ong masalalari axloqiy me’yor va qonunlar nuqtai nazaridan ham ko‘plab savollarni tug‘diradi. Masalan, internetda **foydalanuvchi anonimligi** qanday chegaralanishi lozim? Kimdir anonimlikdan foydalanib, boshqalarga tuhmat yoki tahdid qilish mumkin – bu kiberjinoyat deb baholanadi. Shunday holatlarda shaxsning identikligini aniqlash va javobgarlikka tortish huquqiy mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak. Yana bir masala – **raqamli meros**: inson vafot etgandan so‘ng uning ijtimoiy tarmoq profillari, raqamli ma’lumotlari taqdiri qanday bo‘ladi? Bunday savollar bugun jahon hamjamiyatida muhokama qilinmoqda. Ko‘rinadiki, raqamli ijtimoiylik qoidalarini belgilash, raqamli identiklik daxlsizligini ta’minlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish kabi yo‘nalishlarda ham falsafiy, ham yuridik yechimlar zarur.

·**Mahalliy kontekst.** O‘zbekiston yoshlari ham global internet makonining faol ishtirokchisiga aylandi. Hozirgi kunda mamlakatda 8,7 milliondan ortiq ijtimoiy media foydalanuvchilari bor, bu umumiy aholi sonining qariyb 25%ini tashkil etadi[13]. Yosh avlod orasida Instagram, Telegram, TikTok eng mashhur platformalar bo‘lib, ular orqali muloqot, o‘yin-kulgi, axborot olish kechmoqda. Bu jarayon ular ongining shakllanishida muhim rol o‘ynamoqda. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki,

[10] Rahman, M. F. (2024). *The role of digital identity in the age of social media: Literature analysis on self-identity construction and online social interaction. International Journal of Media and Communication Studies.* https://www.researchgate.net/publication/382170557_The_Role_of_Digital_Identity_in_the_Age_of_Social_Media_Literature_Analysis_on_Self-Identity_Construction_and_Online_Social_Interaction

[11] Nissley, T. (2001). *The psychology of the screen: Sherry Turkle and the construction of identity in the digital age.* Colorado State University Writing Gallery. https://writing.colostate.edu/gallery/nissley/turkle.htm

[12] Sahin, S. (2024). *The diminishing attention span: How technology is reshaping our minds. Medium.* https://medium.com/@sahin.samia/the-diminishing-attention-span-how-technology-is-reshaping-our-minds-47963d248d41

[13] DataReportal. (2024). *Digital 2024: Uzbekistan.* We Are Social & Meltwater. https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan

o‘zbek yoshlarining onlayn faolligi ortib borarkan, ular o‘z milliy-madaniy identikligini ham raqamli muhitda namoyish etishga intilishyapti – masalan, o‘zbek tilida bloglar yuritish, milliy qadriyatlar haqida kontentlar ulashish.

Shu bilan birga, globallashuv ta’siri ham kuchli: kiyinish stili, musiqa didi, dunyoqarash borasida internet orqali kelayotgan global trendlar sezilmoqda. Bu tabiiy jarayon, biroq uni ongli tarzda boshqarish lozim. Ta’lim tizimi va madaniy siyosatda yoshlarning raqamli ongini rivojlantirish, ularni milliy ruhda tarbiyalash va zararli axborotdan himoya qilish masalalari ko‘rib chiqilmoqda. Xususan, maktablarga media savodxonlik darslari kiritish, internetdan xavfsiz foydalanish qoidalarini o‘rgatish takliflari ilgari surilgan.

·**Raqamli ong va tanqidiy fikrlash.** Raqamli muhitda shaxs ongining yanada tanqidiy va mustaqil bo‘lishi uchun imkoniyatlar bor. Chunki internet – bu cheksiz ma’lumot manbai, turli nuqtai nazar va dalillar xazinasi. Agar foydalanuvchi ongli ravishda har xil manbalarni tahlil qilib, solishtirib, xulosa chiqarishga odatlansa, uning fikrlashi yanada puxta bo‘ladi. Masalan, biror ijtimoiy-siyosiy masala yuzasidan internetda turli maqolalarni o‘qib, bahslarni kuzatib, shaxs o‘z mustaqil fikrini shakllantirishi mumkin.

Bu an’anaviy bir yoqlama ma’lumot olishdan ko‘ra foydaliroq. Lekin bunda ham asosiy shart – bu **axborotni filtrlay bilish**. Chunki internetda haqiqat bilan yolg‘on aralash bo‘lib ketgan. Shuning uchun ham bugungi kunda “fake news” (feyk yangiliklar) muammosi global ahamiyat kasb etdi va unga qarshi kurashish uchun sun’iy intellektdan tortib, jamoatchilik fact-checking harakatlarigacha safarbar etilmoqda. Ommaviy axborot vositalari auditoriyaga tekshirilgan xabarlarni taqdim etishga harakat qilar ekan, har bir fuqaro ham o‘zida tanqidiy filtrni rivojlantirishi kerak.

Yuqoridagi natijalar raqamli identiklik va ong masalalarining dolzarbligini ko‘rsatadi. Ko‘rinadiki, raqamli muhit inson “men”ini shakllantirishdagi asosiy maydonga aylangan. Shu bois, kelgusida bu yo‘nalishda tadqiqotlarni chuqurlashtirish, xususan, raqamli identiklikning milliy mentalitetga ta’siri, raqamli ong va ta’limning o‘zaro aloqasi, raqamli muhitning ruhiy salomatlikka tasiri kabi masalalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhimdir.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli identiklik shaxsning psixologik, ijtimoiy va madaniy o‘zini anglash tizimida yangi qatlam sifatida shakllanmoqda. Raqamli muhitda shaxs o‘zini virtual makon orqali ifoda etadi, bu esa real va virtual “men” o‘rtasida yangi o‘zaro munosabat tizimini yuzaga keltiradi.

Birinchidan, **ijtimoiy tarmoqlar**da faol ishtirok etish natijasida shaxsning identikligi ko‘p qatlamli tus olmoqda – foydalanuvchi o‘zining haqiqiy, ideallashtirilgan va texnologik jihatdan yaratilgan obrazlarini uyg‘unlashtirgan holda namoyon etadi. Bu esa identiklikning fragmentatsiyasi, ya’ni shaxsning turli raqamli rollar orasida bo‘linishi jarayonini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, **axborot oqimining tezligi va algoritmik boshqaruv** mexanizmlari inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqotda aniqlanishicha, sun’iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar foydalanuvchi haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlab, unga shaxsiylashtirilgan kontent taqdim etadi. Natijada inson ongida “filtr pufagi” (filter bubble) fenomeni yuzaga kelib, kognitiv mustaqillik va tanqidiy tafakkur darajasi pasayishi kuzatiladi.

Uchinchidan, raqamli muhitda **axloqiy identiklik** ham o‘zgarishga uchraydi. Shaxsning onlayn xatti-harakatlari ko‘pincha anonimlik, ijtimoiy mas’uliyatdan uzoqlashish va axloqiy chegaralarning buzilishi bilan kechadi. Shu bilan birga, raqamli axloqiy madaniyatni shakllantirish orqali foydalanuvchilarda empatiya, hurmat va mas’uliyat hissi tiklanishi mumkinligi aniqlangan.

To‘rtinchidan, **kognitiv jarayonlar**da ham o‘zgarishlar kuzatildi: raqamli muhitda ishlovchi insonlar diqqatni jamlash, ma’lumotni tanlash va xotirada saqlashda an’anaviy tafakkurga nisbatan qisqa siklli idrok modeliga o‘tmoqda. Bu esa bilimni chuqur tahlil qilishdan ko‘ra tezkor axborot iste’moliga asoslangan “klip tafakkuri”ni kuchaytiradi.

Beshinchidan, **shaxsiy axborot xavfsizligi** va **shaxsiy chegaralarning yo‘qolishi** raqamli identiklikning eng dolzarb muammosi sifatida qayd etildi. Ko‘plab foydalanuvchilar o‘z ma’lumotlarining nazoratini algoritmik tizimlarga topshirgan holda, o‘z ongli nazorat imkoniyatlarini yo‘qotmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli identiklikning sog‘lom shakllanishi uchun uchta asosiy yo‘nalish muhim:

1.Raqamli madaniyatni rivojlantirish – onlayn xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish va etik standartlarni mustahkamlash;

2.Media savodxonlikni oshirish – raqamli kontentni tanqidiy tahlil qilish va axborotga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirish;

3.Shaxsiy axborot xavfsizligini ta’minlash – raqamli izni (digital footprint) boshqarish va shaxsiy ma’lumotlar ustidan nazoratni mustahkamlash.

Natijada, insonning raqamli identikligi ijtimoiy va psixologik barqarorlikning muhim ko‘rsatkichiga aylanmoqda hamda raqamli ongni shakllantirish jarayoni shaxsning axborot davrida muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining poydevori sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa

Raqamli davr shaxs identikligi va ongining shakllanish jarayonlariga misli ko‘rilmagan ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada tahlil qilingan fikrlarni yakunlar ekanmiz, quyidagi xulosalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1.Raqamli identiklik – dinamik va ko‘p qirrali. Insonning onlayn profili uning virtual identikligini belgilaydi, u esa vaqt o‘tishi bilan foydalanuvchining tajribasi

va dunyoqarashiga qarab o‘zgaradi. Raqamli identiklik real hayotdagi identiklikni to‘ldirishi yoki unga zid bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda foydalanuvchi virtual makonda o‘zini idealizatsiya qiladi, ijobiy taraflarini ko‘rsatadi va salbiylarini yashiradi. Bu normal hodisa bo‘lsa-da, identiklikning haqqoniyligi masalasini kun tartibiga chiqarmoqda.

2.Shaxs ongining shakllanishida axborot muhitining roli. Raqamli muhit shaxs ongini turlicha axborot bilan to‘ldiradi. Bir kunda o‘rtacha foydalanuvchi ijtimoiy tarmoqlarda yuzlab postlarni ko‘radi, yangiliklar tasmasini kuzatadi, videolar tomosha qiladi. Bu axborot oqimi uning dunyoqarashi va qarashlarini shakllantirishda asosiy omilga aylanmoqda. Shuning uchun, kim axborot maydonini nazorat qilsa (yoki ta’sir o‘tkaza olsa), o‘sha shaxslar omma ongi va identikligiga ham ta’sir o‘tkazadi. Bu holat axborot xavfsizligi va ma’naviy tahdidlar masalasini kun tartibiga chiqarmoqda: zararli g‘oyalar, ekstremizm, ma’naviy buzuqlikni targ‘ib etuvchi materiallar internet orqali tarqalishi jamiyat ongiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Demak, raqamli muhitda shaxs ongini himoya qilish – milliy xavfsizlikning bir qismidir.

Multimodal vositalarning bu tarzda o‘quv jarayoniga integratsiya qilinishi TBLT metodining kommu-

[23] McMillan J. H.; Schumacher S. Research in Education: Evidence-Based Inquiry. 7th ed. Boston: Pearson Education, 2010.

[24] Cohen L.; Manion L.; Morrison K. Research Methods in Education. 8th ed. London; New York: Routledge, 2018.

[25] Hockly N. Digital literacies in the language classroom // *ELT Journal*. 2018. 72(1). P. 81–85; Chapelle C. A. The relationship between second language acquisition theory and computer-assisted language learning // *The Modern Language Journal*. 2009. 93. P. 741–753.

[26] Nunan D. Task-Based Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2004; Dörnyei Z. Research Methods in Applied Linguistics. Oxford: Oxford University Press, 2007.

[27] Fraenkel J. R.; Wallen N. E.; Hyun H. H. How to Design and Evaluate Research in Education. 8th ed. New York: McGraw-Hill, 2012.

[28] González-Lloret M.; Ortega L. Technology-Mediated TBLT: Researching Technology and Tasks. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2014.

[29] Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume with New Descriptors. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. URL: https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/

[30] González-Lloret M.; Ortega L. Technology-Mediated TBLT: Researching Technology and Tasks. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2014.

[31] Reinders H.; White C. The theory and practice of autonomy in language learning with technology // *Innovation in Language Learning and Teaching*. 2011. 5(2). P. 101–107.

nikativ va real vazifaga asoslangan mohiyatiga to‘liq mos keladi. Bu yondashuv talabalarni faol muloqotga, o‘zaro fikr almashish, qaror qabul qilish hamda tanqidiy tahlilga jalb etish imkonini beradi.[32] Ayniqsa, ESP yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bunday topshiriqlar kasbiy faoliyatda uchrashi mumkin bo‘lgan til vaziyatlarini oldindan simulyatsiya qilish imkoniyatini yaratdi. Natijada, til o‘rganish jarayoni faqat akademik ko‘nikmalarga emas, balki kasbiy va amaliy ehtiyojlarga yo‘naltirilgan bo‘ldi.[33] Topshiriqlarni ishlab chiqishda Willis va Willis tomonidan ishlab chiqilgan klassik TBLT modeli – ya’ni pre-task, task cycle va language focus bosqichlari asos sifatida qabul qilindi.[34] Pre-task bosqichida talabalar topshiriq kontekstini muhokama qildilar, kerakli til birikmalarini aniqladilar. Task cycle bosqichida esa ular raqamli vositalar orqali vazifani jamoaviy tarzda bajardilar. Yakuniy – language focus bosqichida esa grammatik va leksik jihatdan tahlil olib borildi, keng tarqalgan xatoliklar ustida ishlashga alohida e’tibor qaratildi.

Topshiriqlar ESP kontekstida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning autenetik nutq namunalari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular sun’iy emas, balki real kommunikativ holatlarga yaqin edi.[35] Jumladan, mijoz bilan yozishmalar, savdo muzokaralari va hisobot taqdimotlari kabi vazifalarda asl hujjat namunalari va real biznes muomalasidan olingan andozalardan foydalanildi.Raqamli platformalarning joriy etilishi esa talabalar orasida mustaqil o‘rganish va reflektiv yondashuvni shakllantirishga xizmat qildi.[36] Xususan, Mentimeter orqali anonim tarzda fikr bildirish imkoniyati talabalar uchun o‘z nuqtai nazarini erkin ifodalash, tanqidiy fikrlash va akademik munozarada faol ishtirok etish imkonini yaratdi. Materiallar differensial yondashuv tamoyillariga asoslanib ishlab chiqildi. Har bir talabaga uning individual til darajasiga mos topshiriqlar, leksik birliklar va grammatik konstruktsiyalar taqdim etildi. Bu esa til o‘rganishdagi shaxsiy farqlarni inobatga olish va har bir talabaga moslashtirilgan o‘quv muhiti yaratishga xizmat qildi.[37]

Baholash tizimi ham shu yondashuvga muvofiq tashkil etildi: jarayon davomida o‘zaro fikr almashuv, oraliq topshiriqlar va refleksiya orqali formatif baholash olib borildi; yakuniy test va yozma ishlanmalar orqali esa summativ baholash amalga oshirildi. Bu yondashuv talabalarning o‘z-o‘zini kuzatish, xatolardan saboq olish va bosqichma-bosqich o‘sish imkonini yaratdi. Tajriba davomida to‘plangan kuzatuvlar va so‘rovnomalar shuni ko‘rsatdiki, aynan raqamli platformalar orqali taqdim etilgan topshiriqlar talabalar tilga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirgan. Interaktivlik, vizuallik va o‘zaro muloqot imkoni tufayli talabalarning darsdagi ishtiroki faolroq bo‘lgan, ular tilni real hayotiy holatlarda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Shu asosda, ushbu topshiriqlar to‘plamini TBLT metodining zamonaviy, innovatsion shakli sifatida talqin qilish mumkin. Ayniqsa ESP yo‘nalishida bu kabi multimodal va moslashuvchan yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat lingvistik, balki kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qilmoqda.[38]

Tadqiqot bosqichlari

Tadqiqot umumiy hisobda olti hafta davomida olib borildi va uch asosiy bosqichga ajratilgan metodik reja asosida amalga oshirildi: (1) boshlang‘ich diagnostika, (2) eksperimental ta’sir, va (3) yakuniy baholash hamda tahlil. Har bir bosqich o‘ziga xos maqsad, baholash vositalari va kuzatuv mezonlariga tayangan holda puxta tashkil etildi. Bunday ketma-ketlik, Dörnyei qayd etganidek, eksperimental tadqiqotlarda ichki ishonchlilikni ta’minlash uchun muhim hisoblanadi.[39]

1. Boshlang‘ich diagnostika

Tadqiqotning dastlabki bosqichi – diagnostik baholash – ishtirokchilarning mavjud lingvistik kompetensiyasi holatini aniqlashga qaratildi. Bu jarayonda CEFR mezonlariga asoslangan, maxsus ishlab chiqilgan testlar yordamida talabalar grammatik aniqlik, so‘z boyligi, yozma ifoda va pragmatik kompetensiya bo‘yicha baholandi.[40] Test topshiriqlari aynan ESP kontekstiga mos ravishda tanlangan bo‘lib, moliyaviy hujjatlar bilan ishlash, rasmiy yozishmalarni tushunish, savdo statistikalarini tahlil qilish kabi kasbiy faoliyatlarni modellashtirgan. Bu yondashuv orqali baholash nafaqat til bilimlarini, balki o‘quvchilarning kasbiy vazifalarni bajara olish salohiyatini ham aniqlashga xizmat qildi. Diagnostika natijalari asosida har ikki guruhning boshlang‘ich til darajalari tahlil qilindi va ular orasidagi farqlar minimal darajaga yetkazildi. Bu esa eksperimental ta’sir natijalarini chalkashtiruvchi omillardan tozalash imkonini berdi. Guruhlarni tenglashtirish, ya’ni ularning til darajasi, yoshi, raqamli savodxonlik darajasi va motivatsiyasi bo‘yicha muvozanatni ta’minlash

[32] Chapelle C. A. The relationship between second language acquisition theory and computer-assisted language learning // *The Modern Language Journal*. 2009. 93. P. 741–753.

[33] Basturkmen H. Developing Courses in English for Specific Purposes. London: Palgrave Macmillan, 2010.

[34] Willis D.; Willis J. Doing Task-Based Teaching. Oxford: Oxford University Press, 2007.

[35] Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press, 2003.


[36] Hockly N. Digital literacies in the language classroom // *ELT Journal*. 2018. 72(1). P. 81–85.

[37] Tomlinson B. Developing Materials for Language Teaching. 2nd ed. London: Bloomsbury Academic, 2013.

[38] Thomas M.; Reinders H. Task-Based Language Learning – Insights from and for L2 Writing. London; New York: Continuum International Publishing Group, 2010.

[39] Dörnyei Z. Research Methods in Applied Linguistics. Oxford: Oxford University Press, 2007.

[40] Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume with New Descriptors. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. URL: https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/



ichki ishonchlilikni mustahkamladi.[41]

2. Eksperimental ta'sir

Tadqiqotning ikkinchi bosqichi – eksperimental ta'sir – har ikki guruh uchun o'quv faoliyatining turlicha metodik yondashuvda tashkil etilishini o'z ichiga oldi. Bu bosqichda nazorat guruhga an'anaviy shakldagi TBLT metodiga asoslangan topshiriqlar taqdim etildi. Ushbu topshiriqlar qog'ozli materiallar va sinfda o'qituvchi rahbarligida olib borilgan mashg'ulotlar orqali bajarildi. Aksincha, eksperimental guruh o'quvchilari raqamli platformalar yordamida topshiriqlarni bajarishdi. Jumladan, Padlet, Google Docs, Quizlet, Mentimeter kabi interaktiv onlayn vositalardan keng foydalanildi.[42] Har bir topshiriq TBLT metodining asosiy tarkibiy qismlariga mos tarzda ishlab chiqildi: ya'ni, pre-task (tayyorgarlik bosqichi), task cycle (asosiy topshiriq bajarilishi) va language focus (tilshunoslik xulosasi) kabi bosqichlarga bo'lindi.[43] Ushbu tuzilma talabalar uchun til o'rganish jarayonini bosqichma-bosqich, izchil va kontekstual holatda tashkil etishga xizmat qildi. Eksperimental guruhga taklif qilingan topshiriqlar multimodal va interaktiv formatda tuzilgan bo'lib, bu talabalar faolligini oshirishga, til bilan faol muloqot qilishga, hamda real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarda fikr almashish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berdi.[44] Ayniqsa raqamli platformalarning o'zaro muvofiqligi talabalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirdi va ularni akademik muhitdan tashqaridagi kasbiy vazifalarga tayyorladi.

Ta'lim jarayonida har bir hafta ma'lum bir mavzuga oid topshiriqlar bajarilib bordi. Ushbu topshiriqlar doirasida talabalar formatif (jarayon davomida) baholashga jalb qilindi – bu esa o'quvchilar natijalarini muntazam kuzatish, aniqlik kiritish va zarur holatlarda pedagogik intervensiyalarni amalga oshirish imkonini berdi. Masalan, "Interaktiv elektron xat yozish" mavzusidagi topshirig'ida talabalar elektron tijorat asosida o'zaro professional yozishmalar olib bordilar. "Moliyaviy hisobot taqdimoti" topshirig'ida esa jamoaviy asosda Google Slides orqali vizual prezentatsiyalar tayyorlashdi va og'zaki ravishda taqdim etdilar. Ushbu faoliyatlar orqali nafaqat til kompetensiyasi rivojlandi, balki hamkorlikda ishlash, ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash va o'z fikrini aniq ifoda etish kabi yumshoq ko'nikmalar (soft skills)

[41] Fraenkel J. R.; Wallen N. E.; Hyun H. H. How to Design and Evaluate Research in Education**.** 8th ed. New York: McGraw-Hill, 2012.

[42] González-Lloret M.; Ortega L. Technology-Mediated TBLT: Researching Technology and Tasks. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2014.

[43] Willis D.; Willis J. Doing Task-Based Teaching**.** Oxford: Oxford University Press, 2007.

[44] Chapelle C. A. The relationship between second language acquisition theory and computer-assisted language learning // *The Modern Language Journal*. 2009. 93. P. 741–753**.**

ham shakllana boshladi.[45] Bu esa TBLT metodining ESP kontekstida qo‘llanilishida keng qamrovli ta’sir kuchiga ega ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

3. Yakuniy baholash va tahlil

Tadqiqotning uchinchi bosqichi – yakuniy baholash va tahlil – eksperimental ta’sirning samaradorligini o‘lchash va uning talabalarning lingvistik kompetensiyasiga ta’sirini chuqur tahlil qilishga qaratildi. Ushbu bosqichda talabalar yana CEFR (Common European Framework of Reference) mezonlari asosida tuzilgan yakuniy test topshiriqlarini bajardilar. Testlar diagnostika bosqichidagi materiallar bilan strukturaviy va mazmuniy jihatdan muvofiqlashtirilgan bo‘lib, boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlarni bevosita taqqoslash imkonini berdi.[46] Bu esa tajribaning ilmiy ishonchliligini oshirishga xizmat qildi. Yakuniy testlar grammatik to‘g‘rilik, leksik boylik, pragmatik moslik va yozma nutqning aniq ifodalanganligi kabi komponentlarga qaratilgan bo‘lib, ESP kontekstidagi real kasbiy vaziyatlarga asoslangan vazifalarni o‘z ichiga oldi. Har ikki guruhning natijalari test ballari orqali kvantitativ ravishda baholandi. Shuningdek, talabalar ishtirokida yozma va og‘zaki so‘rovnomalar, hamda kichik guruhli fokus-intervyular tashkil etildi. Ushbu sifatli tahlil vositalari orqali talabalar o‘zlarining o‘rganish jarayoni, mashg‘ulotlarga nisbatan munosabati, raqamli vositalardan foydalangan holdagi qulaylik va qiyinchiliklar haqida batafsil fikr bildirishdi.[47] To‘plangan ma’lumotlar SPSS 26.0 dasturiy platformasida statistik jihatdan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlilda paired sample t-test yordamida har bir guruhning test natijalari orasidagi farq, independent t-test orqali esa ikki guruh o‘rtasidagi yakuniy ballar solishtirildi. Bundan tashqari, ayrim holatlarda ANOVA (Analysis of Variance) tahlillari ham qo‘llanildi, bu esa o‘zgarishlarning statistik ahamiyatini aniqlashda muhim bo‘ldi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhda til kompetensiyasining barcha komponentlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, grammatika bo‘yicha o‘rtacha ball 15% ga, leksik kompetensiya esa 17% ga yaxshilangan. Ayniqsa, yozma ifoda va pragmatik moslashuv komponentlarida ancha katta o‘sish qayd etildi. Quyidagi jadval ushbu farqlarni statistik ko‘rsatkichlar bilan taqdim etadi:

	Nazorat guruhi (o‘rtacha ball)	Eksperimental guruhi (o‘rtacha ball)	P-qiymat	Natija
Grammatik to‘g‘rilik	65.3	78.1	0.012	Sezilarli farq bor
Leksik boylik	62.7	77.0	0.009	Sezilarli farq bor
Yozma ifoda	59.4	75.6	0.003	Sezilarli farq bor
Pragmatik moslashuv	61.1	79.8	0.001	Sezilarli farq bor

Bu natijalar raqamli platformalarning TBLT metodiga integratsiyalashuvi orqali til o‘rganish samaradorligini oshirish mumkinligini ilmiy asosda isbotlaydi.[48] Shu bilan birga, sifatli ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalar interaktiv topshiriqlarni qiziqarli, real hayotga yaqin va muloqotga yo‘naltirilgan deb baholashgan. Ayrim talabalar, ayniqsa, o‘z fikrini yozma ravishda mustaqil tarzda ifodalash imkoniyatini yuqori baholagan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhda TBLTning raqamli variantlari orqali o‘rganilgan til ko‘nikmalari nafaqat testda, balki kundalik muloqotda ham samarali ishlatilayotganini talabalarning intervyudagi fikrlari tasdiqlagan. Shu tarzda, raqamli TBLT modeli talabalar kompetensiyasini nafaqat kengaytirgan, balki mustahkamlagan ham bo‘ldi. Bu holat TBLT yondashuvining zamonaviy, ESP kontekstiga moslashtirilgan shaklda joriy qilinishining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot yakunida olingan empirik natijalar TBLT metodining raqamli platformalar yordamida qo‘llanilishi talabalar lingvistik kompetensiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini aniq namoyon etdi. Baholash CEFR mezonlariga tayangan holda tashkil qilinib, talabalar grammatik to‘g‘rilik, leksik boylik, yozma nutq aniqligi va pragmatik moslashuv bo‘yicha baholandi.[49] Baholash ikki bosqichda – dastlabki (pre-test) va yakuniy (post-test) shaklda amalga oshirildi, bu esa eksperimental ta’sirning samaradorligini tahlil qilish imkonini berdi. Analitik bosqichda SPSS 25.0 statistik dasturi orqali paired samples t-test va independent

[45] Hockly N. Digital literacies in the language classroom // *ELT Journal*. 2018. 72(1). P. 81–85.

[46] McMillan J. H.; Schumacher S. Research in Education: Evidence-Based Inquiry. 7th ed. Boston: Pearson Education, 2010.

[47] Reinders H.; White C. The theory and practice of autonomy in language learning with technology // *Innovation in Language Learning and Teaching*. 2011. 5(2). P. 101–107.

[48] González-Lloret M.; Ortega L. Technology-Mediated TBLT...; Hockly N. Digital literacies in the language classroom // *ELT Journal*. 2018. 72(1). P. 81–85.

[49] Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume with New Descriptors. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. URL: https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/

samples t-test usullari qo‘llanildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhda o‘rtacha ballar 67.8 dan 82.4 gacha oshgan bo‘lsa, nazorat guruhda bu ko‘rsatkich 66.9 dan 72.1 gacha yetgan. Bu o‘zgarish $p < 0.05$ darajasida statistik jihatdan ishonchli deb topildi.[50] Ushbu farq aynan metodikadagi yondashuv, ya’ni TBLTni raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida yuzaga kelgani aniqlandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, eng sezilarli ijobiy o‘sish leksik boylik va kasbiy yozma nutq ko‘nikmalarida kuzatildi. Talabalar yangi terminlar, ifodalar va grammatik konstruktsiyalarni nafaqat yod oldilar, balki real kontekstda qo‘llay boshlaganliklarini so‘rovnoma natijalari ham tasdiqladi. Yozma vazifalarda talabalar matnni yanada aniq, strukturalashtirilgan va kontekstga mos ifodalaganlari kuzatildi. Bu holat Ellis ta’riflagan “meaning-focused output” tamoyiliga to‘liq mos keladi.[51]

Intervyu natijalari va ochiq so‘rovnomalar esa talabalar ushbu dars uslubini qiziqarli, interaktiv va foydali deb baholaganlarini ko‘rsatdi. Ular raqamli vositalarning imkoniyatlaridan foydalanish orqali topshiriqlarga faolroq yondashgani, darsdan tashqari vaqtda ham o‘zaro muloqot qilgani va ingliz tilini amaliy muhitda sinab ko‘rganliklarini ta’kidlashdi.[52] Bu esa TBLT metodining asosiy maqsadlaridan biri – tilni muloqot vositasi sifatida faol qo‘llash – ga erishilganligini ko‘rsatadi. Quyidagi statistik tafovut bunga dalildir:

Eksperimental guruhdagi o‘sish	+14.6 ball
Nazorat guruhdagi o‘sish	+5.2 ball

Bu tafovut texnologik jihatdan boyitilgan TBLT metodining samaradorligi an’anaviy usullarga qaraganda yuqori ekanini tasdiqlaydi. Natijalar González-Lloret & Ortega va Chapelle tomonidan ilgari surilgan raqamli yondashuvlarning til o‘rgatishdagi roliga oid ilmiy qarashlarni ham amaliy jihatdan asoslab beradi.[53] Shu bilan birga, ayrim talabalar raqamli platformalardan foydalanishda dastlab texnik qiyinchiliklarga duch kelganliklarini bildirgan bo‘lsalar-da, tez orada bu vositalarga moslashganliklarini va ular orqali darsning mazmuni tushunarliroq bo‘lganini tan olishgan. Bu holat raqamli savodxonlik va mustaqil o‘rganishga tayyorlikning til o‘rganishdagi o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.[54] Umuman olganda, raqamli TBLT yondashuvi talabalarni nafaqat til jihatidan, balki yumshoq ko‘nikmalar – hamkorlik, tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik – nuqtayi nazaridan ham rivojlantirgan.[55] Bu esa ESP kurslarida faqat til emas, balki kasbiy kompetensiyalarni ham shakllantirish imkonini yaratgan muhim pedagogik yangilik sifatida baholanishi mumkin.

Yakuniy test natijalari chuqur o‘rganilganda, eksperimental guruh ishtirokchilarida ayniqsa og‘zaki ifoda (fluency), semantik aniqlik (precise word choice) va grammatik izchillik ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Talabalar murakkab jumlalar tuzishda erkinlikka ega bo‘lishgan, fikr ifodasi davomiyligi va muloqotdagi muvozanatni saqlashda oldingiga nisbatan ancha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishgan. Xususan, rasmiy biznes muhitiga oid vazifalarni bajarishda ularda kasbiy diskursga mos til birikmalaridan foydalanish, muvofiq ohangda gapirish va yozish malakalari shakllana boshlagan. Bunday sifat o‘zgarishlar aynan raqamli TBLT uslubining moslashuvchanligi va o‘rgatuvchi kuchi bilan izohlanadi.[56]

So‘rovnomalar asosida olingan sifatli ma’lumotlar ham bu natijalarni tasdiqladi. Jumladan, eksperimental guruhning 93 foizi raqamli topshiriqlarni “ko‘proq esda qoluvchi”, “hayotga yaqin” va “bir-biridan o‘rganishga undovchi” deb baholagan. Bu nafaqat metodik foyda, balki o‘quvchilarning subyektiv tajribasidagi ijobiy kayfiyat va ishtiyoqni ham aks ettiradi. Ko‘plab talabalar intervyular davomida shunday fikrlar bildirgan: “Google Docs’da yozish odatiy daftar bilan ishlashdan ancha zavqliroq”, yoki “Quizlet so‘zlarni o‘yin orqali yodlash imkonini berdi, bu esa tezroq va qulayroq bo‘ldi.” Bunday subyektiv his-tuyg‘ular zamirida o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiya yotadi, bu esa til kompetensiyasining yanada mustahkam shakllanishini rag‘batlantiradi.[57]

Shu bilan birga, nazorat guruhidagi talabalar ham ayrim yo‘nalishlarda ijobiy natijalarga erishgan bo‘lsalar-da, bu yutuqlar ko‘proq reproduktiv (qayta ishlab chiqaruvchi) bilimlar bilan chegaralangan. Ularning o‘zlashtirish usuli asosan qoidalarga asoslangan yodlash, klassik mashq takrorlari va cheklangan suhbat shakllarida olib borilgan. Natijada ularning

[50] Cohen L.; Manion L.; Morrison K. Research Methods in Education**.** 8th ed. London; New York: Routledge, 2018.

[51] Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching**.** Oxford: Oxford University Press, 2003.

[52] Reinders H.; White C. The theory and practice of autonomy in language learning with technology // *Innovation in Language Learning and Teaching*. 2011. 5(2). P. 101–107**.**

[53] González-Lloret M.; Ortega L. Technology-Mediated TBLT: Researching Technology and Tasks**.** Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2014; Chapelle C. A. The relationship between second language acquisition theory and computer-assisted language learning // *The Modern Language Journal*. 2009. 93. P. 741–753

[54] Stockwell G. Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of the platform // *Language Learning & Technology*. 2012. 14(2). P. 95–110**.**

[55] Hockly N. Digital literacies in the language classroom // *ELT Journal*. 2018. 72(1). P. 81–85**.**

[56] Basturkmen H**.** Developing Courses in English for Specific Purposes**.** London: Palgrave Macmillan, 2010.

[57] Reinders H.; White C. The theory and practice of autonomy in language learning with technology // *Innovation in Language Learning and Teaching*. 2011. 5(2). P. 101–107; Hockly N. Digital literacies in the language classroom // *ELT Journal*. 2018. 72(1). P. 81–85**.**

til bilimlari passiv shaklda qolib, haqiqiy muloqot holatlarida erkin ishlatilish darajasi past bo‘lib qolgan. Bu holat, Dörnyei va Tomlinson tomonidan tanqid qilingan an’anaviy yondashuvlarga xos muammolarni yodga soladi, ya’ni o‘quvchi faolligining yetishmasligi, kommunikativ kontekstdan uzilish va ijodiy yondashuvning cheklangani.[58] Tahlildan ko‘rinadiki, raqamli TBLT nafaqat tilni o‘rganishga oid texnik natijalarni yaxshilaydi, balki muloqot madaniyati, til sezgirligi va kontekstga moslashish kabi chuqur komponentlarni ham shakllantiradi. ESP talabalari uchun bu elementlar ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksperimental guruh ishtirokchilari orasida raqamli topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘zaro hamkorlik, og‘zaki va yozma muloqot, shuningdek, til materiallari ustida reflektiv fikrlash faoliyati aniq kuzatildi. Bunday faoliyatlar nafaqat individual til bilimlarini, balki guruh ichidagi intersubyektiv muloqotni ham mustahkamladi. Ayniqsa, talabalarning topshiriq mazmuni yuzasidan fikr almashishi, savollarga javob berishdagi aniqlik va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etish orqali ularning integral til kompetensiyasi bosqichma-bosqich shakllandi.[59]

Interaktiv raqamli platformalarning moslashuvchan va multimodal tabiati talabalarni o‘rganish jarayonining passiv ishtirokchisidan faol agentiga aylantirdi. Bu o‘zgarish o‘z navbatida ularning o‘z-o‘zini boshqarish, feedback asosida o‘zini tahlil qilish, va ko‘pkanalli axborot bilan ishlash qobiliyatlarini kuchaytirdi. O‘quvchilarning jarayonga bo‘lgan munosabati ham ijobiy bo‘lib, ularning fikriga ko‘ra, raqamli vositalar bilan ishlash jarayoni o‘rganishni hayotga yaqinlashtirgan, qiziqarli qilgan va mustahkamlovchi ta’sir ko‘rsatgan. Tahlil natijalari, shuningdek, shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar bilan integratsiyalangan TBLT metodikasi nafaqat til o‘zlashtirishga, balki zamonaviy kasbiy muhitda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qilgan. Jumladan, raqamli savodxonlik, tanqidiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, va jamoada ishlash kabi 21-asrga xos kompetensiyalar aynan eksperimental guruhda sezilarli darajada rivojlangan.[60]

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot raqamli vositalarga asoslangan TBLT modelining ESP kontekstida ko‘p qirrali, moslashuvchan va innovatsion metodika sifatida o‘zini to‘liq oqlaganini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv nafaqat o‘rganuvchining ehtiyojlarini hisobga oladi, balki o‘rgatuvchiga ham yangi texnologiyalarni didaktik jarayonga oqilona integratsiyalash imkonini beradi. Shu bois, ushbu metodikani oliy ta’lim tizimida kengroq tatbiq etish, til o‘qitish sifatini oshirish va talabaga yo‘naltirilgan, raqamli kompetensiyalarga asoslangan ta’lim modelini shakllantirish yo‘lida muhim qadam deb baholash mumkin.

Takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ESP yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun TBLT metodini raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirib qo‘llash til o‘rganishni yanada samarali va hayotga yaqinroq bosqichga olib chiqadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida ushbu yondashuv asosida maxsus metodik qo‘llanmalar, topshiriqlar banki va multimedia materiallari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, moliya, iqtisod, IT, muhandislik va tibbiyot kabi sohalarga yo‘naltirilgan ESP kurslarida kasbiy muloqotga moslashtirilgan topshiriqlar mavjud bo‘lishi o‘quvchilar ehtiyojini to‘liq qondiradi. Shuningdek, TBLT metodini raqamli platformalarda samarali qo‘llash ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodik va texnologik tayyorgarligiga bog‘liq. Shu sababli, ingliz tili o‘qituvchilari uchun TBLT va raqamli vositalarni birgalikda qo‘llashga oid malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish dolzarbdir. Bu kurslarda TBLT bosqichlari, raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlari, talaba motivatsiyasini oshirish usullari va formatif baholash strategiyalarini o‘rgatish tavsiya etiladi. Bu o‘qituvchilarga yangi metodikani ishonch bilan amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Baholash tizimini ham shunga mos ravishda takomillashtirish lozim. An’anaviy yakuniy testlar o‘rniga, topshiriq davomida o‘quvchining faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, fikr bildirish va rivojlanish dinamikasini baholash imkonini beruvchi formatif baholash yondashuvlarini keng joriy etish zarur. Bu o‘quvchining o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglashiga hamda reflektiv o‘rganish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun bir nechta istiqbolli yo‘nalishlar mavjud: masalan, raqamli TBLT modelining boshqa sohalarda (tibbiyot, arxitektura, IT) samaradorligini solishtirma tahlil qilish, sun’iy intellekt vositalari (ChatGPT, Grammarly va boshqalar) bilan uyg‘unlashtirilgan TBLT modelining ta’sirini o‘rganish, shuningdek, ijtimoiy-emotsional omillar – ishtirok, xavfsizlik hissi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – kabi faktorlarning til o‘rganishdagi rolini chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

[58] Dörnyei Z. *Research Methods in Applied Linguistics*. Oxford: Oxford University Press, 2007; Tomlinson B. *Developing Materials for Language Teaching*. 2nd ed. London: Bloomsbury Academic, 2013.

[59] Chapelle C. A. The relationship between second language acquisition theory and computer-assisted language learning // *The Modern Language Journal*. 2009. 93. P. 741–753.

[60] Hockly N. Digital literacies in the language classroom // *ELT Journal*. 2018. 72(1). P. 81–85.

Xulosa

1. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, TBLT metodining raqamli vositalar bilan integratsiyalashgan zamonaviy shakli ESP guruhlarida talabalar lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Eksperimental guruhda o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar real hayotga yaqin vazifalar raqamli muhitda bajarilganda talabalar nafaqat grammatik va leksik bilimlarini mustahkamlashlari, balki og‘zaki va yozma muloqotda tilni erkin va maqsadga muvofiq qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishini tasdiqladi.

2. Raqamli platformalar yordamida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirgan, til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirgan va ularning hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, refleksiya kabi yumshoq ko‘nikmalarini shakllantirgan. Test natijalari va sifatli ma’lumotlar (so‘rovnomalar va intervyular) asosida o‘tkazilgan tahlil bu metodik yondashuv til o‘zlashtirishda chuqur va barqaror o‘zgarishlarga sabab bo‘lganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, lingvistik kompetensiyaning leksik, grammatik va pragmatik tarkibiy qismlarida ijobiy dinamikaga erishildi.

3. Tadqiqotdan xulosa qilish mumkinki, TBLT metodini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ESP kurslarining metodologiyasini boyitish, talabaga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlash va kasbiy kommunikatsiyaga tayyorlashda samarali yechim bo‘la oladi. Mazkur model oliy ta’lim muassasalari va til o‘rgatish markazlari uchun innovatsion va pedagogik ehtiyojlarga javob beruvchi yondashuv sifatida tavsiya etiladi. Bu orqali talabalar nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘laydi, real ish muhitida tilni erkin qo‘llashga o‘rganadi va mustahkam lingvistik poydevorga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Basturkmen H. *Developing Courses in English for Specific Purposes*. London: Palgrave Macmillan, 2010.
2. Braun V.; Clarke V. Using thematic analysis in psychology // *Qualitative Research in Psychology*. 2006. 3(2). P. 77–101. https://doi.org/10.1191/1478088706qp063oa
3. Chapelle C. A. The relationship between second language acquisition theory and computer-assisted language learning // *The Modern Language Journal*. 2009. 93. P. 741–753.
4. Cohen L.; Manion L.; Morrison K. *Research Methods in Education*. 8th ed. London; New York: Routledge, 2018.
5. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume with New Descriptors*. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. URL: https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/ (murojaat sanasi: 19.09.2025).
6. Creswell J. W.; Plano Clark V. L. *Designing and Conducting Mixed Methods Research*. 2nd ed. Thousand Oaks: Sage Publications, 2011.
7. Djurayeva N. Bridging the Gap: Task-Based Language Learning for Success in Finance and Business English // *Ta’lim va rivojlanish tahlili online ilmiy jurnali*. 2024. 4(9). P. 46–49.
8. Dörnyei Z. *Research Methods in Applied Linguistics*. Oxford: Oxford University Press, 2007.
9. Ellis R. *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford: Oxford University Press, 2003.
10. Fraenkel J. R.; Wallen N. E.; Hyun H. H. *How to Design and Evaluate Research in Education*. 8th ed. New York: McGraw-Hill, 2012.
11. Godwin-Jones R. Using mobile technology to develop language skills and cultural understanding // *Language Learning & Technology*. 2018. 22(3). P. 2–11.
12. González-Lloret M.; Ortega L. *Technology-Mediated TBLT: Researching Technology and Tasks*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2014.
13. Hockly N. Digital literacies in the language classroom // *ELT Journal*. 2018. 72(1). P. 81–85. https://doi.org/10.1093/elt/ccx041
14. Jo‘raeva N. D. The significance of lesson plans in TBLT approach in ESP classes globally and in Uzbekistan // *International Journal of Language Learning and Applied Linguistics*. 2023. 2(6). P. 75–84.
15. Johnson R. B.; Onwuegbuzie A. J. Mixed methods research: A research paradigm whose time has come // *Educational Researcher*. 2004. 33(7). P. 14–26. https://doi.org/10.3102/0013189X033007014
16. McMillan J. H.; Schumacher S. *Research in Education: Evidence-Based Inquiry*. 7th ed. Boston: Pearson Education, 2010.
17. Nunan D. *Task-Based Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
18. Qodirova M. ESP darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda TBLT metodining samaradorligi // *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*. 2021. 2(3). P. 112–118.
19. Reinders H.; White C. The theory and practice of autonomy in language learning with technology // *Innovation in Language Learning and Teaching*. 2011. 5(2). P. 101–107. https://doi.org/10.1080/17501229.2011.577529
20. Sattorova N. Til o‘rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli va TBLT metodikasi // *O‘zDJTU ilmiy axborotnomasi*. 2020. 4(1). P. 55–60.
21. Stockwell G. Using mobile phones for voca-

bulary activities: Examining the effect of the platform // *Language Learning & Technology*. 2012. 14(2). P. 95–110.

22. Thomas M.; Reinders H. *Task-Based Language Learning – Insights from and for L2 Writing*. London; New York: Continuum International Publishing Group, 2010.

23. Tomlinson B. *Developing Materials for Language Teaching*. 2nd ed. London: Bloomsbury Academic, 2013.

24. Van den Branden K. *Task-Based Language Education: From Theory to Practice*. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

25. Willis D.; Willis J. *Doing Task-Based Teaching*. Oxford: Oxford University Press, 2007.

26. Bygate M. Sources, developments and directions of task-based language teaching // *The Language Learning Journal*. 2016. 44(4). P. 381–400.



Maxamadaliyev Behruzhon Hislatxon o‘g‘li
Graduate Student,
International Nordic University

EMPLOYEE MOTIVATION IN THE TOURISM SECTOR AND ITS IMPACT ON SERVICE QUALITY





Abstract: This comprehensive paper explores the intricate relationship between employee motivation and service quality in the tourism sector, drawing on global theoretical and empirical studies. Tourism, as one of the most human-intensive industries, depends heavily on employees' emotional engagement, commitment, and customer-oriented behaviors. The research synthesizes classical motivation theories (Maslow, Herzberg, Vroom, and McClelland) and contemporary approaches emphasizing job satisfaction, emotional intelligence, and organizational culture. Data collected from 150 participants–employees, managers, and customers in Uzbekistan's hospitality enterprises–were analyzed using quantitative and qualitative methods. Results demonstrate a statistically significant correlation between motivation and perceived service quality ($r = 0.78$, $p < 0.01$). The findings highlight that financial incentives, recognition, teamwork, and a supportive environment are the strongest drivers of motivation. Recommendations are provided for tourism managers to develop integrated incentive systems fostering long-term commitment and high-quality service performance.

Keywords: Employee motivation, service quality, tourism management, job satisfaction, organizational culture, customer experience, intrinsic and extrinsic motivation.

Introduction

Tourism represents one of the most dynamic sectors of the global economy, contributing approximately 10% to global GDP and employing over 330 million individuals worldwide (WTTC, 2024). Unlike product-based industries, the tourism sector depends on the quality of human interactions and the ability of service employees to create memorable experiences. In hospitality and tourism enterprises—such as hotels, travel agencies, and cultural attractions, employees' motivation is directly linked to customer satisfaction, loyalty, and overall brand reputation. Therefore, understanding and managing employee motivation are essential for sustainable growth and competitiveness. In Uzbekistan,



tourism has been designated a strategic priority, supported by national reforms to enhance service standards, digital innovation, and human capital development. The success of these initiatives largely depends on front-line employees, who act as cultural ambassadors and customer service representatives. Their motivation affects not only individual performance but also the collective image of Uzbekistan's tourism industry. The study thus investigates the question: "How does employee motivation influence service quality in the

tourism sector, and what motivational mechanisms are most effective in ensuring excellence?"

Literature Review

The link between employee motivation and service quality has been widely explored in management and psychology. Maslow's (1954) hierarchy of needs identifies five stages of human motivation, from physiological needs to self-actualization. Herzberg's (1966) two-factor theory differentiates hygiene factors (salary, working conditions) from motivators (recognition, achievement). Vroom's expectancy theory (1964) explains motivation as a cognitive process, where employees exert effort when they believe it will lead to desired rewards.

McClelland (1987) emphasized the "need for achievement" as a major driver of professional success. In the tourism sector, emotional labor plays a crucial role. Hochschild (1983) introduced the concept of emotional regulation in service professions, suggesting that employees must manage emotions to align with organizational norms. This emotional regulation requires high intrinsic motivation, often influenced by leadership, recognition, and workplace climate (Bakker & Demerouti, 2008). Recent studies show that service quality perception—measured by models like SERVQUAL (Parasuraman et al., 1988)— is strongly affected by employee engagement and psychological empowerment (Kim & Back, 2018). Globally, research has identified significant differences in motivational structures across regions.

In Europe and North America, autonomy and professional growth dominate motivation, while in Asia and the Middle East, collective harmony and job security are stronger motivators (Hofstede, 2011). In Uzbekistan, motivation often arises from social recognition, financial stability, and opportunities for advancement—factors rooted in cultural collectivism and respect for hierarchy.

Methodology

A mixed-methods design was adopted. Quantitative data were gathered through structured questionnaires distributed to 100 employees and 50 customers from hotels, travel companies, and cultural centers across Tashkent, Samarkand, and Bukhara. The survey included 25 Likert-scale items assessing motivation, job satisfaction, and perceived service quality. Qualitative insights were collected via interviews with 10 managers focusing on reward policies, leadership practices, and training initiatives. Observation of front-line service interactions provided behavioral data on punctuality, responsiveness, and courtesy. Data analysis involved descriptive statistics, Pearson correlation, and regression modeling using SPSS. Ethical standards such as confidentiality, voluntary participation, and informed consent were maintained throughout. The study's triangulated design ensured the reliability and validity of results.



Motivational Factor	Mean Score	Impact on Service Quality
Financial Incentives	4.5	High
Recognition & Appreciation	4.3	High
Training & Development	4.1	Moderate-High
Teamwork & Support	4.2	High
Career Advancement	4.0	Moderate

Results

The statistical analysis revealed a strong positive correlation between employee motivation and service quality ratings ($r = 0.78$, $p < 0.01$). Regression analysis confirmed that motivation accounted for 61% of the variance in customer satisfaction scores. Financial incentives emerged as the most significant predictor, followed by recognition, teamwork, and career opportunities. Employees with higher motivation demonstrated greater punctuality, courtesy, and communication efficiency. Conversely, employees reporting low motivation showed increased absenteeism and reduced responsiveness to customer requests. Customers consistently associated motivated employees with friendliness, attentiveness, and reliability. Service quality dimensions such as "responsiveness" and "assurance" scored particularly high in organizations implementing structured motivation systems. Interviews revealed that managers who regularly provided feedback and public recognition observed lower turnover rates (by 20%) and higher employee retention.

Discussion

The findings support Herzberg's (1966) two-factor model, demonstrating that hygiene factors prevent dissatisfaction, but only motivators create true engagement and service excellence. The results also corroborate the Service-Profit Chain theory (Heskett et al., 1994), which postulates that employee satisfaction drives service quality, which in turn enhances customer loyalty and profitability. The high correlation found ($r = 0.78$) underscores that improving employee morale is directly tied to business success in tourism.

Culturally, the Uzbek tourism sector shows a blend of intrinsic and extrinsic motivation. Social belonging and respect from management strongly influence commitment, while salary and stability remain necessary foundations. The study highlights that non-financial motivators—training, recognition, and participatory management— can sustain engagement even when monetary incentives are limited.

This echoes self-determination theory (Deci & Ryan, 2000), emphasizing autonomy, competence, and relatedness as intrinsic motivators. Comparative evidence from Japan and Spain demonstrates similar patterns: in both countries, motivated employees show higher innovation in service design and greater empathy with customers. Therefore, global best

practices can inform Uzbekistan's tourism development through customized motivational frameworks respecting local cultural values.

Conclusion

This study confirms that employee motivation is a cornerstone of service quality in the tourism sector. The evidence demonstrates that motivated employees enhance customer satisfaction, strengthen organizational culture, and foster long-term sustainability. Financial incentives, recognition, and career development are crucial extrinsic motivators, whereas teamwork, respect, and professional growth represent intrinsic motivators. Managers should thus adopt holistic motivational strategies combining material and non-material rewards. For Uzbekistan, where tourism continues to expand, investing in employee motivation is both an ethical and economic imperative. By empowering employees, promoting continuous learning, and building supportive organizational cultures, tourism enterprises can elevate service quality and contribute to national competitiveness in the global market. Future research should explore digital motivation systems, cross-cultural dynamics, and gender-based motivational differences within the tourism workforce.

References

1. Maslow, A.H. (1954). Motivation and Personality. Harper & Row.

2. Herzberg, F. (1966). Work and the Nature of Man. Cleveland: World Publishing.

3. Vroom, V.H. (1964). Work and Motivation. New York: Wiley.

4. McClelland, D. (1987). Human Motivation. Cambridge University Press.

5. Parasuraman, A., Zeithaml, V.A., & Berry, L.L. (1988). SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Service Quality. Journal of Retailing, 64(1), 12–40.

6. Heskett, J.L., Sasser, W.E., & Schlesinger, L.A. (1994). The Service Profit Chain. Free Press.

7. Deci, E.L., & Ryan, R.M. (2000). The "What" and "Why" of Goal Pursuits: Human

Needs and the Self-Determination of Behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227–268.

8. Hofstede, G. (2011). Dimensionalizing Cultures: The Hofstede Model in Context. Online Readings in Psychology and Culture, 2(1).

9. Bakker, A.B., & Demerouti, E. (2008). Towards a Model of Work Engagement. Career Development International, 13(3), 209–223.

10. Kim, H. & Back, K. (2018). Impact of Employee Empowerment on Service Quality. Tourism Management, 67, 85–98.

11. World Travel & Tourism Council (2024). Global Economic Impact Report. London.

12. State Committee for Tourism Development of the Republic of Uzbekistan (2024). Annual Sector Report.



Madina Xolqo‘ziyeva
“Webster University in Tashkent” bitiruvchisi

TASK-BASED LEARNING USLUBINING O‘ZBEKISTON UNIVERSITETLARI INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQ FAOLLIGIGA TA’SIRI

Annotatsiya: Maqolada ingliz tili darslarida "Task-based learning" (vazifaga asoslangan ta’lim) uslubining talabalar nutq faolligiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot davomida TBL usulining nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi, hamda talabalarning og‘zaki muloqotdagi faolligi va ishonch darajasiga bo‘lgan ijobiy ta’siri yoritilgan. TBL asosida olib borilgan mashg‘ulotlar natijasida talabalar grammatik va leksik bilimlarini amaliyotda qo‘llash, muloqotga tezroq va faolroq kirishish, shuningdek ingliz tilida erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishgani kuzatilgan. Shuningdek, maqolada TBL uslubini joriy etishda duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: Task-based learning, ingliz tili o‘qitish, nutq faolligi, oliy ta’lim, kommunikativ yondashuv, , CEFR darajasi, o‘quvchilar ishtiroki, interaktiv metod.

Kirish

Ingliz tilini o'rgatishda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'limi uchun dolzarb masalalardan biridir. An'anaviy grammatika va tarjimaga asoslangan darslar ko'pincha talabalarni faol gapirtirib, erkin muloqot qila olish ko'nikmasini yetarli darajada shakllantira olmaydi[1]. Shu bois, 1970-yillardan boshlab til o'qitish bo'yicha mutaxassislar grammatik qoidalarni yod oldirishga asoslangan usullarga muqobil yondashuvlar izlay



[1] Long, M. H., & Crookes, G. (1993). *Task-based instruction.* In B. L. Leaver & J. R. Willis (Eds.), *Task-based Instruction in Foreign Language Education: Practices and Programs* Georgetown University Press. https://methodsoflanguageteaching.byu.edu/task-based-instruction

boshladilar. Natijada paydo bo'lgan kommunikativ yondashuvlardan biri – **vazifaga asoslangan ta'lim** (Task-Based Learning, TBL) bo'lib, bunda til o'rgatish jarayoni o'quv topshiriqlari (vazifalar) atrofida tashkil etiladi.

TBL nazariy jihatdan kommunikativ til o'qitish tamoyillariga tayanadi. Ushbu usulga ko'ra, talabalarga tilni o'rgatishda asosiy e'tibor mazmunli va real vaziyatlarga qaratilgan topshiriqlarni bajartirishga qaratiladi, bu esa ularga haqiqiy muloqot tajribasini beradi. Masalan, Krashen, Swain va Long kabi tadqiqotchilarning nazariyalariga (Input, Output va Interaction gipotezalari) muvofiq, TBL darslari talabalarga haqiqiy mavzudagi matn va nutqlarni tushunish uchun **kirish** imkonini beradi, so'ng ularni ma'no markazida **chiqish** (ya'ni, nutq ishlab chiqish)ga undaydi hamda talabalarning o'zaro muloqotida **interaktiv** tarzda ma'no bo'yicha kelishuvga erishishni rag'batlantiradi[2]. Shu tariqa, o'quvchilar tilni real hayotda qo'llash jarayonida birgalikda fikr almashib, muammolarni hal etishga o'rganadilar.

O'zbekistonning o'zida ham ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, 2012-yilda qabul qilingan Chet tillarni o'rganishni takomillashtirishga oid Prezident farmonida xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion, kommunikativ metodlarni joriy etish zarurligi qayd etilgan[3]. So'nggi islohotlar natijasida ko'plab universitetlarda an'anaviy grammatik qoidalarni yodlashga asoslangan ta'limdan voz kechib, o'rniga TBL kabi interaktiv usullarni qo'llashga qiziqish ortmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, TBL nafaqat lingvistik aniqlikni yaxshilaydi, balki talabalar **tanqidiy fikrlash** va **muammo yechish** qobiliyatlarini ham rivojlantiradi – bu esa globallashgan bozor talablariga javob beruvchi malakadir.

Shu bilan birga, O'zbekiston oliy ta'limida ingliz tilini o'qitishda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular TBL uslubini joriy etishda ham to'sqinlik qilmoqda. Ko'pgina universitet o'qituvchilari avvalgi grammatika-tarjima uslubiga o'rgangan va yangicha, kommunikativ yondashuvga o'tishda yetarli tayyorgarlik ko'rmagani bois qiynalishmoqda. Milliy o'quv dasturi va baholash tizimi ham hanuz asosan grammatik bilim va yozma imtihonlarga yo'naltirilgan bo'lib, bu holat talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga uncha mos emasligi aytiladi. Natijada, darslarda TBL usulini qo'llashga intilgan o'qituvchilar ham yakunda talabalarni standart imtihonlarga tayyorlash zarurati tufayli qiyinchilikka duch keladilar. Talabalar ham dastlab bunday noan'anaviy, faol ishtirokni talab etuvchi darslarga moslashishda muammo sezishi mumkin, chunki ular ko'pincha passiv o'rganishga odatlangani kuzatiladi.

Yuqoridagi holatlar mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. TBL uslubining ta'limdagi nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, uni darslarda qo'llash misollarini tahlil qilish va ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida talabalarning nutqiy faolligini oshirishda qanchalik samarali ekani aniqlash muhimdir. Quyida tadqiqot metodologiyasi, erishilgan natijalar va ularning muhokamasi keltiriladi.

Task-Based Learning (TBL yoki TBLT) til o'qitish yondashuvi tilni haqiqiy hayotiy vazifalarni bajarish jarayonida o'rgatishga asoslanadi. Bunda talaba ma'noga ustunlik berilgan vazifani bajarishga qaratiladi

[2] Long, M. H., & Crookes, G. (1993). *Task-based instruction.* In B. L. Leaver & J. R. Willis (Eds.), *Task-based Instruction in Foreign Language Education: Practices and Programs* Georgetown University Press. https://methodsoflanguageteaching.byu.edu/task-based-instruction

[3] Mirzayev, A. B. (2025, fevral). *The main problems of using task-based language teaching method in EFL classes in Uzbekistan higher education system*. International Journal of Science and Technology, 2(2), 31-35. https://science-technology.uz/index.php/journal/article/download/111/102/204



Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi soliq islohotlari davomida soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Soliq imtiyozlari iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanib, ular orqali investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan sohalarni rag‘batlantirishga imkon beradi. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, imtiyozlardan samarasiz, ortiqcha foydalanish davlat byudjetining soliqlik tushumlarining kamayishiga, soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliq yukining noteng taqsimlanishiga hamda raqobat muhitining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotda soliq imtiyozlarining iqtisodiy mohiyati, ularning fiskal siyosatidagi o‘rni va ahamiyati nazariy jihatdan yoritilgan hamda milliy soliq tizimidagi amaldagi imtiyozlar tahlil etilgan. Soliq imtiyozlarini maqsadli yo‘naltirish, ularning ta’sirini baholash tizimini joriy etish va imtiyozlar samaradorligini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida soliq imtiyozlarini qo‘llashning samarali tajribalari o‘rganilib, ularni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq imtiyozlari, soliq siyosati, fiskal barqarorlik, investitsiya muhiti, soliq islohotlari, iqtisodiy samaradorlik, rag‘batlantirish mexanizmlari.

Kirish



Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotni barqaror va muvozanatli rivojlantirishga, bozor munosabatlarini chuqurlashtirishga hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan global o‘zgarishlar sharoitida soliq siyosati mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning eng muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan, soliq imtiyozlarini takomillashtirish masalasi davlat fiskal tizimidagi dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Soliq imtiyozlari iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayrim imtiyozlar o‘z samaradorligini yo‘qotgan, iqtisodiyotda teng raqobat muhitini buzish, soliq bazasini toraytirish va davlat byudjeti daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatish holatlarini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida soliq imtiyozlarini qayta ko‘rib chiqish, faqat iqtisodiy jihatdan maqbul va samarali imtiyozlarni saqlab qolish, manzilsiz va ustuvor ahamiyatga ega bo‘lmagan turlarini bosqichma-bosqich bekor qilish zarurati tug‘ilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligidagi iqtisodiy islohotlar soliq siyosatini isloh etish, shaffof va adolatli soliq tizimini shakllantirish, biznes yuklamasini yengillashtirish hamda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining iqtisodiy natijadorligini baholash, ulardan foydalanish samarasini oshirish va samarasiz imtiyozlarni qisqartirish orqali soliq tizimining barqarorligini ta’minlash dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Shuningdek, ilmiy izlanishlar va xalqaro tajriba tahlillari shundan dalolat beradiki, soliq imtiyozlarini oqilona tarzda tartibga solish hamda ularni iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida baholash mamlakat iqtisodiy siyosatining uzviy qismi bo‘lishi lozim. Shu bois, mazkur mavzuni o‘rganish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mazmun-mohiyatini chuqur anglash, soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Xozirgi kunda iqtisodchilarning ilmiy izlanishlarida soliq imtiyozlarining mohiyati va undan foydalanish masalalari keng muhokama qilinmoqda.

Hususan, rus olimlari I.A.Mayburov, Yu.B.Ivanov fikricha, “Soliq imtiyozlari ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va siyosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan davlat soliq siyosatining hal qiluvchi mexanizmlaridan biridir” [2] deb ta’rif beradi. V.G.Panskovning fikricha, “soliq imtiyozlari davlat soliq siyosatini amalga oshirishning muhim vositasidir” [3]. O.N.Savinaning fikricha, “Rossiya Federatsiyasi hududlarida soliq imtiyozlarining samaradorligini aniqlash bo‘yicha alohida metodikalar mavjud bo‘lib, ular 3 ta - byudjet, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikka asoslangan” [4]. L.N.Leykova esa “soliq imtiyozlarini foyda solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va transport solig‘ini kamaytirish samaradorligini baholash nuqtayi-nazaridan ko‘rib chiqadi” [5].

Belorusiyalik olim E.F.Kireevaning fikricha: “soliq imtiyozlari qachon samarali bo‘ladi, qachonki ularning qo‘llaninishi natijasida iqtisodiy va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni real oshishiga olib kelsa. Soliq imtiyozlari qachon samarali bo‘ladi, qachonki shartli birxil sharoitda berilgan soliq imtiyozlari bazaviy tushumga solishtirgan holda byudjetga tushumlarni oshishiga olib kelsa” [6].

Shuningdek, xorijiy davlatlar olimlari xam soliq imtiyozlari bo‘yicha bir qancha izlanishlar olib borishgan. Easson A., Zolt E.M. tadqiqotlarida “soliq imtiyozlarini qo‘llashning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, ularni berish va samaradorligini baholash tartibini o‘rganish muhimligi ta’kidlangan” [6]. R.S.Chirinko, D.J-.Uilson o‘z tadqiqotlarida investitsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlarining samaradorligini baholaydi. “Soliq imtiyozlarini qo‘llash natijasida soliq yukining kamayishi o‘z kapitali shakllanishining sezilarli darajada oshishiga olib keladi” deb hisoblashgan [7].

O‘zbek olimlaridan Professor T.Malikov soliqlarning faollikka ta’siri haqida to‘xtalib, «soliqlar yordamida tadbirkorlik faoliyatining u yoki bu tarmog‘i rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish mumkin» ligini ta’kidlab o‘tgan [8]. N.Ashurova ilmiy ishlarida, “soliq imtiyozlari o‘z samarasini beradigan bo‘lsa, bunday imtiyozlar muddatini uzaytirish va samara bermaydigan imtiyozlarni bekor qilish maqsadga muvofiqligini e’tirof etgan. Bunga bog‘liq ravishda mahalliy soliqlardan beriladigan imtiyozlarning iqtisodiy, ijtimoiy va byudjet samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday imtiyozlar

berilayotganda soliq imtiyozlarining korxona hamda hudud iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrni bildirgan" [9]. S.G'iyosovning e'tirof etishicha, soliq imtiyozlari natijalarini monitoring qilish mexanizmining mavjud emasligi soliq imtiyozlari samaradorligini pasaytiruvchi omil hisoblanib, soliq imtiyozlarini taqdim etishning aniq mezonlarini belgilashga imkon bermaydi. Bu esa imtiyozlarni taqdim etish mexanizmining aniqligi, ochiqligi va shaffofligini ta'minlamaydi [10].

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, xalqaro tajribalar va milliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlarini maqsadga muvofiq va manzilli tarzda taqsimlashning ahamiyati katta. Ulardan samarali foydalanish uchun ilmiy asoslangan yondashuv, tarmoq va hudud kesimida tahlil, samaradorlikni baholash va monitoring tizimi zarur.

Shu bois, soliq imtiyozlari bo'yicha olimlar fikrlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish - soliq siyosatini takomillashtirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va davlat byudjetining barqarorligini ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy asoslangan qadam hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada analiz, sintez, induksiya, deduksiya va ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanilib, tadqiqot olib borilgan. Soliq imtiyozi xorijiy iqtisodchi olimlarning ishlari asosida tahlil qilingan va xorijiy davlatlarning tajribalari asosida Respublikamizda soliq imtiyozlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va xulosa shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, soliq imtiyozlari milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida soliq yukini kamaytirish va imtiyozlar tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda soliq imtiyozlaridan foydalangan korxona soni va uning miqdori tahlili[1]

№	Ko'rsatkichlar	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
1	Korxona soni	93871	109363	195884	141854	177763
2	Imtiyoz summasi, mlrd. so'm	31 065,6	43 479,3	72 963,7	69 777,9	83 276,2

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 - 2024-yillar davomida soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalar soni muttasil ravishda o'sib borganligini ko'rishimiz mumkin. Agar 2020-yilda ularning soni 93,9 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 177,8 mingtaga yetgan. O'tgan 4-yil ichida deyarli ikki barobarlik o'sishni anglatadi. Bu holat orqali biz soliq siyosatining tadbirkorlikni rag'batlantirishdagi samaradorligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlari orqali berilayotgan summalar miqdori ham sezilarli o'sgan. 2020-yilda imtiyozlar hajmi 31,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 83,3 trln so'mga yetgan. Demak, soliq imtiyozlarining umumiy miqdori 4-yil ichida 2,7 barobarga oshgan. Bu esa davlat byudjeti daromadlariga ma'lum darajada bosim yuklaydigan omil bo'lib, imtiyozlar samaradorligini baholash zaruratini ko'rsatadi.

2022-yilda imtiyozlar miqdori keskin oshib, 72,9 trln so'mga yetgan bo'lsa, 2023-yilda biroz pasayish (69,7 trln so'm) kuzatilgan. Bu, soliq ma'muriyatchiligidagi qayta ko'rib chiqishlar, ayrim imtiyozlarni bekor qilish va manzilli imtiyozlarga o'tish siyosati bilan bog'liq.

2024-yilda esa ko'rsatkich yana o'sgan va 83,3 trln so'mni tashkil etgan. Bu holat mamlakatda iqtisodiy faollik oshganini va ayniqsa ishlab chiqarish hamda eksportga yo'naltirilgan korxonalarga berilgan imtiyozlar ulushi kengayganini anglatadi.

Soliq imtiyozlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish, kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega tarmoqlarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, tahlillar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ayrim imtiyozlar o'z samarasini yo'qotgan, iqtisodiy raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatishi, soliq bazasini kamayishiga olib kelgan holatlar kuzatilmoqda, natijada davlat byudjeti daromadlariga salbiy ta'sirlar yuzaga keladi. Shu bois, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish, faqat iqtisodiy jihatdan samarali va maqsadga muvofiq imtiyozlarni saqlab qolish, manzilsiz yoki ustuvor bo'lmagan turlarini esa bosqichma-bosqich bekor qilish zarurati mavjud.

Shu sababli quyidagi holatlarda soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqib, bekor qilish taklif etiladi:

1. Resurs soliqlari bo'yicha imtiyozlar soliq to'lovchining aylanmasi bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar qo'llaniladi.

Imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanuvchi ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda boqimondalik kayfiyati shakllanmoqda, bunday subyektlarning tashabbuskorligi yo'q va ishchanlik faolligi pastligicha qolmoqda.

2024-yilda mol-mulk, yer va suv soliqlari bo'yicha 26,3 mingta yuridik shaxslar 3,8 trln so'm soliq imtiyozidan foydalangan.

Imtiyozdan foydalangan 5,6 mingta (21%) korxonaning yillik tovar aylanmasi foydalanilgan imtiyoz summasidan kam bo'lsada, 977,7 mlrd. so'm imtiyozdan foydalangan.

[1] Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif ishlanmasi



Misol uchun: “XXX” MCHJ 46 ga yer maydoni uchun 1,4 mlrd so‘m imtiyozdan foydalangan bo‘lsada, tovar aylanmasi hisobotlarda nol ko‘rsatgan.

Shu sababli, mol-mulk, yer va suv soliqlari bo‘yicha imtiyoz olgan tadbirkorlik subyektlarining yillik tovar aylanmasi imtiyoz summasidan kam bo‘lganda berilgan imtiyozlarni ushbu davr uchun bekor qilish **taklif etiladi.**

2. Soliq kodeksiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solish obyekti hisoblanuvchi bino-inshootlar va yer uchastkalari kabi ko‘chmas mol-mulk obyektlari mavjud bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar, mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini to‘lashga majburdirlar.

Xorij tajribasi o‘rganilganda Italiya, Germaniya, Finlyandiya, Gretsiya va boshqa qator mamlakatlarda ko‘chmas mulk solig‘i qo‘llanilishi ma’lum bo‘ldi.

Respublikada qiymati 1 033,8 trln so‘m bo‘lgan 8 millionta mol-mulk solig‘i obyekti ro‘yxatga olingan, yer solig‘i to‘lanadigan yer uchastkalarining umumiy maydoni 9,3 mln gektarni tashkil yetadi, 1 sotix yerning minimal narxi – 12,5 million so‘mni tashkil etadi.

Shu sababli: 1-variantda mol-mulk solig‘i va yer solig‘i o‘rniga obyektlarning bozor qiymatidan 0,2% yagona soliq stavkasini belgilash orqali ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etish. 2-variantda. Mol-mulk solig‘i va yer solig‘i o‘rniga obyektlarning bozor qiymatidan 0,2% yagona soliq stavkasida belgilangan ko‘chmas mulk solig‘ini ixtiyoriy to‘lash tizimini joriy etish **taklif etiladi.**

3. Soliq kodeksiga muvofiq, quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

- Xalqaro moliya institutlari hisobidan sotib olinadigan tovarlar (xizmatlar).

- Byudjet tashkilotlarining sanatoriy-kurort, sog‘lomlashtirish va sport xizmatlari.

Xalqaro moliya institutlari hisobidan sotib olinadigan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha imtiyozlar bo‘yicha:

Loyiha doirasida ishtirok etayotgan korxonalar tomonidan imtiyozlar foydalanilmagan holda tovarlar (xizmatlar) QQS bilan xarid qilingan. Mazkur holatda XMI/XHMTning qarz mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar ishtirokchilariga to‘langan QQS summasini hisobga olish hamda hosil bo‘lgan ortiqcha to‘lov summasini qaytarish so‘ralmoqda.

Shuningdek, Soliq kodeksining 267-moddasida realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmalari soliqdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish chog‘ida soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan soliq summasi hisobga olinmasligi belgilangan.

Loyiha doirasida import qilinadigan tovarlar QQS-dan ozod qilinganligi, ichki bozorda ushbu loyihalar uchun realizatsiya qilinadigan tovarlar summasiga mos ravishda QQS summasi hisobga olinmasligi sababli mahalliy ishlab chiqaruvchilarga import tovarlar bilan raqobat qilish imkonini cheklamoqda.

Joriy yilda mazkur imtiyozdan 1,5 ming soliq to‘lovchi 1,8 trln so‘m miqdorida foydalangan.

Sanatoriy-kurort xizmatlari bo‘yicha:

2024-yil 1-apreldan tibbiy xizmatlar bo‘yicha QQS imtiyozi bekor qilindi. Sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish xizmatlari o‘z tabiatiga ko‘ra tibbiy xizmatlarga yaqin hisoblanadi hamda ko‘p hollarda tibbiy muolajalarni o‘z ichiga oladi. Tibbiy xizmatlar uchun imtiyoz mavjud bo‘lmagan holda ular uchun imtiyozni saqlab qolish xususiy tibbiy klinikalarning QQS to‘lashni optimallashtirish maqsadida tibbiy sohaga qaraganda sanatoriy-kurort yo‘nalishiga o‘tib ketish xavfini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, QQSdan ozod etish sanatoriy-kurort xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlarni QQSni hisobga olish huquqidan mahrum qiladi. 2024-yilda ushbu summa 33,9 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, u mahsulot (xizmat) tannarxiga qo‘shilib, iste’molchilar uchun xizmatlar qimmatlashishiga olib kelgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, sanatoriy-kurort xizmatlari va Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan sotib olinadigan tovarlar (xizmatlar)ni qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha quyidagilarga berilgan soliq imtiyozlarini bekor qilish **taklif etiladi.**

4. Soliq kodeksiga ko‘ra quyidagi faoliyat turlari uchun foyda solig‘ining nol stavkasi belgilangan:

1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari va baliqchilik xo‘jaligi korxonalari.

2. Ijtimoiy sohada (ta’lim, tibbiyot, madaniyat va sport) faoliyat olib boruvchi soliq to‘lovchilar.

3. Umumiy quvvati 100 kVt gacha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanib, umumiy tarmoqqa elektr energiyasini sotishdan olingan foyda.

4. Qo‘shimcha manbalardan daromad oluvchi byudjet tashkilotlari.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, 10,7 mingta subyekt foyda solig‘ining nol stavkasidan foydalanib, o‘z ixtiyorida 1,2 trln so‘m mablag‘ qoldirgan.

Stavkalar ko‘pligi soliq ma’muriyatchiligini murakkablashtiradi. Bundan tashqari, umumbelgilangan (pasaytirilgan) stavkani joriy etish soliq yukini bir xillashtirishga imkon beradi, bu esa barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarni adolatli soliqqa tortishni ta’minlab, byudjetga tushumlarni oshiradi va soliqlarni optimallashtirish xatarlarini kamaytiradi.

Shu bilan birga, tibbiy xizmatlar kabi faoliyat turlari bo‘yicha QQS bo‘yicha imtiyozlar bekor qilingan, foyda solig‘i bo‘yicha esa yaxlit tartib mavjud emas.

Xorij tajribasi o‘rganilganda:

Gruziyada foyda solig‘ining ikki xil stavkasi - 15% va 20% qo‘llaniladi.

Rossiyada federal darajadagi asosiy stavka 25% tashkil etadi, bunda 5% pasaytirilgan stavka ham ko‘zda tutilgan. Mintaqalarga qo‘shimcha pasaytirilgan stavkalarni belgilash huquqi berilgan.

Qozog‘istonning yangi tahrirdagi Soliq kodeksida 2026-yildan foyda solig‘ining kamaytiruvchi stavkalarni bosqichma-bosqich bekor qilishi nazarda tutilmoqda.

Shu sababli, foyda solig‘ining nol stavkasi o‘rniga dastlab 7,5 foiz miqdoridagi pasaytirilgan stavka kiritish va keyinchalik 15 foiz miqdoridagi umumbelgilangan stavka joriy etish **taklif etiladi.**

5. Soliq kodeksiga muvofiq, tijorat maqsadida faoliyat yuritmaydigan advokatlar kollegiyalari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari advokatlar tomonidan huquqiy yordam ko‘rsatish faoliyati doirasida, bojxona to‘lovlari, ijtimoiy soliq va manbada ushlab qolinadigan soliqlar bundan mustasno, barcha turdagi soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan ozod etiladi.

Soliq to‘lovchilarning yagona reyestri dasturi ma’lumotlariga ko‘ra, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar soni 4 474 tani (shundan, soliq majburiyatiga ega 3 785 tani va ega emaslari 688 tani) tashkil etadi, shundan 2025-yil 6 oyida 3 909 tasi (87,3%) tovar aylanma umuman amalga oshirmagan bo‘lsa, 565 tasi 157,8 mlrd.so‘m tovar aylanma amalga oshirgan.

2025-yilning 6 oyida 844 ta (shundan, 279 tasi tovar aylanmasini amalga oshirmagan holda daromad, ijtimoiy, mol-mulk, yer soliqlari imtiyozidan foydalangan) advokatlik tashkilotlari jami 19,6 mlrd.so‘m (QQS 15,7 mlrd.so‘m, foyda 801,7 mln.so‘m, daromad 1,2 mlrd. so‘m, ijtimoiy 1,7 mlrd.so‘m, mol-mulk 128,5 mln.so‘m, yer 12,4 mln.so‘m, suv 0,3 mln.so‘m) soliq imtiyozlaridan foydalangan.

Ushbu holat bo‘yicha Xorij tajribasi o‘rganilganda Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Polsha, Kanada va Avstraliya kabi davlatlarda advokatlik firmalari umumiy asoslarda soliqqa tortilishi ma’lum bo‘ldi.

Shu sababli, advokatlar kollegiyalari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolariga berilgan soliq imtiyozlarini bekor qilish **taklif etiladi.**

6. Soliq kodeksiga muvofiq, ta’lim xizmatlarini amalga oshirayotgan tashkilotlar soliq to‘lashdan ozod etiladi.

O‘tkazilgan tahlillar ta’lim xizmatlarini amalga oshirayotgan tashkilotlar uchun berilgan soliq imtiyozlari samarasiz ekanini ko‘rsatmoqda. Xususan, 2024-yilda ushbu imtiyozlardan 3,4 mingta tashkilot jami 1,3 trln so‘m miqdorida foydalangan.

Tahlil natijasiga ko‘ra, 3,4 mingta ta’lim tashkilotlaridan:

- 2,3 mingtasi (67%)da xodimlar soni qisqargan yoki ko‘paymagan;

-1,3 mingtasi (38,7%)da mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi kamaygan yoki avvalgi darajada qolgan;

-1,7 mingtasi (50,1%)da tovar aylanmasi pasaygan yoki o‘sish kuzatilmagan.

Shu tariqa, berilgan imtiyozlar yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, ish haqi miqdorining oshishiga va tovar aylanmasi ko‘payishiga yordam bermaganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa bu imtiyozlarning samarasizligi hamda sohani rivojlantirishda rag‘batlantiruvchi ta’sirining yo‘qligini ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta’lim xizmatlarini ko‘rsatayotgan tashkilotlar uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlarni bekor qilish **taklif etiladi.**

7. Soliq kodeksiga muvofiq, soliq imtiyozlari (QQS, aksiz solig‘i va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko‘pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkinligi belgilangan.

Ushbu Kodeksda Vazirlar Mahkamasiga soliqlardan imtiyoz berish vakolati nazarda tutilmagan.Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida Soliq kodeksi talablariga zid bo‘lgan soliq imtiyozlarini nazarda tutuvchi 37 ta normativ-huquqiy hujjatlar amal qilib kelmoqda.

Xususan, imtiyozlarning amal qilish muddati va qo‘llanilayotgan stavkalari miqdori bo‘yicha nomuvofiqlik holatlari huquqiy kolliziyani yuzaga keltirib chiqaradi va soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligining buzilishini beixtiyor sodir etilishiga olib keladi.

Ushbu hujjatlar ro‘yxati 7 ta Prezident farmoni, 26 ta Prezident qarori va 4 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan berilib, amal qilish muddati yoki qo‘llanilayotgan stavkalar miqdori Soliq kodeksi normalariga zid keladigan soliq imtiyozlarini bekor qilish **taklif etiladi.**

8. Soliq kodeksiga ko‘ra, jismoniy shaxslarning 3-yildan ortiq muddat davomida mulki bo‘lgan turar joy ko‘chmas mulkini sotishdan olingan daromadlari daromad solig‘idan ozod etiladi.

Bunda ushbu soliq imtiyozi qo‘llaniladigan ko‘chmas mulk obyektlari soni cheklanmagan. Imtiyoz 3-yildan ortiq muddat davomida mulk bo‘lib kelgan barcha turar joy obyektlariga nisbatan qo‘llaniladi.

2024-yilda 6,7 ming nafar fuqaro sotib olingan paytdan boshlab 36 oy ichida umumiy qiymati 2,6 trln so‘mlik 7,8 mingta turar-joy ko‘chmas mulk obyektini sotgan. Olingan daromad (sotib olish qiymatidan tashqari) 1,2 trln so‘mni tashkil etib, undan 155,3 mlrd so‘m jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘langan.

Ushbu holat bo‘yicha xorij tajribasi o‘rganilganda quyidagilar ma’lum bo‘ldi:

Rossiya Federatsiyasi soliq qonunchiligida jismoniy shaxslar tomonidan turar ko‘chmas mulkini sotishda soliq imtiyozlari nazarda tutilmagan.

Vengriyada esa daromad solig‘ining miqdori ko‘chmas mulkka egalik qilish muddatiga bog‘liq: agar obyekt 1-yildan so‘ng sotilsa, soliq to‘liq miqdorda to‘lanadi; 2-yildan keyin - soliq summasining 90%, 3-yildan keyin – 60%, to‘rt yildan keyin - 30%, 5-yildan keyin sotilganda esa soliq undirilmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ko‘chmas mulkka egalik qilish muddatini, uning sotilishi soliqdan ozod etiladigan muddat sifatida, 3 yildan 5-yilgacha uzaytirish **taklif etiladi.**

Xulosa va takliflar

Soliq imtiyozlari iqtisodiy rivojlanishda muhim instrument sifatida ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular investitsiyalarni jalb qilish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Biroq, amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, har bir imtiyoz avtomatik ravishda iqtisodiy foyda keltirmaydi. Ayrim soliq imtiyozlari o‘z samaradorligini yo‘qotgan, raqobat muhitini buzgan va soliq bazasini kamaytirgan holatlar ham uchraydi. Bu esa davlat byudjeti daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bois, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida soliq imtiyozlari tizimini qayta ko‘rib chiqish, ularning samaradorligini aniqlash va faqat iqtisodiy jihatdan maqbul, manzilli va ustuvor ahamiyatga ega imtiyozlarni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Samarasiz va manzilsiz imtiyozlarni bosqichma-bosqich bekor qilish esa soliq siyosatini barqarorlashtirish va davlat byudjeti daromadlarini mustahkamlashda muhim chora sifatida qaraladi.

Natijada, soliq imtiyozlarini maqsadga muvofiq tarzda takmillashtirish iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2023.

2. Майбуров И.А., Иванов Ю.Б. (ред.) Налоговые льготы. Теория и практика применения. Теория и практика применения. – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – 488 с.

3. Пансков В.Г. Налоговые льготы: теория и практика. Экономика. Налоги. Право = Экономика, Налоги. Закон. 2016. No. 1,стр. 119-125.

4. Савина О. Н. Подходы к оценке эффективности налоговых льгот: действующая практика и проблемы реализации // Научные известия. 2016. №4. 38-47

5. Lykova L.N. Regional Component of Tax Policy: Ways to Support Economic Growth. Problems of Territory’s Development, 2018, no. 2 (94), pp. 71-86. DOI: 10.15838/ptd/2018.2.94.5

6. Киреева Е.Ф. Налоговые расходы: необходимость оценки и внедрения в Республике Беларусь. http://www.minfin.gov.by/upload/uc/events/221118/04_section_5.pdf. 09.10.2019.

7. Chirinko R.S., Wilson D.J. State investment tax incentives: A zero-sum game? Journal of Public Economics, 2008, Vol. 92, iss. 12, pp.2362-2384. DOI: 10.1016/j.jpubeco.2008.07.005.6.

8. Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. – Т.:Академия. –2002. 204.

9. Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. 2018. 25 бет.

10. С.Гиясов. Корхоналарнинг инновацион-инвестицион фаолиятини тартибга солишда солиқ имтиёзларини такомиллаштириш. Автореферат. Тошкент, 2019. 24 бет.

11. Жумаев Ш. Ўзбекистон республикасида солиқ маъмурчилиги ва солиқ тизими стратегиясини такомиллаштириш масалалари // Экономика и социум. 2024. №4-1 (119).

12. Жумаев, Ш. (2024). Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 368–374. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp368-374

13. Jumaev Shuhrat. (2024). On The Further Development Of Service To Taxpayers In The Republic Of Uzbekistan. Procedia on Economic Scientific Research, 10(1), 147–151.

14. Jumayev Shuxrat. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda soliq mexanizmlarini qo‘llash masalalari. Jahon iqtisodiyotiga integrallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash masalalari: xalqaro tajriba, nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiyamaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami. 20-dekabr 2024-yil. – T.:Jamoat xavfsizligi universiteti. 480-483 betlar.

15. Jumayev Shuxrat. O‘zbekiston respublikasida soliq islohotlarini amalga oshirishda soliq ma’murchiligini takomillashtirish. “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. 20-21-dekabr 2024-yil. Guliston. – Toshkent: «GRAND KONTOR PRINT» MCHJ. 712-714 betlar.



Nilufar Akhmedova
Tashkent University of Architecture and Civil engineering International Nordic University
*Correspondence: nilufar6444@mail.ru

INTEGRATION OF BUSINESS FORMS IN THE CONSTRUCTION SECTOR IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract: It is known that today the construction industry is regarded as one of the main directions in the formation of small business and private entrepreneurship, socio-economic development, development of the property class and competition in the market, and today it serves as a locomotive for sustainable economic development. The article assesses the role of large and small businesses in ensuring the development of the country's construction industry, summarizes the best world and domestic experience in this area, and also develops proposals and recommendations for the further development of this industry.

Keywords: construction, large and small business, partial entrepreneurship, enterprise, locomotive, hosting entities, regression analysis, correlation analysis, microfirms.

INTRODUCTION

In our country, the construction industry is of particular importance in maintaining economic and social stability, serves to solve such important tasks as ensuring employment of the population, increasing its income, providing housing for the population. The sector is also of great importance in the construction of social facilities and the formation of infrastructure.

The construction sector is of particular importance in maintaining economic and social well-being in our country, which serves to eliminate such important problems as providing employment, increasing incomes, and providing housing for the population. Industry is also of great importance in



the construction of social facilities and the formation of infrastructure.

Scientists-economists who carry out scientific research in this direction, to study the importance of small business was considered important properties and originality of the subject of research, which have a separate

value when introducing certainty, its qualitative properties and signs. Economists conducting research in this area believe important to study the essence of small business, its qualitative features and characteristics, nature and specifics of the subject of research, which has particular importance in bringing clarity.

Economists conducting scientific research in this direction consider its qualitative features and characteristics, characteristics and features of the subject of research, which are of particular importance in clarifying and studying the essence of small business. "However, this approach is mainly based on subjective judgments and experience, which "intuitively" to a certain extent serve to express differences inherent in the size of other enterprises".

Based on these qualitative criteria and the Dutch consulting experience, Van Horn proposed considering medium-sized enterprises with 50 to 500 employees and a turnover of £1 million to £33 million based on a set of quantitative criteria.

The German economist V.Nalik stated that "the main indicator of the quality of small business in Germany is the unit of ownership, the direct management of the enterprise and the risk associated with it." The second characteristic includes such things as the appearance of the enterprise, the amount of prescription, the specifics of the relationship between the owner and the employee.

According to Kraus et al. (2021), the digital economy provides a foundation for innovation-driven growth, where construction enterprises increasingly adopt digital platforms, Building Information Modeling (BIM), and smart management systems to optimize decision-making and project coordination. These tools enable seamless data exchange between contractors, designers, suppliers, and clients, forming an integrated business environment.

Several studies also point to the strategic importance of digital platforms in uniting diverse business entities. For example, Zhao and Xu (2022) argue that the implementation of digital platforms enhances transparency and accountability in construction projects, enabling effective collaboration between small and large enterprises. Similarly, Harty et al. (2021) note that the integration of digital systems fosters the formation of virtual project networks that transcend organizational and geographic boundaries.

Thirdly, attention is drawn to the special significance of the role of the leader in the life of the enterprise. Fourth, the family form of business is widespread. Fifth, it will have its own characteristics in the implementation of financing. Another important criterion is legal independence, in which the owner of the enterprise manages the business himself, which allows considering small branches of large firms separately from the small business sector.

It is known that small business and private entrepreneurship are considered as one of the main directions of the formation of a market economy, ensuring socio-economic development, the development of a class of owners and competition in the market and today perform the function of a locomotive. stable economic development. From this point of view, small business and private entrepreneurship is one of the important factors of economic development, increasing employment and income of the population.

METHODS AND MATERIALS.

In our country, a number of practical works are being carried out in such areas as providing housing for the population, improving housing conditions, carrying out construction work in accordance with the re-

quirements of the time. We will consider the results of these events on the data of the city of Tashkent, which is one of the important regional units in our country. That is, we will assess the importance of large and small businesses in ensuring the results of the implemented measures for the development of the construction industry, raising it to a new qualitative level, increasing its competitiveness based on statistical data.

According to the data received, special attention is paid to ensuring the sustainable development of the construction industry in our country and its territories in the coming years. As a result, the total volume of construction work carried out in Tashkent in 2020 amounted to $18,758.9 billion. in total, an increase of 104.1% was provided compared to the previous year. These construction works were carried out by large construction organizations, small enterprises and microenterprises, as well as the informal sector (Figure 1)




Figure 1. The share of entities engaged in construction activities in the performance of the total volume of construction work.[1]

If we pay attention to the distribution of construction work between the subjects, the results for the city of Tashkent are quite positive. In particular, the share of the informal sector in the city is significantly lower than in the republic, and amounts to 9.2 percent. In addition, the share of small enterprises and microfirms is 66.3 percent and exceeds the country's figure by 13.5 units. As a result, the share of large businesses in the city remains relatively low. In general, the fact that the share of the informal sector in the implementation of construction works carried out in the republic and the city is quite large justifies the availability of opportunities for the development of business entities in this area, as well as the need to pay special attention to the creation of a favorable business environment for them.

However, researchers underline several challenges that hinder the full realization of digital integration. These include insufficient digital skills among employees, lack of standardized data exchange protocols, and resistance to organizational change (Afolayan & Plant, 2022). Moreover, Lu et al. (2023**)** emphasize that regulatory frameworks and cybersecurity issues must evolve to ensure trust and stability in digital construction networks.

Construction works are also divided into three types, depending on the direction of activity. That is, the construction of buildings and structures, civil facilities and specialized construction works. As of January 2021, the number of construction enterprises and organizations operating in the Republic of Uzbekistan is 40,950, of which 8,237, in other words, one of the five operating enterprises and organizations belongs to the city of Tashkent (table 1).

Table 1

Number of enterprises and organizations carrying out construction work[2]

	Republic of Uzbekistan		**Tashkent City**	
	Number of enterprises	Fraction	Number of enterprises	Fraction
Construction of buildings and structures	23779	58.1	4137	50.2
Construction of civil facilities	3811	9.3	534	6.5
Specialized construction works	13360	32.6	3566	43.3
Total:	40950	100	8237	100

In Uzbekistan, 58.1 percent of the total number of construction enterprises are engaged in the construction of buildings and structures, while in Tashkent this indicator has a slightly lower value and is 50.2 percent. The same trend is observed in the construction of civil facilities, that is, the share of entities carrying out construction work in this direction in the city is somewhat smaller. As a result, the ratio of enterprises and organizations performing specialized construction work to the total number becomes much more important. Based on the above analysis, it can be noted that there is a correlation between the distribution of existing enterprises and organizations in the areas of activity and the share of the informal sector. In our opinion, the low share of enterprises and organizations engaged in the construction of buildings and

[1] "Source: figure: Statistical collection "Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan" of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. January-March 2022" Tashkent 2022. 217-233 pages. And it was compiled by the author based on the data of this collection for 2020-2021.

[2] Source: Table: Statistical compilation "Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan". State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. January-March 2024" Tashkent 2024. 217-233 pages and compiled by the author based on the data of 2017-2023 of this collection.

structures, civil facilities, is the reason for the low share of the informal sector in the city.

According to the results of the conducted research, there are a number of problems in the development of the construction industry that are waiting to be solved. In particular, 9.2 percent of the construction work carried out falls on the informal sector, among them the need to ensure an optimal balance between the development of small and large businesses. After all, the development of small businesses in the construction sector serves to reduce the share of the informal sector and increase the volume of construction work performed. Taking into account the above, I would like to assess the impact of the activities of small and large businesses on the development of the construction industry on the example of the city of Tashkent.

RESULTS AND DISCUSSION

I would like to draw attention to the dynamics of changes in the share of construction enterprises and organizations in the total number of operating enterprises and organizations. Data from 2014-2021 were used for the analysis.

Figure 2




Figure 2. Dynamics of important indicators of development of enterprises in the field of construction in Tashkent.[3]

The share of registered enterprises and organizations in the city increased from 6.3% to 8.2% and amounted to 1.9 units with a change in the number of operating enterprises by 2.2 units. The change in the share of operating enterprises to a higher value than the share of registered enterprises indicates the achievement of positive results in the industry. In addition, there was a sharp decline in the share of inactive enterprises from 11.4 to 7.2 percent.

The share of newly created enterprises and organizations related to the construction industry increased by 2.8 units, which reflects the results of measures implemented in the industry. However, on the other hand, the increase in the share of enterprises and organizations indicates that the industry has not created a sufficiently favorable environment for business entities.

The construction industry differs from other industries in its specifics, in addition, it justifies the need to provide alternative and optimal proportions of small and large businesses in ensuring the development of the industry, such as a large amount of funds for construction work and a high need for long-term investments. Taking this into account, we will assess the impact of the development of small and large construction organizations on achieving these positive results. To do this, we have determined the share of small enterprises in enterprises and organizations in the field of general construction (2-table).

2-table

The share of small construction companies in the total number of construction enterprises in Tashkent (as a percentage)

Years	Registered	Active	In active	Newly founded	finished
2016	98.2	98.0	99.4	100.0	99.7
2017	98.4	98.3	99.5	99.6	98.6
2018	98.6	98.5	99.1	100.0	100.0
2019	98.8	98.7	99.3	100.0	99.7
2020	99.0	99.0	98.9	99.7	99.3
2021	99.3	99.3	98.6	99.7	99.4
2022	99.3	99.3	99.6	99.8	99.5
2023	99.0	99.0	100.0	99.8	97.7

The results show that the share of small businesses is very high in all indicators reflecting the development of entrepreneurship in the sector. In particular, the share of registered and operating enterprises exceeds 98.0 percent, and it can be noted that it has the same trend and has decreased over the past year. An increase in the share of small businesses is also observed among inactive enterprises, that is, by 2021, 100 percent of them are accounted for by the contribution of small construction enterprises. By 2021, the share of small construction enterprises in the composition of liquidated enterprises amounted to 97.7 percent with a sharp decline. An increase in the share of inactive enterprises is considered a negative result, and a decrease in the share of liquidated enterprises is considered a positive result.

The low share of large business entities does not reflect their role in the performance of construction work, since if we focus on the share of small businesses


[3] Source: Figure: Statistical compilation "Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan". State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. January-March 2024" Tashkent 2024. 217-233 pages and compiled by the author based on the data of 2017-2023 of this collection.

in the construction work performed, it is significantly lower than the figures given. That is, despite the fact that 99.0 percent of existing construction enterprises correspond to the contribution of small businesses, their share in the construction work performed in 2020 was 71.1 percent.

Taking into account that the number of small business entities in the construction sector in the city of Tashkent is quite large and the main change in the number of enterprises corresponds to their contribution, let's consider the correlation between indicators reflecting the activities of small businesses and the real cost of construction work performed in the city (Table 3).

3-table

Results of correlation analysis



According to the results of the correlation analysis, it was found that the actual volume of construction work performed has a high correlation with all indicators reflecting the effectiveness of small businesses in the construction sector.

In particular, the correlation coefficient between the number of operating small business entities and the actual volume of construction work performed is 0.99, and with newly created business entities - 0.95. It is established that the correlation coefficient between the actual volume of construction work with inactive and liquidated small businesses is -0.04 and -0.81, respectively. It is established that the correlation coefficient between the actual volume of construction work with inactive and liquidated small businesses is -0.04 and -0.81, respectively.

According to the results of the study, it is important to ensure the development of the construction industry of the city of Tashkent by providing alternative proportions of large and small businesses. According to the results of the research, vaino will ensure the development of the construction industry of the city of Tashkent by providing alternative proportional subjects of large and logo business. It is determined that the change in the number of business entities in the construction sector in the city corresponds to the contribution of small businesses. In our opinion, ensuring the development of small businesses while maintaining the existing potential of large businesses, creating a favorable business environment for them and increasing their number is considered as one of the important areas of development of the construction industry.

Based on the above considerations, we will consider the interaction of small and large businesses in the construction sector based on regression analysis. First, we will consider the impact of the total number of newly created and liquidated enterprises in the construction sector on the number of operating small businesses in the construction sector. The results of the regression analysis are presented below.

$$Sac = 4689.43 + 2.56Tnew - 9.83Tclo \qquad (1)$$

$$se = (681.48) \quad (0.28) \quad (1.78)$$

$$t = (6.88) \quad (9.21) \quad (-5.22)$$

$$p = (0.001) \quad (0.00) \quad (0.003) \qquad R^2 = 0.98$$

Here: Sec - the number of active small enterprises in the construction sector; New - the number of newly formed enterprises and organizations in the construction sector; Tclo - the number of liquidated enterprises and organizations in the construction sector;

All coefficients of the developed model are adequate to the Student's criterion, and the coefficient of determination is 0.98. That is, it shows that 98% of the change in the resulting factor corresponds to the contribution of the selected factors. The Fisher criterion (128.4) and Durbin-Watson statistics (2.3) show that the results of other criteria are also at the required level. Formula 1.

According to the results of the study, an increase in the number of newly created enterprises and organizations of the construction industry per unit provides an average increase in the number of operating small businesses by 2.56 units, while an increase in the number of closed enterprises and organizations per unit reduces the number of small businesses by an average of 9.83 units. As a result, the effect of liquidated enterprises and organizations is almost 4 times higher than that of newly created ones.

We want to conduct the above analysis for large business entities working in the construction sector. Unlike small business entities, the influence of large business entities on the number of newly created and liquidated enterprises is significantly lower. Because, according to available data, cases of creation and termination of new ones at large enterprises are rarely

observed. In particular, a total of 7,767 new enterprises were created during the analyzed period, of which only 15 large enterprises. In addition, out of 2,123 liquidated enterprises, 13 turned out to be large. As a result, it was studied that the share of large enterprises in these processes is 0.2 and 0.6 percent, respectively.

Based on the results of the regression analysis, the following model was obtained for studying the impact of newly created and liquidated enterprises on the number of large enterprises operating in the industry.

$$ac = 115.07 - 0.01Tnew - 0.19Tclo \qquad (2)$$

$$se = (11.46) \quad (0.005) \quad (0.03)$$

$$t = (10.04) \quad (-2.71) \quad (-6.50) \qquad R^2 = 0.90$$

Here: Bac - the number of active subjects of large business in the construction sector; Tnew - the number of newly created enterprises and organizations in the field of construction; Tclo - number of closed enterprises and organizations in the construction sector;

According to the results obtained, both coefficients reflecting the impact of the number of new and liquidated business entities in the industry have a negative value. These coefficients are adequate according to the Student's criterion, and the coefficient of determination has a sufficiently high value. The results for other criteria are also presented in formula 2, which also proves the adequacy of the results.

Based on the analysis presented above, we use the model and coefficients to draw conclusions. According to them, an increase in the number of newly created enterprises in the sphere by 100 units will reduce the number of large enterprises by one unit. To study the reasons for this, it is useful to focus on the data (Figure 3).

The number of active large business entities as of January 1, 2019 tended to decrease from 54 to 37. During this period, the total number of newly created enterprises tended to increase, increasing from 481 to 1,443 and reaching 1,739 on January 1, 2020, and decreasing to 1,465 on January 1, 2021. In the next two years, the number of active subjects of large business increased from 37 to 83.

Figure 3.

Dynamics of the total number of established enterprises and operating entities of large entrepreneurship in the city of Tashkent

Years	20154	20165	20176	20187	20198	20219	20220	20231
Registered	98.2	98.4	98.6	98.8	99.0	99.3	99.3	99.0
Active	98.0	98.3	98.5	98.7	99.0	99.3	99.3	99.0
Inactive	99.4	99.5	99.1	99.3	98.9	98.6	99.6	100.0
Newly founded	100.0	99.6	100.0	100.0	99.7	99.7	99.8	99.8
finished	99.7	98.6	100.0	99.7	99.3	99.4	99.5	97.7

As a result, a change in the opposite direction relative to each other caused a negative correlation between them. It can be seen that the total number of newly created enterprises in the construction sector in Tashkent has a negative impact on the number of operating large business entities.

The second factor is that the total number of closed enterprises in the construction industry will increase to 10 units, and the number of active subjects of large business will decrease by an average of about 2 units.

CONCLUSIONS

According to the results of our research, the total number of newly created enterprises in the construction industry positively affects the number of operating small businesses, but negatively affects the number of large businesses. This creates a contradictory situation. In this case, in order to get an answer to the question about the need to increase the number of newly created enterprises, we found it expedient to consider the ratio between the number of small and large businesses operating in the field of construction, and we received the following results. According to the results of the analysis, there is a direct relationship between the two indicators, and it was found that the free period of the model is not adequate. Therefore, to determine the relationship between the two indicators, we conducted a regression analysis using the Gretl program, the results of which are presented below.

$$Sac = 88.66Bac \qquad (3)$$

$$se = (11.23)$$

$$t = (7.89) \qquad R^2 = 0.90$$

With the exception of the analysis results mentioned above, all the results obtained on the basis of the program are given in the 3rd formula. The developed model and its coefficient are adequate to all criteria, which indicates that this model can be used for analysis. That is, an increase in the number of large operating construction enterprises in Tashkent by one unit serves to increase the number of small operating construction enterprises by an average of 88.66 units. In other words, an increase in the number of small construction enterprises by 88.66 units will serve to increase the number of large enterprises.

According to the results of the first model, with an increase in the total number of newly created construction enterprises by one unit, an increase in the number of operating small construction enterprises



by 2.56 units was determined. If we consider this dependence, then an increase in the number of newly created enterprises by 34.63 units will increase the number of small operating construction enterprises by 88.66 units, which, in turn, will increase the number of large operating construction enterprises by one unit.

As a result of our research on the development of strategies and priorities for the activation of small business and private entrepreneurship in the construction sector, the following conclusions were made.

During the transition period, state support for small businesses should be incentive-based and selective.

They consider it expedient to solve the existing problems of the development of small business and private entrepreneurship in the field of construction in cooperation with state authorities and the leadership of local governments. Also, in the development of small business and private entrepreneurship, it is necessary to introduce and apply a strategic mechanism for regulating regional development, taking into account the viability of the subjects.

Based on the results obtained, it can be emphasized that the newly created construction enterprises serve to increase the number of small and large operating construction enterprises.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947 “On the Strategy of Actions for the further development of the Republic of Uzbekistan”\\ lex.uz

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to implement the investment program of the Republic of Uzbekistan for 2021-2023”

3. Renata Stasyak-Betleevsk and Marek Potkan/ Procedia Economics and Finance 34 (2015) 35 – 42

4. “Source: Table “Statistical collection of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan on the socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan”

5. Author’s development

6. www.toshstat.uz (official website of the Tashkent City Statistics Department)

7. Akhmedova N.Sh. “Ways to optimize small business and private entrepreneurship”., ACADEMICIA An International Multidisciplinary Reseach Journal ISSN:2249-7137 Vol. 11, Issue 1, January 2021 Impact Factor: SJIF 2021=7,492 India

8. Akhmedova N.Sh. "Improving organizational structure for small and medium contracting firms"., International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, (online) Year: 2019 Issue: 09 Volume: 77 Published: 11.09.2019 http://T-Science.org Impact Factor. 45-50 pages.

9. Author's developmentю

10. Kraus, S., Jones, P., & Kailer, N. (2021). *Digital transformation and SMEs: Theoretical foundations and empirical evidence*. Journal of Small Business Management, 59(5), 1231–1256.

11. Li, H., Hou, L., & Wang, X. (2020). *Digital ecosystems and collaborative business models in construction*. Automation in Construction, 118, 103266.

12. Marnewick, C., & Marnewick, A. (2022). *The digital economy's impact on project management in construction*. International Journal of Project Management, 40(2), 154–169.



Raximova Dilorom Sulaymonovna
BuxDU tayanch dokoranti,
diloromraximova@mail.ru

UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARI BOZORINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY RESTORAN AMALIYOTLARIDAGI TENDENSIYALARI

Annotatsiya: So‘nggi yillarda umumiy ovqatlanish sohasida barqarorlik muhim strategik yo‘nalishlardan biriga aylandi. Resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, va ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini joriy qilish orqali ko‘plab restoranlar atrof-muhitga zarar yetkazmasdan xizmat ko‘rsatishni maqsad qilmoqda. Ushbu maqolada barqarorlikni o‘z faoliyatiga muvaffaqiyatli integratsiya qilgan restoranlar tajribasi tahlil qilinadi va sohadagi istiqbolli yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, restoran, yashil texnologiya, Michelin Green Star, ekologik toza mahsulotlar, Zero waste tamoyili, sog‘lom menyu, restoran tendensiyalari.

KIRISH

Umumiy ovqatlanish xizmatlari doimiy ravishda rivojlanib bormoqda va hali ham rivojlanishda davom etmoqda — bu soha an’anaviy faoliyat turlaridan, masalan, odatiy katering xizmatlaridan raqamli texnologiyalardan kundalik foydalaniladigan faoliyat turlariga, masalan, ghost kitchen (ya’ni faqat yetkazib berish uchun ishlaydigan oshxonalar) tizimiga o‘tmoqda. Restoranlar maktab oshxonasi yoki ishxona oshxonalaridan farq qiladi, xuddi mehmonxonalar faqat onlayn ishlaydigan, oziq-ovqat yetkazib berish platformalari orqali faoliyat yuritadigan oshxonalardan farq qilgani kabi.



Hozirgi davrda umumiy ovqatlanish xizmatlari bozori iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi zamonaviy restoran amaliyotlaridagi tendensiyalarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Globalizatsiya, raqamli transformatsiya, sog‘lom ovqatlanish madaniyatining kuchayishi va ekologik barqarorlik konsepsiyasining ommalashuvi natijasida restoran biznesi iste’molchilarning yangi talablariga moslashishga majbur bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy restoran amaliyotlarining barqaror rivojlanishdagi o‘rni — resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, lokal mahsulotlardan foydalanish, raqamli xizmatlar va mijozlar bilan interaktiv aloqani yo‘lga qo‘yish orqali aniqlanadi. Ushbu jarayonni o‘rganish umumiy ovqatlanish tizimini modernizatsiya qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va barqaror iste’mol madaniyatini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy restoran amaliyotlarining barqaror rivojlanish bilan bog‘liq tendensiyalari bugungi global oziq-ovqat tizimlarining o‘zgarishi bilan bevosita aloqador. Dunyoda ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, oziq-ovqat xavfsizligi, sog‘lom ovqatlanish, mahalliy mahsulotlardan foydalanish va “yashil gastronomiya” amaliyotlari tobora muhimlashib bormoqda. BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)da ovqatlanish xizmatlari sektori global ekologik yuklamani kamaytirish, oziq-ovqat chiqindisini 50 % ga qisqartirish va uglerod izini pasaytirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Yevropa Ittifoqi, Kanada, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda “sustainable restaurant practices”, “zero waste kitchen”, “farm-to-table”, “local sourcing”, “green hospitality” kabi amaliyotlar umumiy ovqatlanish bozorining asosiy tendensiyalariga aylangan. Bu o‘zgarishlar iste’molchilarning ekologik ongining o‘sishi, sog‘lom hayot tarziga ijobiy intilishlar, oziq-ovqat xavfsizligiga bo‘lgan talabning ortishi bilan chambarchas bog‘liq. Restoran biznesi jahon miqyosida nafaqat xizmat ko‘rsatish sifati, balki ekologik mas’uliyati bilan ham raqobatlashayotgan sektor sifatida shakllanmoqda. Shu sababli zamonaviy restoran amaliyotlarining barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashuvi global gastronomik industriyaning asosiy strategik yo‘nalishiga aylanmoqda.

O‘zbekistonda umumiy ovqatlanish xizmatlari bozori so‘nggi yillarda jadal kengayib borayotgan iqtisodiy segmentlardan biri bo‘lib, restoran industriyasi mamlakat turizm salohiyatining ajralmas bo‘lagi sifatida shakllanmoqda. Iqtisodiy o‘sish, turizm oqimining ko‘payishi, urbanizatsiya jarayonlari, o‘rta sinfning kengayishi va gastronomik turizmga qiziqishning ortishi mazkur sohada zamonaviy amaliyotlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Milliy miqyosda “yashil restoranlar”, mahalliy mahsulotlarga asoslangan menyu ishlab chiqish, chiqindisiz oshxona, energiya tejamkor texnologiyalar, sog‘lom gastronomiya (healthy eating), digitallashtirilgan restoran boshqaruvi kabi tamoyillar keng qo‘llanilayotgan sektor bo‘lib bormoqda.

Shuningdek, Turizmni rivojlantirish agentligi, Sanitariya va epidemiologiya xizmati, O‘zstandart agentligi tomonidan xizmatlar sifati, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik barqarorlik bo‘yicha joriy qilinayotgan standartlar restoran biznesini modernizatsiya qilish zaruratini kuchaytirmoqda. O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan turizm strategiyasida gastronomik turizmni rivojlantirish, ekologik va inklyuziv restoran amaliyotlarini qo‘llash, mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan.

Mamlakatda sog‘lom ovqatlanish madaniyati shakllanib borayotgani, yoshlarda global gastronomiya tendensiyalariga qiziqishning ortishi, “smart restaurant” texnologiyalari bozorining paydo bo‘lishi ushbu mavzuning milliy darajadagi dolzarbligini yanada oshiradi. Umumiy ovqatlanish xizmatlarining barqaror rivoji O‘zbekistonning iqtisodiy raqobatbardoshligi, turizm daromadlari va aholining sifatli ovqatlanish imkoniyatlarini oshiruvchi omil sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro amaliyotda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Dastlab XX-XXI arslar oralig‘ida jahon hamjamiyatida “barqaror rivojlanish” harakati yuzaga kelgan va uning asosiy mohiyati ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikka erishishda hozirgi va kelaj avlod manfaatlari uchun atrof-muhitni saqlash va tabiiy resurslarni tejashdan iborat. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi asoschisi Gro Harlem Brudtlandning ta’rificha, “Barqaror rivojlanish- bu shunday rivojlanishki, unda insoniyatning hozirgi zamon ehtiyojlari qondiriladi, lekin bunda kelajak avlodning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari xavf ostiga qo‘yilmaydi”[5].

G‘arb olimlarining barqaror rivojlanish tushunchasi ta’riflariga chuqurroq to‘xtaladigan bo‘lsa, tadqiqotchi olim Peetning ta’rificha, “Taraqqiyot tushuncha sifatida turli olimlarning turli ma’nolari, talqinlari va nazariyalari bilan bog‘langan. Rivojlanish – insonning yangi tuzilmalarni boshlash, muammolarni yengish, doimiy o‘zga-rishlarga moslashish va yangi maqsadlarga erishish uchun maqsadli va ijodiy intilish nuqtayi nazaridan o‘sib borayotgan evolyutsion jarayondir”[6].

Todaro va Smit barqaror rivojlanishni ta’riflashda iqtisodiy ahamiyatiga ko‘proq to‘xtalgan. Ularning fikricha, “Rivojlanishni ijtimoiy tuzilmalar, munosabatlar va institutlardagi katta o‘zgarishlarni, shuningdek, iqtisodiy o‘sishni, tengsizlikni kamaytirishni va mutlaq qashshoqlikni yo‘q qilishni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali jarayon”[6].

Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha dunyo komissiyasining ta’rifining keng tarqalganligini tan olib, barqaror rivojlanish global rivojlanish siyosati va kun tartibidagi asosiy tushuncha ekanligini ta’kidlaydi. Bu jamiyat atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi mumkin bo‘lgan mexanizmni ta’minlaydi, shu bilan birga kelajak uchun resursga zarar yetkazish xavfini tug‘dirmaydi. Shunday qilib, bu rivojlanish paradigmasi, shuningdek, yer ekotizimlarini xavf ostiga qo‘ymasdan yoki iqlim o‘zgarishi va turlarning yo‘q bo‘lib ketishi kabi muammolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan o‘rmonlarning kesilishi, suv va havoning ifloslanishi kabi ekologik muammolarni keltirib chiqarmasdan turmush darajasini yaxshilashni talab qiladigan konsepsiyadir[6].

Yevrokomissiyaning klassik ta’rifiga ko‘ra, korporativ ijtimoiy mas’uliyat konsepsiyasi kompaniyalarning jamiyat hayotini yaxshilashda va atrof-muhitni muhofaza qilishda ishtirok etishini aks ettiradi. Shu tariqa, korpo-rativ ijtimoiy mas’uliyat tashkilotning barqaror rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir[7].

Yuqoridagi ta’riflarni umumashtirgan holda quyidagi ta’rifni keltirib chiqardik. Barqaror rivojlanish- bu iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar jarayoni bo‘lib, unda tabiiy resurslardan foydalanish, investitsiyalarni yo‘naltirish, ilmiy va texnologik rivojlanish yo‘nalishlari, shaxsiy rivojlanish va institutsional o‘zgarishlar bir-biri bilan uyg‘un-lashtirilgan bo‘ladi va inson ehtiyojlari va intilishlarini qondirish uchun hozirgi va kelgusidagi salohiyat mustah-kamlanadi. Ko‘p jihatdan, bu odamlar hayotinining sifatini ta’minlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda, mahalliy va global darajadagi rasmiy idoralar barqaror rivojlanish chora-tadbirlarini ilgari surmoqda. Bu yerda ***“barqarorlik”*** atamasi *“muayyan tezlik yoki darajada saqlab qolish qobiliyati”* sifatida tushuntiriladi[1]. Shu o‘rinda “barqarorlik” va “barqaror rivojlanish” kabi atamalarga chuqurroq to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdik.

Barqarorlik lotincha ***“Sustinere”*** so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu *“qo‘llab-quvvatlash”, “ushlab turish”* degan ma’noni anglatadi. Kompaniya, mahsulot yoki xizmat barqaror deb ataladi, agar u vaqt o‘tishi bilan bozorda saqlanib qolsa, mustahkam tursa yoki davom etsa[2].

Barqarorlik qadim zamonlardan buyon keng tarqalgan hodisa bo‘lib kelgan. Ushbu tushuncha hozirda alohida shaxslar hamda kompaniyalar, nodavlat tashkilotlar, ta’lim muassasalari va fuqarolik institutlari tomonidan biznes, dizayn, muhandislik va tabiiy resurslar sohasida keng qo‘llanilmoqda.

Barqarorlik bu — ilm-fan bilan bog‘liq bo‘lgan, dunyo oldida axloqiy qarashga xizmat qiladigan moslashuvchan amaliyotdir[2].

Barqarorlik bu — resurslarni yaratish, foydalanish, qayta ishlatish va takroriy foydalanishni mukammal amalga oshirib, chiqindi va ifloslanishni kamaytirish demakdir. Barqarorlikning maqsadi — tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanishni kamaytirish va ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishdir[3].

Xuddi shuningdek, barqaror rivojlanish — bu uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, global, milliy va mintaqaviy darajadagi tizimlar, mexanizmlar va yondashuvlarni joriy qilish orqali atrof-muhit manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bu yondashuv mahsulot sifatini yaxshilash, uni samarali tarzda qayta ishlash va chiqindilarni imkon qadar kamaytirish imkonini beradi.

So‘nggi o‘n yillikda barqarorlik tushunchasi xizmat ko‘rsatish sohasining kundalik faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Kompaniyalar barqarorlikni mijozlar, bozor yoki boshqa tarmoqlar orqali qo‘llab-quvvatlab, bozorning doimiy harakatda bo‘lishini ta’minlashga harakat qilmoqda. Ular barqarorlik g‘oyasini Yer resurslari cheklangan degan tamoyil asosida qurmoqda. Atrof-muhit, iqtisodiyot va tenglik o‘rtasida muvozanatni saqlab qolish uchun restoranlar barqarorlik bilan qo‘luqda ishlash zarurligini anglab yetmoqda. Shu kabi barqaror amaliyotlar sog‘lom yashash muhitini yaratadi, ifloslanishni kamaytiradi va o‘simlik hamda hayvonot dunyosining tabiiy yashash joylarini himoya qiladi.

Bugungi kompaniyalar raqobatda muvaffaqiyatli bo‘lish va atrof-muhit manfaatlariga xizmat qilish

uchun barqaror biznes yuritish tamoyillariga rioya qilishlari zarur. Bu jumladan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

· yashil texnologiyalar (green technologies),

· ekologik toza ta'minot zanjirlari (eco-friendly supply chains).

Barqaror amaliyotlar sanoat va jamoa uchun ijobiy domino effektini yaratadi — bu issiqxona gazlari va qazilma yoqilg'ilarni kamaytirishga, shuningdek, hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Barqarorlik tushunchasi uch asosiy ustun (poydevor)ga tayanadi(1-rasm):



1-rasm. Barqaror rivojlanish tamoyillari[1].

1. Ekologik barqarorlik (Environmental sustainability)

Bu — ekologik yaxlitlikni saqlash, insonlar iste'mol qilayotgan tabiiy resurslarning muvozanatli foydalanilishini ta'minlash demakdir.

2. Iqtisodiy barqarorlik (Economic sustainability)

Bu — mustaqil va hamma uchun ochiq bo'lgan moliyaviy tizimni saqlash va rivojlantirish amaliyotidir. Shuningdek, bu yangi ish o'rinlarini yaratish va mavjudlarini saqlash orqali iqtisodiy o'sishni davomiy qilish, insonlar ehtiyojlarini barqaror qondirishga xizmat qiladi.

3. Ijtimoiy barqarorlik (Social sustainability)

Bu — jamoa ichida har bir inson ehtiyojlarini qondirish va yetarli resurslarning mavjud bo'lishini ta'minlashdir. Kuchli ijtimoiy tizim quyidagilarni kafolatlaydi:

· sog'lom turmush tarzini,

· mehnat huquqlari,

· sog'liqni saqlash,

· vaqt va ish haqidagi tenglik kabi inson huquqlari[4].

Restoranlar barqaror amaliyotlarni ommaviy axborot vositalarida namoyish etgan holda, tobora o'sib borayotgan o'sish sur'atlarini ta'minlaydi. Biroq, oziq-ovqat sanoatining ko'p bosqichli aylanishlari va jarayonlari salbiy ekologik ta'sirlarga, jumladan yer resurslarining ortiqcha ishlatilishiga olib keladi. Vaqt o'tishi bilan, dunyo bo'ylab turli besh yulduzli va undan yuqori reytingdagi restoranlar sifatni nazorat qilishga alohida e'tibor berib, barqarorlik sohasida yuqori raqobat darajasini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, sog'lom va barqaror turmush tarzini yaratishga xizmat qilmoqda.

Muhim omillardan biri — mahalliy (yaqin hududdagi) yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanishdir. Bu restoranlarga yaqin atrofdagi fermalardan yangi mahsulotlarni olish imkonini beradi. Bunday barqaror yondashuv vaqt o'tishi bilan ortiqcha iste'molni kamaytiradi, kichik fermer xo'jaliklariga ko'plab imkoniyatlar yaratadi, mahalliy yetkazib berish tizimini qo'llab-quvvatlaydi va sarflanadigan mablag'ni qisqartiradi.

Ikkinchi muhim amaliyot — bu kam sarfli suv tizimlaridan foydalanishdir.

Restoranlar aeratorli suv jo'mragidan foydalanib, suv oqimini kamaytirgan holda yuqori bosimni ta'minlaydi. Bu orqali suv iste'moli keskin kamayadi, bu esa restoranlarga raqobatda oldinda bo'lish imkonini beradi.

Uchinchi omil esa – kompostlanadigan (chiriydigan) ovqat qutilari. Bunday ekologik qadoqlash vositalari bir martalik ishlatiladigan va ko'pincha chiqindiga aylanib, poligonlarga tushadigan mahsulotlar iste'molini kamaytiradi. Oddiy plastik va boshqa materiallar uzoq vaqt chirimaydi, ammo kompostlanadigan idishlar atrof-muhitni hisobga olib ishlab chiqiladi va uy sharoitida parchalanishi mumkin[13].

Barqarorlikka kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri — bu iste'mol qilinmay qolgan ovqatlarni xayriya qilish masalasidir. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi restoranlar har yili 7,6 milliard funtdan ortiq oziq-ovqatni isrof qiladi. Bu mahsulotlar ko'pincha sovutkichlardagi foydalanilmagan ingredientlar yoki tayyorlash paytidagi chiqindilar hisobiga chiqindiga aylanadi[14]. Bunga qo'shimcha ravishda, mahsulotlar yetkazib berishda ishlatiladigan idishlar ham bir martalik bo'ladi, bu esa chiqindi miqdorini yanada oshiradi.

O'simlikka asoslangan ingredient variantlari odamlar uchun atrof-muhitga ma'lum ta'sir ko'rsatadigan parhez turini tanlash imkonini beradi. Sut mahsulotlari va go'shtning ortiqcha iste'moli — chorvachilikdagi agro-amaliyotlar sababli — Yer va inson salomatligiga zarar yetkazadi, chunki bu jarayonlar ishlab chiqarishda ko'p miqdorda ifloslanish hosil qiladi. Shu sababli, o'simlik asosidagi mahsulotlar (plant-based options) — go'sht va sut mahsulotlariga nisbatan sog'lom va ekologik jihatdan foydaliroq tanlov hisoblanadi. Kompaniyalar barqarorlik tushunchasini tobora chuqurroq anglab, chiqindilarni ma'lum tartib asosida boshqarish va yo'q qilish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishdi[15].

Bugungi kunda restoranlar va kafelar raqamli menyulardan foydalanib, mijozlar uchun xizmat sifatini oshirmoqda, bu esa chiqindi miqdorini ka-

[1] Muallif ishlanmasi

maytirishga xizmat qiladi. Raqamli menyu tufayli restoranlar har safar taom qo‘shilganda yoki olib tashlanganda uni qayta bosib chiqarishga hojat qolmaydi. Bundan tashqari, raqamli buyurtmalar qog‘oz sarfini ham ancha kamaytiradi.

Restoranlarda qolgan ovqatlarni nodavlat tashkilotlarga xayriya qilish orqali esa bu ovqatlar ehtiyojmandlarga yetkaziladi, chiqindi hosil qilinmasdan isrofning oldi olinadi va alohida ovqat chiqindilari auditi talab qilinmaydi.

Yana bir muammo — ovqatlarning tez buziluvchanligi tufayli barcha meva va sabzavotlardan vaqtida foydalanish qiyin bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, yetilib qolgan meva-sabzavotlar pishiriqlar va desertlar tarkibiga kiritiladi. Restoran va kafelar ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida mavsumiy desertlar tayyorlab, mijozlarni jalb etadi va ularning ehtiyojini qondiradi bu bilan bir vaqtning o‘zida chiqindini kamaytiradi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari va oziq-ovqat sanoatidagi so‘nggi barqarorlik tendensiyalari kundan kunga rivojlanish yangi tajribalarni hayotga tadbiq etmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida quyida bir nechta barqaror rivojlanish usullarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, umumiy ovqatlanish korxonalari *“burundan dumgacha (nose-to-tail)”* pishirish usuli orqali barqaror rivojlanishga erishishga intilmoqda[16]. Bu konsepsiya G‘arb davlatlarida iqtisodiy inqiroz davrida ommalashgan bo‘lib, hayvonning faqat qimmat qismlarini emas, balki yeyiladigan barcha qismlarini tayyorlash va iste’mol qilishni anglatadi. Shu oilaga kiruvchi o‘xshash yondashuvlardan biri — *“Fin-to-Gill”*, ya’ni baliqning har bir qismini (butun baliqni ishlatish paprametridir – dumidan boshlab hosila va tomir tizimigach, barcha qismi mustaqil taom yoki ingredient) ishlatish; yana biri — “Root-to-Shoot”, ya’ni meva va sabzavotlarning ildizidan bargigacha barcha qismlaridan foydalanishni bildiradi. Bu yondashuvlar tayyorlash va iste’mol qilish jarayonining har bir qismini foydali qiladi, buyurtma jarayonini iqtisodiy jihatdan tejamkor qiladi, mijoz ehtiyojlarini qondiradi, marketing, reklama va jamoatchilik bilan aloqalar (PR) uchun imkoniyatlar yaratadi, va eng muhimi — oshxona chiqindilarini sezilarli kamaytiradi. Biroq bu jarayonni joriy etish uchun tajribali oshpazlar va ovqat kimyosini chuqur tushunadigan xodimlar talab qilinadi. Shundagina oshxona to‘liq “yashil” (green kitchen) bo‘lishi mumkin[17].

So‘nggi yillarda insonlar o‘z sog‘ligiga, qanday taom ist’emol qilayotgani, ularning zararli yoki foydali jihatlariga, sog‘lom ovqatlanish va ratsion kabi muhim omillarga katta e’tibor qaratmoqda. Aynan go‘shtsiz va o‘simlik asosidagi taomlar barqarorlik va sog‘lom ovqatlanishni targ‘ib qiladigan mahsulotlar hisoblanadi. O‘simlik asosidagi go‘sht o‘rnini bosuvchi mahsulotlar — tashqi ko‘rinishi, ta’mi va tuzilishi bo‘yicha haqiqiy go‘shtga juda o‘xshaydi, ular deyarli bir xil miqdorda foydali oziq moddalarni ta’minlaydi. Bu mahsulotlar esa bir qator quyidagi muhim jihatlarga egadir:

- tana va ong uchun foydali;
- Yer uchun foydali;
- issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytiradi;
- ko‘payib borayotgan aholi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaydi.

Masalan, Beyond Meat[18] kabi kompaniyalar go‘sht o‘rnini bosuvchi o‘simlik mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bu mahsulotlar tanaga oson hazm bo‘ladi, ishlab chiqarish jarayoni esa ekologik jihatdan qulay. Vegetarianlar uchun esa restoranlar butunlay o‘simlikka asoslangan taomlar (masalan, loviya, dukkaklilar) tayyorlaydi, sut mahsulotlarini (pishloq, qatiq, sut) kamaytirib, ularni tofu, yong‘oqlar, urug‘lar, qo‘ziqorinlar kabi mahsulotlar bilan almashtiradi. Bu mahsulotlar go‘shtga nisbatan kamroq yer maydonini talab qiladi, kamroq suv sarflaydi, kamroq issiqxona gazi chiqindilarini chiqaradi.

Sayyoraga do‘stona dehqonchilik amaliyoti — Regenerativ dehqonchilik nomi bilan tanilgan. Bu usul sanoat dehqonchiligi tufayli yuzaga kelgan zararlarni tiklashga yordam beradi. Sanoat dehqonchiligi — unumdorlik va samaradorlikni oshirish uchun zamonaviy texnika, kimyoviy vositalar va genetik modifikatsiyalangan ekinlardan foydalanadigan yirik hajmdagi tijoriy dehqonchilik shaklidir. Bunday yondashuvdan keyin yerning oziqlanish qiymati nol darajaga tushadi, va deyarli cho‘lga aylanadi[19].

Regenerativ dehqonchilik esa yerga ishlov bermasdan (no-till) ekin ekish, qoplama ekinlar orqali tuproqni oziqlantirishni nazarda tutadi. Bu usul yovvoyi tabiat va changlatuvchilar (ari, kapalaklar va h.k.) uchun ko‘proq joy yaratadi, o‘g‘it va pestitsidlar kamroq ishlatilgani sababli tuproqda biologik hayot shakllanadi, tuproq yaxshiroq shamollanadi, natijada tuproq yuzasida qalin kompost qatlami hosil bo‘ladi. Ekinlarni aylantirib ekish (crop rotation) sigirlarning yayrashiga imkon yaratadi, bu esa sog‘lom va boy hosil yetishtirishni ta’minlaydi. Regenerativ dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan fermerlardan mahsulot xarid qilish oshpazlarga oziq moddalarga boy taomlar tayyorlash, regenerativ dehqonchilikdan olingan mahsulotlardan foydalanish imkonini beradi(masalan: asal, tabiiy fermentlar va boshqalar).

Ekologik va barqaror amaliyotlar — biologik xilma-xillikka (biodiversity) alohida e’tibor beradi Xalqaro barqaror rivojlanish instituti (2023) ma’lumotlariga ko‘ra[20], global oziq-ovqat tizimlari xavf ostidagi turlarining 86 foiziga tahdid solidi va bu holat quruqlikdagi biologik xilma-xillikning 70 foizga yaqin yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Oziq-ovqat sanoatida biologik xilma-xillikni e’tiborga olish har qanday (kichik yoki kuchli) iqlim o‘zgarishlariga chidamlilikni ta’minlaydi, inson sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu sababli restoranlar biodiversitetga asoslangan menyularni ishlab chiqmoqda. Bunday menyular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• mahalliy hududlarga xos (indigenous) hayvon turlari,

• barqaror baliqchilik orqali ovlangan dengiz mahsulotlari,

• an’anaviy usullar bilan tutilgan baliqlar,

• invaziv (mahalliy ekotizimga tahdid soluvchi) turlarni ham iste’mol qilish orqali nazorat qilish.

Barqarorlik tamoyillariga rioya qilish fermentatsiyalangan mahsulotlarga ham foyda keltiradi. Fermentatsiyalangan mahsulotlar ba’zida yoqimsiz hid berishi mumkin, ammo ular sayyora uchun nihoyatda foydalidir.

Fermentatsiya esa iste’molga yaroqsiz bo‘lib qolayotgan oziq-ovqatni saqlab qoladi, sog‘lom ichak florasini qo‘llab-quvvatlaydi, oziq-ovqatni buzilish jarayonidan to‘xtatadi va uning saqlanish muddatini uzaytiradi. Bundan tashqari

fermentatsiya jarayoni yangicha ta’m va tuzilma (tekstura) yaratadi, restoranlar uchun samarali va issiqxona gazlari chiqindisini kamaytiradi, mahsulot o‘z vaqtida ishlatiladi va isrof bo‘lmaydi.

Restoran menyularida bolalar menyusi mavjud bo‘lishi mumkin, ammo bu har doim ham barqaror yechim bo‘lavermaydi. Ko‘p hollarda bolalar menyusi tez tayyorlanadigan, yog‘siz va to‘yinsiz ovqatlarni o‘z ichiga oladi, ko‘p chiqindi hosil qiladi va ozuqaviy qiymati esa past bo‘ladi.


Qadoqlangan va qayta ishlangan mahsulotlar bolalarga yoqadi, katta yoshdagilar esa bu istakni rad eta olmaydilar. Bu muammo uchun eng yaxshi yechim esa bolalar uchun alohida menyu tuzish o‘rniga, asosiy menyudagi taomlarning kichik porsiyalarini taklif qilishdir. Bu orqali chiqindining oldi olinadi, ovqatning miqdori nazorat ostida bo‘ladi, bolalar o‘zlari uchun mos ovqatlarga erta bosqichda ko‘nikadi, bu esa ularni sog‘lom ovqat tanlashga oddiy yo‘l bilan o‘rgatadi[21].

Tahlil va natijalar

Dunyo bo‘yicha restoran va umumiy ovqatlanish (foodservice) bozori oxirgi yillarda barqaror o‘sishda: Global foodservice bozori hajmi 2023–2024 yillarda trillion dollarlik ko‘rsatkichga yaqinlashib, yaqin yillarda yanada o‘sishi prognoz qilinmoqda. Fast casual, delivery, coffee shop, street food va tematik restoranlar ulushi ortib bormoqda. Bu bozor strukturasining dinamik o‘zgarayotganini ko‘rsatadi.

Sog‘lom va barqaror ovqatlanish tendensiyasi rivojlangan davlatlarda iste’molchilarning 40–60 % gacha qismi taom tanlashda sog‘lom ovqatlanish, kaloriya, yog‘ va shakar miqdoriga e’tibor berishi haqida so‘rovlar mavjud (turli milliy surveylar asosida). “Plant-based” (o‘simlikka asoslangan), vegetarian/vegan menyular, kam tuzli, diabetik, allergiyasiz taomlar segmenti yildan-yilga oshib boryapti. “Local sourcing” (mahalliy xomashyo) va “farm-to-table” (fermerdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri stolga) restoranlari ko‘payib, mahalliy iqtisodiyot va barqarorlikni qo‘llab-quvvatlayapti. Bu statistik o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, bozor barqarorlikni “trend” emas, balki yangi norma sifatida qabul qila boshlagan.

Zamonaviy restoran amaliyotlari ilmiy farazlarga tayanadi. Bunda barqarorlik nazariyasi va restoranlar uchta asosiy ustunga tayanadi, bular ekologik, ijtimoy, iqtisodiy barqarorlikdir. Zamonaviy restoran amaliyotlari (zero waste, local sourcing, green design, digitallashuv) aslida mana shu uch ustunni muvozanatlashga qaratilgan amaliy mexanizmlardir.



2-rasm. Zamonaviy restoran amaliyotlarining amaliy mexanizmlari

“Zero waste” va chiqindilarni boshqarish. Ilmiy yondashuvga ko‘ra: oziq-ovqat chiqindilarining 20–30 % gacha qismini menyu rejalashtirish, porsiya standartlari, saqlash texnologiyalarini yaxshilash orqali kamaytirish mumkin. Bu ekologik yukni kamaytirish bilan birga, restoran xarajatlarini ham sezilarli qisqartiradi (xomashyo isrofini kamaytirish orqali).

Shuning uchun ko‘plab zamonaviy restoranlar: porsiya o‘lchamini qayta ko‘rib chiqadi, “to‘liq mahsulot” ishlatish (masalan, sabzavot po‘stlog‘i, suyakdan bulon va h.k.), smart-sklad, digital inventarizatsiya kabi tizimlar joriy qiladi.

Local sourcing va gastronomik barqarorlik. Local sourcing nazariyasi shuni ta’kidlaydi, mahsulot yetkazib berish zanjiri qisqargan sari: transport xarajatlari kamayadi, uglerod izi (CO_2 emissiya) pasayadi, mahalliy fermerlar va ishlab chiqaruvchilar daromadi oshadi, taomlarning “freshness” va sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi. Bu ilmiy va iqtisodiy jihatdan “win-win” model: ham restoran rentabelligi, ham milliy iqtisodiyot, ham ekologiya yutadi.

Oziq-ovqat sanoati va restoranlar — eng yuqori darajadagi oziq-ovqat chiqindilari va ifloslanish manbalaridan biri hisoblanadi, ular global antropogen issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 34 foizini tashkil qiladi. Bu raqam oziq-ovqat ishlab chiqarish, qayta ishlash, tarqatish va iste’mol bosqichlarini o‘z ichiga oladi[8].

Shunday sohada barqarorlikni chuqur tushunish juda muhim hisoblanadi. Biroq, barqarorlik timsoli, istiqboli va uni amalda joriy qilish orasidagi tafovut katta bo‘lishi mumkin[9].

2019-yilda SARS-CoV-2 pandemiyasi yuzaga kelgach, oziq-ovqat tizimida sezilarli o‘sish kuzatildi. Xu-

susan, mijozlarning restoranlarda ovqatlanish va tayyor ovqat olib ketishga bo‘lgan qiziqishi ortdi. Bu holat xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarga — xususan, restoranlarga barqaror amaliyotlarni joriy qilish zarurligini yanada ko‘proq eslatdi[10].

Nufuzli restoranlar va taniqli oshpazlar jamiyatdagi ta’sirlarini inobatga olib, barqarorlik bilan uyg‘un faoliyat yuritishga majbur bo‘lmoqda[9].

Oziq-ovqat sanoati ijodiy yondashuvlar bilan restoranlarni barqaror amaliyotlarni qabul qilishga undamoqda. Bu orqali ular bir tomondan atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi, boshqa tomondan esa iste’molchilarga eng yaxshi xizmatlarni taqdim etadi. Shuningdek, har yili o‘tkaziladigan Michelin Green Star tadbiri orqali barqarorlikni muvaffaqiyatli joriy etgan restoranlar e’tirof etiladi. Bu restoranlar etik va ekologik me’yorlarga rioya qiladi, oziq-ovqat chiqindilarini kamaytiradi va plastmassa va boshqa qayta ishlanmaydigan materiallardan foydalanishni cheklaydi. Ularning “eko-do‘st”(eco-friendly) gastronomik tajribasi — barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi noyob imkoniyatlarni taqdim etadi[11]. Bu restoranlar bevosita fermerlar, yetishtiruvchilar va baliqchilar bilan hamkorlikda ishlaydi. Ular regenerativ usullar, masalan yer kovlanmaydigan sabzavot bog‘lari (no-dig gardens) kabi texnologiyalarni qo‘llaydi. Bu usullar yillar davomida hosildorlik va o‘sish jarayonlarini yaxshilagan[12].

Statistik va ilmiy tahlillar shuni asoslaydi-ki, zamonaviy restoran tendensiyalari (zero waste, local sourcing, healthy menu, green design, digital services) – bu modaga ergashish emas, balki ilmiy asoslangan barqaror biznes modelidir.

Bu amaliyotlar: ekologik yukni kamaytiradi, ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi,

umumiy ovqatlanish bozorida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi.

Bozor nuqtayi nazaridan: risklarni kamaytirish (mavsumiylik, narx tebranishlari), mijoz sodiqligi, mahalliy iqtisodiyot bilan kuchli integratsiya barqaror rivojlanishning asosiy drayverlariga aylanadi.

XULOSA

Umumiy ovqatlanish xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirishda zamonaviy restoran amaliyotlari nafaqat xizmat ko‘rsatish sifati, balki iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi global sharoitda restoran industriyasi innovatsion boshqaruv, raqamli transformatsiya, ekologik ong va milliy gastronomik merosning uyg‘unlashuvi asosida rivojlanmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarni (onlayn buyurtma tizimlari, mijozlar tahlili, CRM dasturlari) joriy etish xizmat ko‘rsatish jarayonining samaradorligini oshirib, iste’molchilar bilan shaxsiylashtirilgan aloqani kuchaytiradi. Shu bilan birga, “yashil” texnologiyalarni (chiqindisiz ishlab chiqarish, energiya tejamkor uskunalar, qayta ishlash tizimlari) qo‘llash orqali ekologik barqarorlik ta’minlanadi.

Zamonaviy restoran amaliyotlarida sog‘lom ovqatlanish va “slow food” falsafasi, shuningdek mahalliy xomashyo va an’anaviy retseptlarga asoslangan menyular tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, bu esa milliy gastronomik merosni saqlash va targ‘ib etish imkonini beradi. Mazkur yo‘nalish, o‘z navbatida, turizmni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, umumiy ovqatlanish tizimini barqaror rivojlantirish uchun zamonaviy restoran amaliyotlarini innovatsion boshqaruv, raqamli texnologiyalar, ekologik mas’uliyat va milliy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tashkil etish zarur. Bunday yondashuv xizmatlar sifatini oshirish, iste’molchilar ishonchini mustahkamlash va mamlakatning gastronomik imidjini xalqaro miqyosda yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Gruen, R., Elliott, J., Nolan, M., Lawton, P., Parkhill, A., McLaren, C., & Lavis, J. N. (2008). Sustainability science: An integrated approach for health-programme planning. *Lancet*, *372* (9649), 1579–1589. https://doi.org/10.1016/S0140-6736(08)61659-1

2.Thiele, L. P. (2024). *Sustainability* (3rd ed.). Polity Press. “Sustainability is an adaptive practice correlating with science that serves an ethical vision toward the world.”

3.World Commission on Environment and Development (WCED). (1987). *Our Common Future*. Oxford: Oxford University Press. Retrieved from https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/598-7our-common-future.pdf

4.Xidirova M.R., Jumayeva G.Sh. Korxonalarda barqaror rivojlanishni tatbiq etish istiqbollari //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2024-yil, yanvar. № 1-son 391-395 b

5.“Our Common Future”, World Commission on Environment and Development, 1987 https://sustainabledevelopment

6.https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311886.2019.1653531

7. https://commission.europa.eu/index_en

8.Crippa, M., Solazzo, E., Guizzardi, D., Monforti-Ferrario, F., Tubiello, F. N., & Leip, A. (2021). Food systems are responsible for a third of global anthropogenic GHG emissions. *Nature Food, 2*(3), 198–209. https://doi.org/10.1038/s43016-021-00225-9

9.Huang, Y., Hall, C. M., & Chen, N. (2022, May). *How significant is sustainability in destination restaurants? In International Scientific Conference on Contemporary Tourism Challenges*. (Vol. 12). https://www.researchgate.net/publication/362209242

10.Gössling, S., & Hall, C. M. (2022). *Food tourism and sustainable development: Challenges and opportunities*. Springer International Publishing. https://

doi.org/10.1007/978-3-030-90956-8

11.What is a MICHELIN Green Star? (n.d.). MICHELIN Guide. https://guide.michelin.com/us/en/article/features/what-is-a-michelin-green-star

12.Sken, D. (2021). *Regenerative agriculture and no-dig gardening: Sustainable methods for food production*. Journal of Sustainable Food Systems, 15(3), 45–59.

13.European Bioplastics. (2022). *Compostable packaging: An environmentally friendly alternative to conventional plastics*. Retrieved from https://www.european-bioplastics.org

14.ReFED. (2021). *Food waste in restaurants and foodservice*. ReFED Insights Engine. Retrieved from https://refed.org

15.Poore, J., & Nemecek, T. (2018). *Reducing food's environmental impacts through producers and consumers*. Science, 360(6392), 987–992. https://doi.org/10.1126/science.aaq0216

16.Root, W. (2019). *Nose-to-tail eating: Sustainable meat consumption in modern gastronomy*. Journal of Culinary Science & Technology, 17(3), 201–218. https://doi.org/10.1080/15428052.2018.1504359

17.Blake, S. (2020). *From Nose-to-Tail to Root-to-Shoot: Sustainable whole-use approaches in gastronomy*. International Journal of Gastronomy and Food Science, 21, 100231. https://doi.org/10.1016/j.ijgfs.2020.100231

18.Beyond Meat. (2023). *Our mission: Plant-based meat for a better planet*. Beyond Meat Official Website. Retrieved from https://www.beyondmeat.com

19.Rhodes, C. J. (2017). *The imperative for regenerative agriculture*. Science Progress, 100(1), 80–129. https://doi.org/10.3184/003685017X14876775256165

20.International Institute for Sustainable Development (IISD). (2023). *Biodiversity and food systems: How agriculture impacts global ecosystems*. IISD Publications. Retrieved from https://www.iisd.org

21.Wansink, B., & van Ittersum, K. (2013). *Portion size me: Plate-size induced consumption norms and win-win solutions for reducing food intake and waste*. Journal of Experimental Psychology: Applied, 19(4), 320–332. https://doi.org/10.1037/a0035053

Bakhriddinov Jakhongirbek Ravshanjan o‘g‘li

Namangan State Technical University,
Senior Lecturer, Department of “Economics”,



ORCID: 0009-0000-1228-1717

ANALYSIS OF CEREAL PRODUCT PRICE FORMATION ACCORDING TO MARKET RESEARCH (NAMANGAN REGION AS AN EXAMPLE)

Abstract: The grain market is a strategic segment of the economy, and its stable functioning plays an important role in ensuring the food security of the population. In particular, in the Namangan region, the growth of the population, the variability of production volumes in peasant and farm enterprises, and the intensification of competitive conditions in the market directly affect the formation of grain prices. Identifying and analyzing the impact of factors such as production costs, logistics, seasonality, and import-export policy on grain prices is one of the urgent scientific tasks in ensuring regional economic stability.

The relevance of this study is that the changing dynamics of grain prices in the Namangan region requires scientifically based solutions to issues such as effective management of the agricultural market, support for farms, and the formation of a stable price policy for the population. In-depth study of the structure of the grain market and price-setting mechanisms will serve to increase the level of economic growth in the region, strengthen food security, and improve market infrastructure.

The results of the research are important in the areas of planning the activities of farmers and clusters in practice, improving the state's agrarian policy, improving the price monitoring system, and increasing transparency in the market.

Key words: grain, flour products, price, grain, wheat, cluster, seed.

Introduction

Stages of price decline and increase in supply As a result of exchange trading in 2023, the price of grade 3 wheat decreased on some days, for example, on July 6–13, the average daily price fell from 2,921,000 soums to 2,610,000 soums — a decrease of 10.6%.

This decrease is mainly due to the high supply in the market.

The formation of exchange quotes is based on the full supply-demand mechanism, and payments for trades are guaranteed through the exchange clearing house.

This will allow farmers to sell their produce to clusters at market prices. The new system will also affect prices for flour and bakery products. In this



case, farmers will no longer be able to supply wheat to entrepreneurs at a low price, and the state will cover part of the costs. Producers will purchase wheat and flour products through the exchange at free prices and independently determine the price of finished products based on their costs. However, some entrepreneurs may take advantage of this and sharply increase prices.

Therefore, at the direction of the head of state, a Republican Headquarters was established under the leadership of the Prosecutor General. It will oversee the transparency, full, and fair functioning of the new system. Currently, the headquarters, comprised of the heads of 21 ministries and agencies, has regional offices in all regions. They work daily to ensure the interests of grain farmers in the procurement and sale of grain, prevent the growth and shortage of flour and grain products on the domestic market, and promptly resolve any problems that arise [2].

Literature review

The issues related to the improvement of the methodological aspects of pricing in marketing were considered by D. Aaker, I. Ansoff, K. Andersen, G. Assel , A. Bazzel, J. Dunbar, E. Dixie , G. Carter, G. Collins, F. Kotler, J. Lamben, K. McConnell , M. Porter, H. Hershgen, S. Hunt, J. This was reflected in the scientific works of foreign scientists such as Evans .

Among the CIS scientists in this field, it is worth noting T.V. Evstigneeva , B.V. Ilatovsky · V.D. Andre, V.V. Patrov , Scientific research was conducted by such scientists as M.V. Ryzhkova and A.K. Solodov.

scientists of our country M. Ikramov, Sh. Ergashkhodzhaeva, A. Soliev, M. Kasimova, M. Yusupov, A. Tillyakhodzhaev, N. Akbarov, O. Akhmedov, M. Yodgorov, M. Abdurakhmonova and others.

R. Dusmuratov, A. Pardaev, B. Khasanov, A. Khoshimov, M. Pardaev, B. Isroilov, R. Kholbekov, A. Karimov and others studied some aspects of management accounting problems.

Methodology

Market mechanisms implemented in the acceptance and sale of grain for the selected research topic are aimed primarily at ensuring food security for our population and economic support for grain producers. As a result of reforms implemented in our country, the state no longer sets the price of grain and flour products on the market; it is determined by market demand itself. At the same time, our country's primary goal is to increase supply. To achieve this, more entrepreneurs are finding their place in the market economy, participating in exchange activities, freely selling their products, and reducing their costs. If supply exceeds demand, price stability is ensured and a healthy competitive environment is formed [3].

Discussion and results

In 2025, an international project was launched to stabilize grain (wheat) prices in Uzbekistan.

The Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), the Islamic Trade Finance Corporation (ITFC) and the State Agricultural Support Fund are participating in this project.

The main objectives of the project are: to create digital tools, an analytical mechanism and strengthen the institutional capacity of the fund; this will help to introduce an effective mechanism against price shocks.

Import and foreign trade trends

In 2023, Uzbekistan imported grain and flour products from Kazakhstan, and the total amount of imported flour and flour equivalent was 4.5 million tons.

This import burden may have affected the sup-





ply-demand balance in the domestic market, especially in the context of instability related to reserves and domestic production. Subsequently, based on exchange prices, an additional fee will be added to this price, which all farmers, peasants, and clusters will accept.

Currently, three large enterprises in the Namangan region are engaged in grain processing and the production of grain products. By 2024, it is planned to supply 22,155 tons of grain to the districts of JSC Namangandonmashavlori for grain production, including 1,440 tons for seed material, 17,304 tons for commercial grain, and 4,851 tons for temporary storage (for exchange sales). And 15,855 tons of grain to the Namangan region, including 3,220 tons for seed material, 9,868 tons for temporary storage (for exchange sales), and 2,767 tons for commercial grain. The entire volume of grain produced in the Kosansoisk and Yangikurgan districts will not be used for grain crops. This grain will be sent only for sale on the exchange as commercial grain and for sale.

The Uychi, Uchkurgan, Naryn, and Chartok districts supply grain products to Uchkurgan Bread Products JSC. Among these districts, Uchkurgan district is the largest grain supplier, having delivered 22,304 tons of grain according to plan. This means that 14,814 tons of grain were delivered for sale, 3,337 tons for seed, and 4,153 tons of wheat were in temporary storage (for exchange sales). Chartok district, which specializes in grain production, delivered 3,976 tons of grain according to plan, and 1,115 tons in temporary storage (for exchange sales), for a total of 5,091 tons of wheat.

The Papsky and Chustsky districts supply grain products to JSC Popdonmashaulotlari. The Papsky district is the largest supplier of grain to the company, delivering 19,063 tons of commercial grain, 1,270 tons of seed grain, and 5,344 tons of temporary storage grain (for sale on the exchange), for a total of 24,407 tons.

Price trend in stock exchanges.

The average exchange quotation for grade 3 mestal (local) wheat sold in Uzbekistan on stock exchanges in March-May 2024 is 2,988,434 soums/ton.

This indicator is a good reflection of the real market mechanism in stock exchanges.

International project aimed at stabilizing prices

In 2025, an international project was launched to stabilize grain (wheat) prices in Uzbekistan.

The Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), the Islamic Trade Finance Corporation (ITFC) and the State Agricultural Support Fund are participating in this project. It follows that in the Kosonsoy, Chartok and Yangikurgan districts, the sown area of violets has decreased, and their lands are being converted to horticulture. The largest grain-growing districts in the region are the Chust and Popsky districts, with a total sown area of over 10 thousand hectares.

Table 1

Grain production plan for the 2024 harvest in the Namangan region and districts[1]

No.	Fogs	Corn	Seed grain	Temporary storage (for sale on the exchange)	general
	JSC Namangandon Products				
1	Mingbulak	17304	1440	4851	22155
2	Namangan	9868	3220	2767	15855
3	Kosonsoy	11196	0	3139	14334
4	Turakurgan	10284	1575	2883	14742
5	Yangikurgan	4273	0	1198	5471
	Total number of enterprises	**52924**	**6235**	**14837**	**72557**
	JSC Uchkurgondon Products				
1	Homeowner	12766	3050	3579	19394
2	Uchkurgan	14814	3337	4153	22304
3	Naryn	8701	2202	2439	13343
4	Attic	3976	0	1115	5091
	Total number of enterprises	**40257**	**8589**	**11286**	**60132**
	Popdon Products OJSC				
1	Pop	19063	1270	5344	24407
2	Chust	17815	846	4994	23655
	Total number of enterprises	**36877**	**2116**	**10338**	**48061**
	The entire region	**130059**	**16940**	**36461**	**180750**

In 2018, seed material was not grown in the Mingbulak district in the region, and by 2024, its cultivation is not planned in the Yangikurgan, Chortak, and Kasansay districts; they are intended only for consumption and trade.

In the Mingbulak district, 64,600 tons of grain are planned to be grown on an area of 9,085 hectares; 63,824 tons have been harvested, 24,326 tons of commercial grain and 1,734 tons of seed grain have been sold to the state.

Table 2

Analysis of the market share of flour products producing entities in the Namangan region[2]

#	Market entities	2023		2024 years old		% from 2021 to 2020
		ton	share of total (%)	ton	share of total (%)	
1	JSC Uchkurgondon Products	64183	49.5	55645	42.9	86.6
2	«Popdon Products» JSC	20090	15.5	20100	15.5	100.0 1
3	JSC «Namangandon Products «	44554	34.4	52400	40.4	117.6
4	Individual entrepreneurship	100	0.1	200	0.2	200
5	Home Economics	100	0.1	100	0.1	100
6	Small business	536	0.4	1150	0.9	214.5
General:		129563	100	129595	100	100.02

Currently, enterprises in the region are implementing a range of measures to introduce modern energy-saving technologies into the production of flour products and provide consumers with high-quality and affordable products.

Particular attention is paid to the cultivation of grain crops on irrigated and dryland lands in the region, the use of modern agricultural technologies, increasing grain yields through agricultural measures, as well as the coordination of scientific research on the complex relationship «seed-grain-flour-bread and bakery products», and the selection of high-quality grain varieties for the production of bread and bakery products.

In the country, together with the Agency for State Assets Management, the sale of assets and shares of grain enterprises to investors is being organized based on decisions of the governing bodies of joint-stock companies that are part of the Uzdonmakhulot joint-stock company system.

To ensure that prices for flour and bakery products in the region match supply and demand, special attention is being paid to locating businesses in densely populated areas and organizing retail sales of bread

[1] Prepared based on data from the Namangan Regional Statistical Office.
[2] The author's calculations are based on data from the Namangan Regional Statistical Office.

and bakery products at the facility itself or in close proximity, based on operating hours aimed at fully meeting the daily needs of the population. Furthermore, targeted programs have been developed to establish specialized retail outlets for bread and bakery producers in farmers' markets and densely populated areas to sell a wide range of bread and bakery products.

The Ministry of Economy and Industry exercises daily control over the balance of the volume of flour placed on the exchange market using state resources, based on the supply and demand of wheat in the domestic consumer market.

The Antimonopoly Committee, in conjunction with the Republican Commodity Exchange, will implement a separate trading platform within the electronic exchange trading system for grain and flour products, including farm holdings, as well as imported grain and flour products. This will allow for market pricing of flour and flour products to be based on supply and demand.

Conclusion

1. Exchange trades and price trends for 2023–2024 show that real market mechanisms are being introduced in the grain market in Uzbekistan, and price formation is becoming more sensitive to market demand and supply. At the same time, measures are being taken by state and international institutions to stabilize the domestic market. These reforms serve to fully involve farms and clusters in the market, as well as improve grain reserves and food security.

2. Price formation in the grain market is highly dependent on regional factors in the Namangan region. Analysis shows that grain production processes in the region are shaped by factors such as water resources, land productivity, the level of agricultural technology, and the economic capabilities of farms. Therefore, price dynamics depend not only on the market mechanism at the national level, but also on local production costs.

3. The introduction of exchange trading has increased price transparency and the effectiveness of market mechanisms. After 2022, the sale of grain products through the exchange has also increased the practical transparency of price determination in the Namangan region. Exchange quotes reflect real prices based on supply and demand, which has increased the opportunity for farmers to enter the market on equal terms. At the same time, increased trade competition serves to stabilize prices.

4. Price volatility is increasing the impact of seasonal factors and logistics costs. Due to the relative remoteness of Namangan region from the centers of the republic and the lack of modern grain processing and transportation infrastructure, logistics costs have a significant impact on price formation. Cyclical changes are observed, during the seasonal harvest period, an increase in supply leads to a decrease in prices, and in the winter and spring months, an increase in prices.

5. State market regulation mechanisms play an important role in ensuring price stability. Import operations, reserve formation, credit and subsidy mechanisms serve to smooth out sharp fluctuations in grain prices in Namangan region. In particular, the management of strategic reserves and monitoring of exchange trades are important factors in reducing price shocks.

6. Digital monitoring, modernization of infrastructure, and strengthening the economic potential of farms are necessary for the development of the grain market. According to the analysis, in order to ensure a stable price policy in Namangan region, it is important to improve logistics networks, modernize storage warehouses, widely use electronic trading platforms, and transfer farmers to business models that meet market requirements. These factors ensure the fair formation of grain prices and the stability of the agrarian economy of the region.

References

1. Law of the Republic of Uzbekistan dated April 13, 2016 No. 404 "On Amendments and Additions to the Law "On Accounting".

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. UF-4947 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan".

3. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 284 of May 30, 2022 «On measures for the widespread implementation of market principles in the purchase and sale of wheat of the 2022 harvest.»

4. Dusmuratov R.D. Accounting Theory. 2013.;

5. Pardaev A.Kh. Management accounting. 2014.;

6. Gasanov B.A., Gashimov A.A. Management accounting. 2013.;

7. Israilov B., Kholbekov R. Accounting Theory 2020 textbook;

8. Karimov A.A. et al. Accounting information systems. Study guide. 2018.

9. www.stat.uz .- State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.

10. Ergashkhodjaeva Sh.Zh. Marketing management. Textbook. – T.: TDIU, 2018. – 324 p.; Soliev A. Marketing.

11. Marketing. - T.: ART-FLEX, 2008. -384 p.;

12. Ergashkhodzhaeva Sh.Zh., Kosimova M.S., Yusupov M.A. “Fundamentals of Marketing” Tashkent “Economics” 2019;

13. Tilyakhodzhaev A.A., Yusupov M.A., Akbarov N.G. «Marketing»

14. Textbook Tashkent - Economics - 2019.;

15. Ergashkhodzhaeva Sh.D., Yusupov M., Khakimov Z., Abdurakhmanova M

16. «Marketing of Goods and Services.» Study Guide, Vol. 2019.

Sabirov Xasan Nusratovich
Xalqaro Nordik universiteti
Iqtisodiyot va biznesni boshqarish
kafedrasi mudiri, i.f.f.d.(PhD) dotsent



ORCID: 0000-0002-9632-4311

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda davlat-xususiy sherikligi (DXSh) mexanizmining sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishdagi o‘rni, uning iqtisodiy samaradorligi hamda O‘zbekiston uchun strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba asosida DXSh modellari, risklarni taqsimlash tamoyillari, institutsional salohiyat, monitoring va shaffoflik mexanizmlarining ta’siri o‘rganilib, Osiyo va ECA mintaqalari misolida 2024-yil investitsiyalari va loyihalar soni bo‘yicha aniq statistik ko‘rsatkichlar solishtiriladi. Tadqiqot O‘zbekiston sanoati uchun DXShning energetika, sanoat zonalari, logistika va ishlab chiqarish klasterlarida qo‘llanish imkoniyatlarini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va samaradorlikni oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishni maqsad qiladi. Natijalar DXShning raqobatbardosh sanoatni shakllantirish, investitsion muhitni yaxshilash va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlariga erishishdagi muhim vosita ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sherikligi (DXSh), sanoat tarmoqlari, investitsiya loyihalari, ECA mintaqasi, Osiyo mamlakatlari, sanoat zonalari, texnoparklar, logistika infratuzilmasi, risklarni taqsimlash, monitoring tizimi, innovatsion rivojlanish, energetika loyihalari, xalqaro tajriba, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o‘rinlarini barpo etish masalalari har bir davlatning ustuvor strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat tarmog‘ining barqaror yuksalishi milliy iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu asnoda, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, keng ko‘lamdagi investetsiya kiritish va ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik – ya’ni davlat-xususiy sherikligi (DXS) mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.



Davlat-xususiy sherikligi mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida, xususan, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, energetika, infratuzilma va sanoat tarmoqlarida keng qo‘llanilib, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishda tayanch vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu mexanizm orqali davlat o‘z zimmasidagi moliyaviy yukni kamaytirish bilan birga, xususiy sektorning innovatsion yondashuvlarini, ilg‘or texnologiyalarini va boshqaruv tajribasini iqtisodiyotga jalb etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sherikligi asosida tashkil etilgan sanoat zonalari va korxonalari mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda, eksport salohiyatini kengaytirishda hamda texnologik yangilanishni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Masalan, Singapur va Xitoy hamkorligidagi Suzhou Industrial Park, Bolgariyadagi Trakia Economic Zone, hamda Daniyadagi Kalundborg Eco-Industrial Park kabi loyihalar davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning muvaffaqiyatli namunalari sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston ham jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida faol ishtirok etar ekan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashni o‘zining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Mazkur strategiyada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirishga, jumladan, yangi sanoat zonalari va klasterlar tashkil etishga, ishlab chiqarish infratuzilmasini yangilashga, hamda xususiy sarmoyalarni faol jalb etishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish, sanoat korxonalarini DXSh asosida rivojlantirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR SHARXI

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) iqtisodiyotda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik shakli bo‘lib, resurslar, risklar va foydaning adolatli taqsimlanishini nazarda tutadi. Jahon banki ta’rifiga ko‘ra, DXSh “infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarda davlat va xususiy sektor o‘rtasida risklar va javobgarlikni taqsimlovchi strategik hamkorlik” sifatida e’tirof etiladi[1].

DXSh samaradorligini belgilovchi uch asosiy shartni ajratib ko‘rsatadilar[2]:

1. Davlatning aniq strategik maqsadlari mavjudligi;
2. Xususiy sektorning innovatsion salohiyatidan foydalanish;
3. Huquqiy va moliyaviy shaffoflikni ta’minlash.

DXSh asosida davlat byudjeti yukini kamaytirish bilan birga, ishlab chiqarish infratuzilmasiga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish imkoniyati yaratiladi. Shu bois, bu model barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi[3].

Xalqaro tajriba esa DXSh mexanizmi sanoatni modernizatsiya qilish, keng investetsiya kiritish va innovatsion rivojlanishda muhim o‘rin tutishini o‘z amaliyotida isbotlab turibdi. Masalan, Janubiy Koreyada “Private Investment Infrastructure Act” doirasida DXSh loyihalari asosida sanoat infratuzilmasi, texnoparklar va eksport klasterlari barpo etilgan. Bu jarayon mamlakatda texnologik rivojlanish va eksport ulushining ortishiga olib kelgan[4].

Sanoat tarmoqlarida DXSh modelining ahamiyati ko‘plab xorijiy tadqiqotlarda o‘rganib chiqishgan. Bulardan Hodge va Greve tadqiqotlarida DXSh modelini

“davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi iqtisodiy sheriklikning yangi modeli” sifatida ta’riflab, bu model sanoat infratuzilmasi, energetika va transport sohalarida eng samarali natijalarni berganini qayd etishgan[5].

Xalqaro tajribaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda DXSh modeli texnologik modernizatsiya, investitsiyalarni va energiya samaradorligini oshirish hamda resurslarni birgalikda boshqarish orqali katta natijalarga erishib kelinmoqda. Masalan, Daniyadagi “Kalundborg Eco-Industrial Park” loyihasida turli sanoat korxonalari o‘zaro chiqindi va energiya oqimlarini almashish orqali 25 foizgacha xarajatlarni qisqartirishga erishgan[6].

Shuningdek, Singapur va Xitoy hamkorligida tashkil etilgan “Suzhou Industrial Park” loyihasi ham DXSh modelining muvaffaqiyatli namunasi sifatida ko‘riladi. Ushbu loyiha orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish hamda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga erishilgan[7].

Turkiya mamlakati tajribasida esa DXSh modeli energetika, transport va farmatsevtika sohalarida keng qo‘llanilgan. Shu orqali mamlakat sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirib, raqobatbardosh eksportchi davlatlar qatoriga kirgan[8].

Xitoyda esa “PPP + Innovation” modeli asosida sanoat zonalariga davlat tomonidan yer va infratuzilma taqdim etilib, xususiy sektor ishlab chiqarish, logistika va texnologik yechimlarni joriy etgan. Bu natijada 2015–2022 yillar oralig‘ida xususiy investitsiyalar hajmini 40 % ga oshirishga olib kelgan[9].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa DXSh modellari raqamli sanoat, qayta tiklanuvchi energiya va yashil texnologiyalar tarmoqlarida keng joriy etilmoqda[10].


METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini davlat-xususiy sherikligi (DXSh) mexanizmini sanoat tarmoqlarida qo‘llash jarayonini tizimli yondashuv asosida o‘rganishga xizmat qiluvchi zamonaviy ilmiy usullar tashkil etadi. Avvalo, DXShning nazariy asoslari, tamoyillari hamda xalqaro tajribada shakllangan modellari iqtisodiy tahlil, komparativ (taqqoslamali) tahlil, institutsional tahlil va funksional yondashuvlar yordamida o‘rganildi. Shuningdek, DXShning samaradorligini aniqlovchi omillar — huquqiy barqarorlik, risklarni taqsimlash, monitoring tizimlari va institutsional salohiyat — konseptual model sifatida tahlil qilindi.

Empirik qismda tadqiqot World Bank’ning Private Participation in Infrastructure (PPI) ma’lumotlari, ECA va Osiyo mamlakatlaridagi 2024-yil DXSh loyihalari soni va investitsiya hajmlari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar, shuningdek O‘zbekistonning milliy iqtisodiy hisobotlari asosida amalga oshirildi. Ma’lumotlar ustida statistik tahlil, dinamika tahlili, mintaqaviy taqqoslash, sanoat sektorlari kesimidagi strukturaviy tahlil va tendensiyalarni baholash usullaridan foydalanildi. Grafikli tahlil, integratsion yondashuv va iqtisodiy mantiqiy modellashtirish DXShning sanoat tarmoqlariga ta’sirini chuqur o‘rganishga imkon berdi.

TADQIQOT NATIJASI

Xorijiy amaliyotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki: DXSh modeli samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar mavjudligidir(1-rasm).



1-rasm. DXSh modelining samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar[11]

DXSh (davlat-xususiy sherikligi) modelining samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar ketmaketlik asosida tasvirlangan bo‘lib, ular DXSh loyihalarining konseptual bosqichdan amalga oshirish va monitoring jarayonigacha bo‘lgan to‘liq siklni qamrab oladi. Bosqichlarning eng pastki qismida aniq huquqiy bazaning mavjudligi joylashgan bo‘lib, bu DXSh mexanizmi samaradorligining boshlang‘ich sharti ekanini anglatadi. Huquqiy me’yorlar aniq bo‘lmagan taqdirda xususiy sektorning ishonchi past bo‘ladi va investorlar uchun moliyaviy xavflar ortadi. Keyingi bosqichda risk va foydaning o‘zaro teng taqsimlanishi turib, bu DXShning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor o‘rtasida risklar adolatli taqsimlanmaganda loyihalar muddati uzayishi yoki investorlarga qiziqish pasayishi kuzatiladi.

Navbatdagi yuqori bosqichda loyihalar monitoringi va shaffof hisobdorlik tizimi joylashgan bo‘lib, bu omil DXSh loyihalarining to‘g‘ri amalga oshirilishi, moliyaviy oqimlar nazorati va kutilgan natijalarning o‘z vaqtida ta’minlanishini kafolatlaydi. Eng yuqori pog‘onada esa malakali kadrlar va institutsional salohiyatning yetarliligi turibdi. Bu omil DXSh mexanizmini boshqarish, texnik-iqtisodiy asoslash hujjatlarini sifatli tayyorlash,



muzokaralar olib borish va murakkab shartnomalarni boshqarish uchun zarur resursni anglatadi. Demak, rasm DXSh samaradorligi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tizimli omillar majmuasi asosida shakllanishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini faol rivojlantirmoqda. 2019-yilda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ–537) ushbu sohada huquqiy asoslarni yaratdi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida esa mamlakat sanoatini “raqobatbardosh, texnologik va eksportga yo‘naltirilgan” tizimga aylantirish maqsadi belgilangan[12]. Strategiyada DXSh mexanizmlarini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda ko‘zda tutilgan:

yangi sanoat zonalari va klasterlarni barpo etish;

ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

yashil texnologiyalarni joriy etish;

xususiy sarmoyalarni jalb etish va investitsiya muhitini yaxshilash.

Masalan, “Yangi O‘zbekiston sanoat zonalari” dasturi doirasida davlat tomonidan yer, kommunikatsiya va infratuzilma ta’minlanmoqda, xususiy investorlar esa ishlab chiqarish, texnologiya va boshqaruvni olib borishmoqda[13].

O‘zbekiston Respublikasida DXSh masalalari bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar so‘nggi yillarda faollashdi. Xususan, I.Abdurahmonov o‘z tadqiqotida O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklikni joriy etishdagi asosiy muammolar – huquqiy mexanizmlarning takomillashtirilmaganligi, investorlar uchun kafolatlarning yetarli emasligi va loyihalar monitoringining sustligini qayd etgan[14].

Bundan tashqari, M.Rasulov DXSh modelini sanoat zonalarini rivojlantirishda qo‘llash bo‘yicha takliflar berib, xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirishning dolzarbligini ta’kidlaydi[15].

Davlat-xususiy sherikligi (DXSh) asosida sanoat korxonalarini rivojlantirish borasida xorij mamlakatlari tajribasi tahlilini amalaga oshirish natijasida, DXSh mexanizmlarining qo‘llanilish darajasi, ularning sanoat tarmoqlariga ta’siri, investorlar uchun yaratilgan sharoitlar, rentabellik darajalari hamda loyihalarning iqtisodiy samaradorligi yuzasidan xalqaro statistik ma’lumotlar asosida solishtirmali natijalar keltiriladi.

1-jadval


Dunyo mintaqalar bo‘yicha DXSh investitsiyalari (2024-yil)[1]

Mintaqa / Hudud	DXSh investitsiyalari hajmi (mln AQSH dollar)
East Asia va Pacific (EAP)	**56,959**
Europe va Central Asia (ECA)	**7,748**
Latin America va Caribbean (LAC)	**21,865**
Middle East va North Africa (MENA)	**491**
South Asia (SAR)	**5,724**
SubSaharan Africa (SSA)	**7,918**

[1] https://ppi.worldbank.org/content/dam/PPI/documents/PPI_2024_Annual_Report.pdf

2024-yil uchun dunyo mintaqalari bo‘yicha DXSh investitsiyalari taqqoslanganda, eng yuqori ko‘rsatkich East Asia va Pacific (EAP) mintaqasiga to‘g‘ri kelgani ko‘rinadi. Ushbu hudud 56,959 mln AQSh dollarlik investitsiyalar bilan global bozorning asosiy qismini egallagan bo‘lib, EAPdagi iqtisodiy o‘sish sur’ati, infratuzilmani modernizatsiya qilishga bo‘lgan ehtiyoj va xususiy sektor bilan hamkorlikning faol yo‘lga qo‘yilgani ushbu natijaning asosiy omillaridan biridir. Latin America va Caribbean (LAC) hududi 21,865 mln dollarlik ko‘rsatkich bilan ikkinchi o‘rinda turib, yillardan beri DXSh modeli asosida amalga oshirilayotgan transport va energetika loyihalari tufayli yuqori o‘rinlarni saqlab qolmoqda. ECA, SSA va SAR mintaqalari esa o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, mos ravishda 7,748 mln, 7,918 mln va 5,724 mln dollarlik natijalar bilan global investitsiya oqimida barqaror ishtirok etmoqda.

Shu bilan birga, mintaqalar o‘rtasidagi keskin tafovutlar DXSh investitsiyalarida siyosiy barqarorlik, infratuzilma darajasi, moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi va xususiy sektor uchun yaratilgan kafolatlarning ahamiyatini namoyon etadi. Ayniqsa, Middle East va North Africa (MENA) mintaqasida DXSh investitsiyalarining atigi 491 mln dollarga teng bo‘lishi hududdagi geosiyosiy beqarorlik va institutsional cheklovlar DXSh modellarining samarasiz ishlashiga olib kelayotganini ko‘rsatadi. Umuman, mintaqalar bo‘yicha taqqoslash shuni anglatadiki, global DXSh modeli faoliyati iqtisodiy va institutsional rivojlanishning turlicha darajalariga bevosita bog‘liq bo‘lib, Osiyo va Lotin Amerikasi mintaqalari bu borada sezilarli ustunlikka ega bo‘lib qolmoqda.



Tahlillar davomida Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Germaniya va Qozog‘iston kabi DXSh tajribasi shakllangan mamlakatlar misolida sanoat sektoridagi loyihalar soni, ularning ulushi va o‘rtacha daromadliligi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Tahlillar asosida ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi, samaradorlik omillari va har bir mamlakatda qo‘llanilayotgan yondashuvlarning o‘ziga xos afzalliklari yoritildi.

2-jadval

Sanoat sektorlari bo‘yicha DXSh ulushi (2024-yil uchun global baholash)[2]

Sektor	Ulushi (%)
Energetika (sanoatga yo‘naltirilgan)	35%
Ishlab chiqarish (manufacturing)	28%
Sanoat zonalari / SEZ / texnoparklar	14%
Logistika va omborxona infrasi	12%
Suv va chiqindi qayta ishlash	11%

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2024-yilda sanoat sohasiga yo‘naltirilgan DXSh loyihalarining eng katta ulushi energetika sektoriga (ulushi-35%) to‘g‘ri keladi. Bu sohada, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga talabning ortishi, ishlab chiqarish korxonalarining energiya ta’minotini modernizatsiya qilish ehtiyoji va xususiy investorlar uchun kafolatlangan xarid mexanizmlarining mavjudligi asosiy omil bo‘ldi. Energetikadan keyingi yirik yo‘nalish – ishlab chiqarish sektoridir. Bu ulushning yuqoriligi rivojlangan mamlakatlarda sanoat klasterlari, texnologik qayta jihozlash dasturlari va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlariga bo‘lgan ehtiyoj bilan izohlanadi. Mazkur ikki sektorning yuqori salmog‘i DXSh modeli sanoatning asosiy drayverlarini qo‘llab-quvvatlayotganini ko‘rsatadi.

Sanoat zonalari, maxsus iqtisodiy zonalar (SEZ) va texnoparklar 14% ulush bilan umumiy strukturada muhim o‘rin egallaydi. Bunday zonalarning tez kengayishi xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlari, yer infratuzilmasi va boshqaruvning soddalashtirilgan mexanizmlaridan iborat qulay sharoitlar bilan bog‘liq. Logistika va omborxona infratuzilmasi ham sanoatning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, xususiy sektor uchun investitsion jozibador soha sifatida shakllanmoqda. Suv va chiqindi qayta ishlash sektori ulushining nisbatan pastroq bo‘lishiga qaramay, sanoatning ekologik barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Umuman olganda, jadval sanoatga yo‘naltirilgan DXSh investitsiyalari tarkibi texnologik modernizatsiya, yashil energiya va logistika tizimlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi.

[2] https://ppi.worldbank.org/content/dam/PPI/documents/PPI-2024-Annual-Report-Interactive.pdf

3-jadval

Osiyo mamlakat(Europe va Central Asia)larida DXSh investetsiyalar miqdori va loyihalar soni (2024 yil)[3]

Mamlakat	Investitsiyalari hajmi (mln AQSH dollar)	loyihalar soni
Turkiya	3654	10
O‘zbekiston	1201	8
Ozarbajon	1024	3
Qozoqiston	610	2
Serbiya	405	3
Bolgariya	377	6
Gruziya	261	4
Qirg‘iz Respublikasi	218	2

Osiyo qismida joylashgan ECA (Europe & Central Asia) mamlakatlari orasida DXSh investitsiyalari eng yuqori ko‘rsatkich Turkiyada kuzatilgan bo‘lib, ushbu davlatning yuqori ko‘rsatkichlari energetika, transport infratuzilmasi va kommunal xizmatlar sohalarida yirik xususiy sheriklik loyihalarining ko‘pligi bilan izohlanadi. Ikkinchi o‘rinni O‘zbekiston egallab, mamlakat qayta tiklanuvchi energiya, issiqlik elektr stansiyalari va infratuzilma modernizatsiyasi bo‘yicha DXSh loyihalari so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Ozarbayjon va Qozog‘iston ham DXSh bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ularning loyihalari asosan energetika va transport tarmoqlariga to‘g‘ri keladi.

Qolgan davlatlar — Serbiya, Bolgariya, Gruziya va Qirg‘iz Respublikasi — investitsiya hajmi va loyiha soni bo‘yicha mintaqaning o‘rtacha yoki past darajadagi ishtirokchilaridir. Masalan, Bolgariya 6 ta loyiha bilan faol bo‘lsa-da, investitsiya hajmi nisbatan kichik (377 mln dollar), bu mamlakatning ko‘proq mayda infratuzilma loyihalariga e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi. Gruziya va Qirg‘iziston esa 2–4 ta loyihalar bilan mintaqaviy statistikaning pastki qismida joylashgan. Umuman olganda, 3-jadval shuni ko‘rsatadiki, mintaqa bo‘yicha DXSh investitsiyalarining taqsimoti ma’lum darajada notekis, bunda iqtisodiy rivojlanish darajasi, tartibga soluvchi institutsional mexanizmlar yetukligi va xususiy sektor uchun yaratilgan imkoniyatlar asosiy farqlovchi omillardir.

TADQIQOT MUHOKAMASI

Mazkur tahlil natijalari O‘zbekiston uchun ham davlat-xususiy sherikligi (DXSh) mexanizmlarini sanoat korxonalariga samarali tatbiq etishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribada shakllangan ilg‘or yondashuvlar DXSh loyihalarini rejalashtirish, moliyalashtirish va boshqarishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan universal tamoyillarni namoyon etadi. Bu esa O‘zbekistonda sanoatni modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish hamda yuqori qo‘shimcha qiymatga ega ishlab chiqarishlarni rivojlantirish imkoniyatlarini baholashda asosiy metodik yo‘nalish vazifasini o‘taydi.

Yuqoridagi adabiyotlar va statistik ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, DXSh modeli sanoat korxonalarini rivojlantirishda bir qator ijobiy ustunliklarga ega. Jumladan, u moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, innovatsion boshqaruv va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, davlat resurslaridan samarali foydalanishni kuchaytirish kabi omillarni ta’minlaydi. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy noaniqlik, risklarni noto‘g‘ri taqsimlash va shaffoflikning yetarli darajada ta’minlanmagani kabi omillar loyihalarning muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun DXShning institutsional asoslarini mustahkamlash jarayonida ushbu omillarni bartaraf etish muhim hisoblanadi.

Amalga oshirilgan baholashlar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi: birinchidan, DXSh modeli O‘zbekiston sanoatini modernizatsiya qilishda samarali mexanizm bo‘lib, davlatning strategik maqsadlarini xususiy sektorning moliyaviy va boshqaruv resurslari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ikkinchidan, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, DXShning yuqori samaradorligi huquqiy barqarorlik, risklarni adolatli taqsimlash, investorlarga kafolatlangan sharoit yaratish va monitoring tizimining shaffofligi bilan bevosita bog‘liqdir. Uchinchidan, O‘zbekistonda DXSh asosida sanoat zonalari, logistika markazlari va texnoparklar barpo etilishi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan to‘liq uyg‘un bo‘lib, raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiyot shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, DXSh modeli sanoat korxonalarining energiya tejamkorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Biroq ushbu mexanizmning to‘liq samaraga erishishi uchun DXSh loyihalarini baholash tizimini takomillashtirish, xususiy sarmoyadorlar uchun kafolatlar va qo‘llab-quvvatlov mexanizmlarini kuchaytirish, shu-

[3] https://ppi.worldbank.org/content/dam/PPI/documents/PPI-2024-Annual-Report-Interactive.pdf

ningdek xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish zarur. DXSh modeli O‘zbekistonda sanoatni raqamlashtirish, yashil texnologiyalarni joriy etish va innovatsion ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish jarayonlarida strategik ahamiyat kasb etadi[16].

Demak, davlat-xususiy sheriklik asosida sanoat korxonalarini rivojlantirish “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlari – ya’ni raqobatbardosh, innovatsion va barqaror sanoat iqtisodiyotini shakllantirish – uchun asosiy drayverlardan biridir. Shu bois, O‘zbekistonda DXSh mexanizmlarini yanada takomillashtirish, huquqiy asoslarini mustahkamlash va xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish milliy iqtisodiyot barqarorligiga xizmat qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda, xususan, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim mexanizm sifatida e’tirof etiladi. Jahon amaliyotida – xususan, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi tajribalarida – DXS modeli orqali infratuzilma va sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga erishilgan.

O‘zbekiston sharoitida esa DXSh modellarining joriy etilishi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari – raqobatbardosh iqtisodiyot, barqaror sanoat, yashil texnologiyalar va xususiy sarmoyani keng jalb etish — bilan uzviy bog‘liqdir. Natijada, DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar mamlakatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, energiyatejamkor texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy iqtisodiy tenglikni ta’minlash imkonini bermoqda.

Shunday qilib, DXSh modeli O‘zbekistonning sanoat siyosatini modernizatsiya qilish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘lida asosiy drayverlardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi zamonaviy iqtisodiyotda, xususan sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va innovatsion ishlab chiqarishlarni rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribalar – Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari hamda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi amaliyotlar – DXSh modeli orqali infratuzilma, energetika, sanoat zonalari va ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish bo‘yicha yuqori samaradorlikka erishilganini tasdiqlaydi. Jahon banki ma’lumotlari asosida 2024-yil mintaqalar kesimida investitsiya oqimlari, shuningdek ECA mamlakatlarida DXSh loyihalari soni va hajmi bo‘yicha olib borilgan tahlillar modelning institutsional barqarorlik, risklarni adolatli taqsimlash, shaffof monitoring va professional boshqaruv kabi omillar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida DXSh mexanizmlarining rivojlanishi sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda qabul qilingan huquqiy asoslar, sanoat zonalarini barpo etish bo‘yicha tashabbuslar, energiya samaradorligi va transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha DXSh loyihalari mazkur yo‘nalishda sezilarli natijalarga erishilayotganini ko‘rsatadi. Biroq, modelning to‘liq samara berishi uchun institutsional salohiyatni oshirish, monitoring mexanizmlarini kuchaytirish, investorlar uchun kafolatlar tizimini takomillashtirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish zarur. Shu bois DXSh modeli O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va sanoat sektorining raqobatbardoshligini ta’minlashda asosiy drayverlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. World Bank. (2017). PPP Knowledge Lab: Public-Private Partnerships Explained.

2. Grimsey, R., & Lewis, M. (2002). Evaluating the Risks of Public Private Partnerships. Elsevier.

3. Spackman, P. (2004). Public Policy and Management Review.

4. Asian Development Bank (ADB). (2018). PPP Infrastructure Projects: Case Studies in the Republic of Korea.

5. Hodge, G., & Greve, C. (2007). Public–Private Partnerships: An International Performance Review. Public Administration Review, 67(3), 545–558

6. Chertow, M. R. (2000). Industrial symbiosis: Literature and taxonomy. Annual Review of Energy and the Environment, 25, 313–337. https://doi.org/10.1146/annurev.energy.25.1.313

7. Yeung, H. W. (2001). Between Limits and Margins: State, Globalisation and ‘Integrated’ Economic Zones in Singapore and China. Environment and Planning A, 33(12), 2179–2198

8. OECD. (2020). Public-Private Partnerships in Turkey: Policy Review.

9. IMF Working Paper. (2022). PPP and Infrastructure Investment in China.

10. European Commission. (2021). Green PPP Framework Report.

11. OECD. (2020). Public-Private Partnerships in Turkey: Policy Review.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. www.gov.uz

13. Eurasian Research Institute. (2023). Industrial Policy of Uzbekistan.

14. Abdurahmonov, I. (2020). O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot va ta’lim jurnali, 4(3), 56–62

15. Rasulov, M. (2021). Davlat-xususiy sheriklik asosida sanoat zonalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Toshkent: TDIU nashriyoti

16. Greenuniversity.uz (2024). Uzbekistan 2030 Strategy: A Step towards a Green Future.

Mamatqulov Bekzod Akmalovich
Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi
mustaqil tadqiqotchisi



ORCID:0009-0004-2019-222X

IQTISODIY JARAYONLARNI DAVLAT TOMONIDAN BOSHQARISH SAMARADORLIGINING MOHIYATI VA ILMIY-NAZARIY TALQINLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan boshqarish samaradorligining nazariy asoslari, ularning mohiyati hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining ilmiy talqinlari tahlil qilinadi. Unda davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o‘rni, strategik rejalashtirish, fiskal va monetar siyosat vositalari, shuningdek, raqamli boshqaruv, innovatsion yondashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi funksiyalari yoritiladi. Tadqiqotda O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratilib, iqtisodiy jarayonlarni tizimli boshqarishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, iqtisodiy jarayonlar, boshqaruv samaradorligi, fiskal siyosat, monetar siyosat, strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv, raqamli iqtisodiyot, O‘zbekiston–2030 strategiyasi.

Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan samarali boshqarish masalasi har bir mamlakat uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyotidagi o‘zgaruvchanlik, raqobatning kuchayishi, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash zarurati davlatning iqtisodiy siyosatdagi faol rolini yanada kuchaytirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, barqaror o‘sishi va aholi farovonligini ta’minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.



Mazkur tadqiqotning ahamiyati shundaki, davlatning iqtisodiy jarayonlardagi tartibga soluvchi funksiyalari — fiskal, monetar, investitsion va ijtimoiy siyosatlar orqali makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash imkonini beradi. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, davlat boshqaruv tizimini soddalashtirish va raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish vazifalari ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Tadqiqotning maqsadi — iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan boshqarish samaradorligining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, mavjud boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo‘llarini belgilashdan iborat. Shu bilan birga, tadqiqot vazifalariga boshqaruv samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish hamda uni O‘zbekiston iqtisodiyotining milliy xususiyatlariga moslashtirish kiradi.

Adabiyotlar tahlili

Mahalliy tadqiqotlardan biri — N. Djurayev “O‘zbekiston davlat boshqaruvi samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish yo‘llari”[1] nomli tadqiqotida davlat boshqaruvining samaradorligi mezonlarini aniqlash, amaliy indikatorlar va taklif etilgan mexanizmlar orqali O‘zbekistonda boshqaruv sifatini oshirish yo‘llarini ko‘rib chiqadi.

Ikkinchi mahalliy tadqiqot sifatida Sh.Jurayev, “Konstitutsiyaviy huquq: O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tizimi va davlat boshqaruvi”[2] nomli maqola keltirilishi mumkin bo‘lib, unda respublikamizda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar va boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha strategiyalar tahlil qilinadi.

Xorijiy tadqiqotchilar sifatida C. Chrysanthakopoulos va hamkasblari “The macroeconomic effects of public sector efficiency”[3] nomli maqolasida davlat sektorining samaradorligi va uning makroiqtisodiy o‘sish, davlat qarzi va mehnat bozoriga ta’siri o‘rganilgan. Mualliflar samarali davlat boshqaruvi davlat qarzining barqarorligini yaxshilash, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy barqarorlik va o‘sishni ta’minlashi mumkinligini ta’kidlashadi.

Shuningdek, A. Afonso (2024) “Public Sector Efficiency and the Functions of the Government”[4] nomli tadqiqotida davlat xarajatlari va davlatning funksiyalari doirasida samaradorlikni baholash va resurslarni taqsimlash mexanizmlari masalalari ko‘rib chiqilgan. Mualliflar davlat sektorining samaradorligi davlat xizmati sifatini oshirish, byudjet resurslarini optimal yo‘naltirish va iqtisodiy siyosatning barqarorligini ta’minlash jihatidan muhim omil ekanini dalillashga harakat qiladilar.

Metodologiya

Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan boshqarish samaradorligini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda tizimli yondashuv, tahliliy, qiyosiy

[1] S.Saidov, Davlat boshqaruvi samaradorligini baholash //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. Special Issue 2. – C. 727-729.

[2] Sh.Jurayev, Konstitutsiyaviy huquq: O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tizimi va davlat boshqaruvi //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2025. – T. 4. – №. 45. – C. 18-23.


[3] Chrysanthakopoulos C. et al. The macroeconomic effects of public sector efficiency in advanced economies //International Economics. – 2025. – C. 100600.

[4] Afonso A., Alves J., Bazah N. Public Sector Efficiency and the Functions of the Government. – CESifo Working Paper, 2024. – №. 11487.



va induktiv-deduktiv metodlar qo‘llanilgan. Tizimli yondashuv orqali boshqaruv samaradorligi iqtisodiy siyosat, institutsional islohotlar va raqamli boshqaruv elementlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida xorijiy mamlakatlar tajribasi O‘zbekiston amaliyoti bilan solishtirilib, milliy boshqaruv modelining ustun va zaif tomonlari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va davlat siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi hamda “O‘zbekiston–2030” strategiyasi maqsadlari bilan uyg‘un metodologik asos ishlab chiqildi.

Davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligining asosiy yondashuvlarini tahlil qilganda, eng avvalo klassik iqtisodiy maktabning qarashlarini ko‘rib chiqish lozim. Klassik yondashuvning mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyot o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tizim sifatida qaraladi va bunda davlatning roli juda minimal darajada bo‘lishi kerak. Adam Smit tomonidan ilgari surilgan “ko‘rinmas qo‘l” nazariyasiga ko‘ra, bozor mexanizmlari resurslarni samarali taqsimlaydi, narxlar talab va taklif asosida shakllanadi hamda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘z manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritgan holda butun jamiyat farovonligini oshiradi. Bu yondashuvning samaradorligi erkin raqobatning mavjudligida, davlat aralashuvining kamligi hamda iqtisodiy erkinlikning keng bo‘lishida namoyon bo‘ladi.



1-rasm. Davlat iqtisodiy boshqaruvi uchun asosli yondashuvlar.[5]

Lekin, amalda bu yondashuv jiddiy kamchiliklarga ega bo‘ldi: bozor o‘z-o‘zini har doim ham samarali tartibga sola olmadi, monopoliyalarning paydo bo‘lishi, ijtimoiy tengsizlikning ortishi va iqtisodiy inqirozlarning chuqurlashishi kuzatildi. Ayniqsa XIX asr oxirida va XX asr boshida kuchaygan monopoliyalashuv va 1929–1933-yillardagi Buyuk Depressiya klassik qarashlarning yetishmovchiliklarini yaqqol namoyon qildi.

[5] Muallif ishlanmasi.

Jadval 1.

Davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligining asosiy yondashuvlari[6]

Yondashuv nomi	Asosiy g‘oya	Samaradorlik mezonlari	Afzalliklari	Kamchiliklari	Amaliy misollar
Klassik yondashuv	Bozor “ko‘rinmas qo‘l” orqali o‘zini o‘zi tartibga soladi, davlat minimal rol o‘ynashi kerak.	Erkin raqobat, resurslarning samarali taqsimlanishi, davlat aralashuvining kamayishi.	Bozor erkinligini ta’minlaydi, tadbirkorlikni rag‘batlantiradi.	Inqiroz va monopoliyalarni nazorat qila olmaydi, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.	XVIII–XIX asr G‘arb davlatlari, erkin bozor siyosati.
Keynsiy yondashuv	Davlat iqtisodiy sikllarni tartibga solishda faol bo‘lishi kerak.	Ishsizlikning kamayishi, ishlab chiqarish hajmining o‘sishi, davlat investitsiyalari orqali talabni rag‘batlantirish.	Inqirozlarni yumshatadi, bandlikni oshiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.	Davlat qarzlarining ko‘payishi, inflyatsiya xavfi mavjud.	1930-yillardan keyin AQSh va Yevropa davlatlarining “Yangi kurs” siyosati.
Neoliberal yondashuv	Bozor erkinligini kengaytirish, davlat aralashuvini cheklash, xususiy sektorni rivojlantirish.	Xususiylashtirish, soliq yukini kamaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish.	Tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi, investitsiyalarni jalb etadi.	Ijtimoiy tengsizlik ortadi, ijtimoiy himoya tizimi zaiflashadi.	1980-yillarda AQSh (Reygan), Buyuk Britaniya (Tetcher) siyosatlari.
Institutsional yondashuv	Samaradorlik samarali institutlar, huquqiy tizim va boshqaruvning shaffofligiga bog‘liq.	Davlat organlarining hisobdorligi, korrupsiyaga qarshi kurash, qonun ustuvorligi, samarali institutlar mavjudligi.	Davlat boshqaruvining barqarorligini ta’minlaydi, ishonchni oshiradi.	Institutsional islohotlar sekin kechadi, katta resurs talab qiladi.	Skandinaviya davlatlari, Singapur, Janubiy Koreya tajribasi.
Innovatsion yondashuv	Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar orqali samaradorlikka erishish.	Raqamlashtirish, ilm-fan va texnologiyaga investitsiyalar, innovatsion muhitni rivojlantirish.	Iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, global raqobatda ustunlik beradi.	Rivojlanayotgan davlatlarda texnologik tafovutlarni kuchaytirishi mumkin.	Yaponiya, AQSh, Germaniya, Xitoyning texnologik rivojlanish siyosati.

Keynsiy yondashuv davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini mutlaqo boshqa nuqtai nazardan tushuntiradi. Jon Meynard Keyns nazariyalariga ko‘ra, iqtisodiyot doim ham barqaror ishlamaydi, talab yetarli darajada shakllanmasa, ishlab chiqarish pasayadi, ishsizlik kuchayadi va ijtimoiy muammolar ortadi. Bunday vaziyatda davlat iqtisodiyotga faol aralashib, fiskal siyosat (byudjet xarajatlari, soliqlarni tartibga solish) va monetar siyosat (pul muomalasini boshqarish) orqali iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirishi zarur. Samaradorlik bu yondashuvda iqtisodiy sikllarni yumshatish, ishlab chiqarishni kengaytirish, bandlikni oshirish va aholi farovonligini ta’minlash bilan o‘lchanadi. Keynsiy siyosatning afzalligi shundaki, u inqiroz davrida iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash, talabni rag‘batlantirish orqali ishlab chiqaruvchilarga yangi imkoniyatlar yaratadi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Biroq, bu yondashuvning kamchiligi ham mavjud: davlat xarajatlarining ortishi natijasida byudjet taqchilligi va qarzdorlik ko‘payadi, inflyatsiya xavfi kuchayadi va uzoq muddatda iqtisodiy muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Amaliy misol sifatida, 1930-yillarda AQShda Franklin Ruzveltning “Yangi kurs” dasturi aynan keynsiy siyosat asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u iqtisodiy tiklanishda muhim rol o‘ynadi. Keyinchalik Yevropa mamlakatlarida ham keynsiy siyosat ijtimoiy davlat modelining shakllanishiga sabab bo‘ldi.

[6] Kayl I. I “Effectiveness and efficiency of public management of socio-economic processes at the city level //Overcoming Uncertainty of Institutional Environment as a Tool of Global Crisis Management. – Cham : Springer International Publishing, 2017. – C. 185-190.


1980-yillardan boshlab neoliberal yondashuv davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi masalasiga yangi talqin olib kirdi. Bu yondashuvning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, davlatning iqtisodiyotdagi haddan tashqari aralashuvi samarasiz natijalarga olib keladi, resurslar noto‘g‘ri taqsimlanadi va xususiy tashabbus bo‘g‘iladi. Shu bois, samaradorlikni oshirish uchun davlatning vazifalari qisqartirilishi, xususiylashtirish jarayonlari kuchaytirilishi, soliqlar pasaytirilishi va erkin bozor sharoitlari kengaytirilishi zarur. Neoliberal siyosatning afzalligi shundaki, u tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, raqobatni kuchaytirish va iqtisodiy erkinlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Lekin, bu yondashuvning ham jiddiy kamchiliklari mavjud: ijtimoiy tengsizlik kuchayadi, aholining ijtimoiy himoyasiz qatlamlari zarar ko‘radi, davlatning ijtimoiy funksiyalari zaiflashadi. Amaliy misol sifatida, AQShda Ronald Reygan va Buyuk Britaniyada Margaret Tetcher tomonidan olib borilgan siyosatni ko‘rsatish mumkin. Ular davlat sektorini qisqartirish, xususiylashtirish va soliqlarni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishgan bo‘lsalar-da, ijtimoiy tengsizlik kuchaygan edi. Shu bois, neoliberalizm iqtisodiy samaradorlikni oshirgan bo‘lsa-da, ijtimoiy barqarorlik masalalarida yetarli natija bermadi.

Zamonaviy davrda esa institutsional, innovatsion va barqaror rivojlanish yondashuvlari davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Institutsional yondashuvga ko‘ra, samaradorlik faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki samarali institutlar, huquqiy tizimning mustahkamligi, boshqaruvning shaffofligi va korrupsiyaga qarshi samarali kurash bilan belgilanadi. Afzalligi shundaki, bu yondashuv davlat boshqaruviga ishonchni oshiradi, barqarorlikni ta’minlaydi va uzoq muddatli rivojlanishga asos yaratadi. Innovatsion yondashuv esa texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish va ilm-fan yutuqlaridan foydalanishni davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligining asosiy omili sifatida ko‘radi. Zamonaviy raqobat global miqyosda texnologik ustunlik bilan belgilanayotgani uchun bu yondashuvning ahamiyati beqiyosdir. Nihoyat, barqaror rivojlanish yondashuvi iqtisodiy samaradorlikni faqat ishlab chiqarish yoki yalpi ichki mahsulot o‘sishi bilan emas, balki ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy adolat va kelajak avlodlar manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radi. Bu yondashuvning afzalligi uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashda, ekologik xavflarni kamaytirishda va ijtimoiy tizimlarni muvozanatli rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, qisqa muddatli foydani kamaytirishi va katta investitsiyalar talab qilishi mumkin. Yevropa Ittifoqining “Yashil kelajak” strategiyasi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari ushbu yondashuvning amaliy namunasidir.

Davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligining rivojlanish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi va u insoniyatning iqtisodiy munosabatlari taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Dastlabki bosqichlarda davlatning iqtisodiy boshqaruvdagi roli juda cheklangan bo‘lgan, chunki qadimgi jamiyatlarda xo‘jalik yuritish ko‘proq tabiiy resurslarga tayangan va iqtisodiy faoliyat asosan oddiy almashinuv shaklida kechgan. Antik davrlarda davlat iqtisodiy boshqaruvini samarali tashkil etish haqida ilk g‘oyalar paydo bo‘lgan: masalan, Aristotel va Platon davlatning iqtisodiy hayotda tartib o‘rnatish, adolatli taqsimotni ta’minlash zarurligini ta’kidlagan. O‘rta asrlarda esa davlat iqtisodiy boshqaruvi asosan feodal tizim doirasida soliq yig‘ish, savdo yo‘llarini himoya qilish va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Bu davrda samaradorlik tushunchasi iqtisodiy emas, ko‘proq siyosiy va harbiy kuch bilan bog‘langan.

Yangi davrda, xususan, XVI–XVIII asrlarda merkantilizm siyosati shakllandi. Bu davrda davlat iqtisodiy boshqaruvining samaradorligi mamlakat boyligini oshirish, oltin-kumush zaxiralarini ko‘paytirish va tashqi savdoni rivojlantirish bilan o‘lchangan. Keyinchalik, klassik iqtisodchilar – Adam Smit, David Rikardo kabi olimlar iqtisodiyotda davlatning roli minimal bo‘lishi kerakligini ta’kidlashdi. Ularning fikricha, samaradorlik “ko‘rinmas qo‘l” mexanizmi orqali, ya’ni erkin bozor kuchlari tomonidan ta’minlanadi. Biroq XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sanoat inqilobi, monopoliyalarning kuchayishi va ijtimoiy tengsizlikning ortishi davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini qayta ko‘rib chiqishga majbur etdi. Ayniqsa, 1929–1933-yillardagi Buyuk Depressiya shuni ko‘rsatdiki, davlatning iqtisodiy jarayonlardan chetda turishi inqirozlarni kuchaytiradi. Shu sababli Jon Meynard Keyns nazariyasi asosida davlatning faol iqtisodiy siyosati shakllandi, bunda samaradorlik ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va aholi farovonligini yaxshilash bilan bog‘liq edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi ijtimoiy davlat konsepsiyasi orqali yanada mustahkamlandi. Rivojlangan mamlakatlarda davlat nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki keng ko‘lamli ijtimoiy himoya tizimiga ham katta e’tibor qaratdi. 1980-yillardan boshlab esa neoliberal yondashuvlar kuchayib, samaradorlik davlatning iqtisodiyotdagi haddan tashqari aralashuvini kamaytirish, xususiy sektorni rivojlantirish va raqobatni kuchaytirish bilan bog‘landi.




2-rasm. Davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligining uch bosqichli rivojlanish bosqichlari.

Yuqoridagi rasmda ko‘rinib turibdiki, davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligining rivojlanishi uch bosqichda shakllangan bo‘lib, har bir bosqich o‘ziga xos yondashuv va mezonlarga ega. Birinchi bosqichda markazlashgan boshqaruv, merkantilizm va byurokratik tizim ustuvorlik qilgan, samaradorlik esa tartib-intizom, tashqi savdoni nazorat qilish hamda davlat apparatining mustahkamligi bilan o‘lchangan. Adam Smit, Maks Veber va Frederik Teylor kabi olimlarning ishlari aynan shu davrda iqtisodiy nazariya va boshqaruv tamoyillarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Ikkinchi bosqichda esa davlatning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki yanada kengayib, farovonlik modeli ustuvorlik qildi. Keynesiy yondashuv asosida davlat barqarorlashtiruvchi kuch sifatida ko‘rilgan, samaradorlik o‘sish, bandlik va ijtimoiy himoya orqali baholangan. Shu davrda Samuelson, Myrdal va Kuznetsning ishlari makroiqtisodiy boshqaruv va rivojlanish nazariyasini mustahkamlab berdi.

Uchinchi bosqich esa bozorlashtirish va boshqaruv islohotlari bilan ajralib turadi. 1980-yillardan boshlab neoliberal yondashuvlar, xususiylashtirish va New Public Management g‘oyalari asosida samaradorlik natija va mahsuldorlikka bog‘lanib baholanishi boshlandi. Bu davrda davlat faqat xizmat ko‘rsatuvchi emas, balki regulyator va nazoratchi sifatida ko‘rilmoqda. Hod, Ostrom, North va Acemoglu kabi olimlar davlatning samarali ishlashi institutlar, qonun ustuvorligi va boshqaruv tizimlarining barqarorligiga bevosita bog‘liqligini ilmiy asoslab berishdi. Natijada samaradorlik tushunchasi faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmay, balki davlat qobiliyati, hamkorlik va global raqobatbardoshlik mezonlari bilan ham baholanadigan kompleks kategoriya sifatida shakllandi. Shu tariqa, jadval uch bosqichdagi uzviy evolyutsiyani yaqqol ko‘rsatib, davlat iqtisodiy boshqaruvining tarixiy rivojlanishini to‘liq tahlil etishga imkon beradi.

Mamlakat iqtisodiy tizimini samarali boshqarish, avvalo, mavjud tuzumni mustahkamlash va uni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirishga qaratiladi, chunki iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanish shu orqali ta’minlanadi. Bu jarayonda iqtisodiy sikllardagi tebranishlarni yumshatish, pul muomalasini barqarorlashtirish va inflyatsiya darajasini nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqobat muhitini rivojlantirish va tashqi iqtisodiy muvozanatga erishish orqali ichki va tashqi bozorlarda iqtisodiy barqarorlik saqlanadi. Milliy iqtisodiyot strukturasini takomillashtirish, uning mexanizmlarini zamon talabiga moslashtirish esa raqobatbardoshlikni oshiradi. Aholining bandligini ta’minlash asosiy vazifalardan bo‘lib, mehnat resurslaridan to‘liq foydalanish iqtisodiy o‘sishga bevosita hissa qo‘shadi. Narxlar barqarorligini qo‘llab-quvvatlash orqali aholining real daromadlari himoyalanadi va ijtimoiy tengsizlik pasaytiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy muvozanatni ta’minlash totuvlik va iqtisodiy taraqqiyotning kafolati sifatida qaraladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib, kelajak avlodlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni saqlashga xizmat qiladi. Shu tarzda belgilangan maqsadlarning o‘zaro uyg‘un amalga oshirilishi iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi.



3-rasm. Davlat iqtisodiy boshqaruvining asosiy maqsadlari va tartibga solishning vaqt kechikishi.[7]

Davlat iqtisodiy boshqaruvining asosiy maqsadlari iqtisodiyotda barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiyani jilovlash, bandlikni oshirish, raqobatni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy muvozanatni saqlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va atrof-muhitni muhofaza qilishdan iborat bo‘lib, ularning samarali amalga oshirilishi ma’lum vaqt jarayo-

[7] Pavlov K. Socio-Economic Dimensions of State Regulation of Sustainable Development: Innovative Approaches to Improving the Organisational Mechanism //Economics-innovative and economics research journal. – 2025. – T. 13. – №. 3. – C. 539-557.

nida kechadi. Bu jarayonda avvalo muammo mavjudligini anglash va uning darajasini baholash uchun vaqt talab etiladi, chunki iqtisodiy muammolarni darhol aniqlash har doim ham oson emas. Keyingi bosqichda muammoni tan olish va uni hal qilish uchun zarur bo‘lgan qarorlar ishlab chiqiladi, bu esa siyosiy muvozanat va manfaatlar uyg‘unligini hisobga olgan holda ma’lum kechikishlarga olib keladi. Shundan so‘ng hukumat tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlarga tegishli tashkilotlar va tuzilmalar o‘z reaksiyasini bildiradi hamda ularni amaliyotga joriy etadi. Bu bosqichda ham vaqt yo‘qotilishi muqarrar, chunki qarorlarni amalga oshirish ko‘plab institutlarning hamkorligini talab etadi. Yakuniy bosqichda esa qabul qilingan chora-tadbirlar iqtisodiyotda real o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi, biroq ularning samarasi ham darhol sezilmay, muayyan vaqt o‘tishi bilan namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan samarali boshqarishning mohiyati fiskal va monetar siyosatning muvofiqligi, resurslardan oqilona foydalanish, strategik rejalashtirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini amaliyotga joriy etish bilan bevosita bog‘liqdir. Davlat boshqaruvi samaradorligining oshishi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, aholi farovonligi va raqobatbardosh iqtisodiy tizimni shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, O‘zbekiston misolida “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish, natijadorlikka yo‘naltirilgan byudjet siyosatini kengaytirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar, jumladan, C. Chrysanthakopoulos va A. Afonso tadqiqotlarida keltirilgan davlat sektorining samaradorligi modeli, O‘zbekistonning iqtisodiy boshqaruv amaliyotini takomillashtirishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy boshqaruv tizimi faqat iqtisodiy natijalar bilan emas, balki institutsional ishonch, boshqaruv shaffofligi va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan ham baholanishi lozim. Iqtisodiy siyosatda vaqt kechikishlari (laglar) muhim rol o‘ynab, muammoni aniqlashdan tortib, qaror qabul qilish va uning amaliy ta’sirigacha bo‘lgan bosqichlarda samaradorlikni belgilaydi. Shu sababli, zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi tezkor axborot oqimi, raqamli boshqaruv platformalari va tahliliy modellar asosida shakllantirilishi zarur. Bu yondashuv nafaqat iqtisodiy xavfsizlikni, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ham ta’minlaydi.

Takliflar

1. Raqamli boshqaruv tizimini kengaytirish — iqtisodiy jarayonlarni monitoring qilish va prognozlashda sun’iy intellekt, “Big Data” va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish zarur.

2. Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish — iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun infratuzilma, transport, energetika va qishloq xo‘jaligida PPP mexanizmlaridan faol foydalanish.

3. Natijadorlikka yo‘naltirilgan byudjet tizimini takomillashtirish — davlat xarajatlarini faqat hajmga emas, balki ularning iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ta’siriga qarab baholash tizimini joriy etish.

4. Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish — korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, hisobdorlik va shaffoflikni oshirish orqali boshqaruvga ishonchni mustahkamlash.

5. Innovatsion iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash — ilmiy tadqiqotlar, texnoparklar va startaplar faoliyatini davlat tomonidan rag‘batlantirish.

6. Barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiya qilish — iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ekologik barqarorlik va ijtimoiy tenglik mezonlarini majburiy element sifatida joriy etish.

7. Xalqaro tajriba almashuvini kuchaytirish — OECD, BMT va Jahon banki kabi tashkilotlarning ilg‘or boshqaruv modellarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali milliy strategiyalarni takomillashtirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, natijadorlikka yo‘naltirilgan byudjet tizimini kengaytirish va davlat xizmatlari sifatini oshirish zarur. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida davlatning iqtisodiy boshqaruvdagi o‘rni faqat tartibga soluvchi emas, balki innovatsion rivojlanishni rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu yo‘l bilan iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirib, barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolatni ta’minlashning poydevoriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Afonso A., Alves J., Bazah N. Public Sector Efficiency and the Functions of the Government. – CESifo Working Paper, 2024. – №. 11487.

2. Chrysanthakopoulos C. et al. The macroeconomic effects of public sector efficiency in advanced economies //International Economics. – 2025. – C. 100600.

3. Kayl I. I “Effectiveness and efficiency of public management of socio-economic processes at the city level //Overcoming Uncertainty of Institutional Environment as a Tool of Global Crisis Management. – Cham : Springer International Publishing, 2017. – C. 185-190.

4. Pavlov K. Socio-Economic Dimensions of State Regulation of Sustainable Development: Innovative Approaches to Improving the Organisational Mechanism //Economics-innovative and economics research journal. – 2025. – T. 13. – №. 3. – C. 539-557.

5. S.Saidov, Davlat boshqaruvi samaradorligini baholash //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. Special Issue 2. – C. 727-729.

6. Sh.Jurayev, Konstitutsiyaviy huquq: O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tizimi va davlat boshqaruvi // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2025. – T. 4. – №. 45. – C. 18-23.

Nurjamol Normatovna Nomatova
PhD in Pedagogical Sciences, Associate professor of Samarkand State Institute of Foreign Languages Samarkand City, Uzbekistan



ORCID:0000-0002-7148-9451


CHALLENGES AND OPPORTUNITIES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DEVELOPING HIGH EDUCATION STUDENTS SPEECH COMPETENCY OF ENGLISH

Annotation: XXI century skills require to use a foreign language as a means of interaction, cognition, self-realization and social adaptation as the society demands not only mastering the language use but more on soft-skills. This case is overwhelmed now, when the language learners depending on the use of Artificial Intelligence (AI) rather than self-study. Researchers who publish articles about their AI developments generally focus on the technical designs and findings and hardly ever discuss psychosocial factors or soft-skill values, priorities as a person. The aim of this research is to uncover all the challenges and opportunities of using artificial intelligence in developing high education students speech competency of English.

Keywords: Critical thinking; Communicative skills; Artificial Intelligence; Interactive teaching; learning strategies.

Introduction

The goal of developing oral communication skills in a foreign language in higher education institutions is to develop and apply in practice the skills and qualifications of oral communication that students need to implement in various socially-determining situations, as well as motivation in this process. Thus, a graduate of a higher education institution should be able to communicate freely in a foreign language, respond to the interlocutor's speech using verbal and non-verbal means, create a speech (monologue or dialogue) using professional terms within his specialty, and communicate in a foreign language in speech situations on the basis of topics established in the curriculum.



Also of great importance is unprepared speech - that is, the ability to adequately verbally respond to himself and the environment, events occurring in real time. It should be noted that the communicative approach to teaching English as a foreign language in higher education institutions promotes the following basic conditions for the development of oral speech skills and competencies: regular speech practice (practice); organization of all forms and types of speech communication in classes; approach based on the needs and demands of students, etc.

The level of development of oral speech skills (the ability to use foreign words in long-term memory; the ability to select words, i.e., the ability to use foreign synonyms; the ability to store a certain amount of foreign language units in working memory; the ability to respond correctly to a given question, etc.) requires a small number of errors in students' oral statements and a high pace of speech.

Speech skills that are not developed to the level of automatism of students cause certain communicative problems in the process of live oral communication. Then, language skills based on the psychological basis of mental, discursive, logical operations come into play. In foreign language education, the formation and development of this type of language skills is based on the process of performing various discursive language operations based on certain linguistic knowledge.

As is known, during a speech, the listener is required to have internal abilities based on several psychological mechanisms, such as short-term (working) and long-term memory; logical thinking and the ability to foresee the development of events. During listening, short-term memory serves to preserve the formal meaning of the spoken speech, and the ability to understand the content of the speech (the mechanism of guessing) arises from 3-4 words.

As soon as the speech ends, the transfer of the heard information from the verbal form to the mental form of a person (image, symbol, concepts) begins in the mind. It is for this reason that the importance of visual and audio-visual aids in listening comprehension is important. In this case, verbal and non-verbal (hand and body movements) also play a decisive role in understanding the content.

Based on these factors, K.Agustian, H.Suherti (2023) consider auditory and audio-visual materials as a supporting tool not only for listening comprehension, but also for the comprehensive development of oral speech. The basis of speech is complex integral skills, that is, productive (pronunciation) or expressive (rhythmic-intonational) and lexical-grammatical skills. In the scientific literature, it is divided into the following types based on differences in the level of complexity.

1. Associative speech. Often not fully understood; a type of speech expressed by expressing memorized text fragments based on various situations, which cannot be used as a means of forming and developing thoughts and opinions.

2. Imitative-imitative speech - repetition of received speech with an understanding of its meaning and content;

3. Reactive or responsive speech - reflects a reaction to an external stimulus. Internal needs are not required at all or are of secondary importance.

4. Initiative or spontaneous speech.

Using it, the speaker consciously combines language signs into a proportional composition, depending on the speech situation. In forming thoughts and opinions, the speaker proceeds from personal initiative and independently determines



the language materials and means of expression of the language. Speech skills include speech operations and speech actions, while performing speech activities.

There are several main features of speech skills, which include:

1) Automaticity - the performance of an activity at a certain speed, its integrity,the speaker's level of readiness to join the process;

2) Adaptability - the speaker's ability to apply skills in new unexpected situations, to distribute new language material;

3) Endurance - strength;

4) Conscious execution - the activity of consciously controlling the difficulties that arise in the process of expressing thoughts.

S. Ziesche & K.Bhagat (2022) writes the development of speech skills and abilities is a long and complex process, which is inextricably linked with the stages of its formation. That is, these two processes should be carried out not sequentially, but synchronously. The two main features of the skill - variability and endurance - allow for the organic development of speech skills and abilities. We do not consciously use highly developed speech skills.

Methodology

This study uses both qualitative and quantitative research design. Qualitative approaches will be used whereby a case design will be used in the selected sample schools and higher learning institutions. Descriptions basing on the study will be obtained from the respondents within the selected institutions. The study will also use interview and questionnaires to get descriptions from the respondents. Quantitative research will be used in data presentation like the use of tables.

The data collection technique was carried out using a questionnaire distributed to the population online with the help of Google Form. The questionnaire contains research instruments derived from each indicator of each variable that will be used as a research measurement tool. Data analysis techniques by calculating the interval level value of each variable to see the category of the research subject, then conducting special tests.



Literature Review

There was a lot of attention on learners using AI for various aspects from setting goals to monitoring and driving their own learning. This emphasis is not on AI taking the place of the teacher, but rather is a move towards learners gaining skills for lifelong learning. Lee and colleagues (2023) specifically focused their research on how AI could be used to support learners' autonomous learning. The researchers note that they developed an AI system that can promote autonomy, irrespective of a designated instructor, curriculum or location, and help learners become active participants.

This increase in self-regulation is interesting as a challenge also noticed in 2023 research was that AI can lead to passive learners. It is encouraging that studies are now focusing on approaches that can help avoid this. In Chu et al.'s (2023) study an expert AI system was developed to facilitate self-regulated learning in digital game-based learning contexts. Self-regulation in this paper referred to goal setting, strategic planning, self-monitoring, and self-adjustment. The study found that students who used the AI system had greater self-regulation and higher achievement in learning vocabulary than students who did not use the AI system. Using AI, students would pay more attention to the learning strategies they employed and developed their goal setting and decision-making skills.

Therefore, the development of listening comprehension in isolation from speaking skills leads to a misdirection of hearing and a complication of the development of acoustic articulation skills. The better the student has mastered the skill of listening comprehension,speech also develops so rapidly, otherwise the opposite will happen. In psychology, the subjective characteristics of a person, that is, his active efforts to change the environment, as well as interests and needs, ways to achieve the intended results, their practical significance and scope, can be the main indicators in mastering a foreign language.

F.Candelon, L.Krayer (2023), emphasizes that the process of developing oral speech is an important factor in human development and that it involves the personal development of the language learner along with his intellectual. Thus, classes should be under the active influence of the teacher and students, a free and friendly atmosphere, a sense of mutual equality should prevail in them. A.N. Shchukin notes the development of labor, the development of the ability of the learner and the teacher to equally manage the educational process and work on themselves; the organization of opportunities for reflecting real events in the environment in classes.

C.H.Chen, C.S.Koong, & C.Liao (2022), list 3 main

components in the development of speaking skills: the presence of a "motive" for creating and stimulating dialogue; situationality; personal orientation. Together, these components give speech a communicative character. Thus, based on the specific features of the development of oral speech skills in a foreign language, we believe that the following psychological factors should be taken into account in this process. We can express this through this diagram.

Results and Discussions

Several studies in our review explored using AI to promote self-regulation – the ability to manage and control one's thoughts, emotions, behaviors and physiological responses to achieve personal goals and maintain well-being. This research investigated the results of engaging learners in critical thinking, especially regarding for their creative goals and learning autonomy. What emerged is the trend for AI to allow learners to actively participate in goal setting and become independent learners. For example, Hew et al. (2023) used chatbots in ELT to support learner goal setting and social presence in fully online activities.

British Council researchers Edmett, A., Ichaporia, N., conducted a series of experiments with more than 10,000 people. Participants were asked to learn a specific topic — for example, how to grow a vegetable garden — and were randomly assigned to either ChatGPT or Google search. After learning the topic, each participant was asked to write advice to a stranger "friend" based on what they had learned. As a result, participants who used artificial intelligence felt they had learned less. They spent less time on the next task, and their advice was shorter, less detailed, and more general. Independent learners, who read the advice and did not know how they got the information, rated such advice as less useful and novel.

The researchers tried to determine the reason for the difference. Even when participants were given the same set of facts by both Google and AI, those who received ready-made synthesized answers had a much more superficial understanding of the topic. The same thing was observed when comparing with Google's AI Overview function: even though the facts did not change, the explanation provided by AI reduced the depth of knowledge. According to the authors, the problem is "friction" - that is, the effort a person spends on independent research.

Active processes such as opening links, comparing sources, interpreting information create deeper and more solid knowledge. LLM models, on the other hand, perform all this process for a person, turning learning from an active process into a passive one. The researchers are far from saying that artificial intelligence should be abandoned. On the contrary, AI is very useful for quick and accurate answers. But if the goal is deep, generalizable knowledge, relying entirely on ChatGPT's ready-made answers is not very effective. Scientists also explored whether AI could make reading more engaging. But even when ChatGPT provided links and sources along with the answer, participants almost never opened them—after receiving a convenient answer, they lost motivation to delve deeper into the topic.

Conclusions

Evaluating students' soft skills is of great impact not only for their personal abilities but also in reinforcing the sustainable development of the society as it totally relies on the capability of young professionals. Our proposal in the following matter is to illuminate the state by updating the self-study requirements and the content with challenging theoretical topics and authentic intercultural tasks which hits the students to personal and professional development. We highlight that, in a competitive e-learning market, teaching English as a Foreign language should be promoted by differentiation, highlight unique features and benefits, and teaching methods must help to find specific qualifications in a course.

References

Amin, M. Y. M. (2023). AI and Chat GPT in Language Teaching: Enhancing EFL classroom support and transforming assessment techniques. International Journal of Higher Education Pedagogies, 4(4), 1–15. https://doi.org/10.33422/ijhep.v4i4.554

Annamalai, N., Rashid, R. A., Hashmi, U. M., Mohamed, M., Alqaryouti, M. H. & Sadeq, A. E. (2023). Using chatbots for English language learning in higher education. Computers & Higher Education: Artificial Intelligence 5. https://doi.org/10.1016/j. caeai.2023.100153

Çakmak, F. (2022). Chatbot-human interaction and its effects on EFL pupils' L2 speaking performance and anxiety. Novitas-ROYAL (Research on Youth and Language), 16(2), 113–131.

Candelon, F., Krayer, L., Saran Rajendran, R. & Zuluaga Martínez, D. (2023). How people can create – and destroy – value with generative AI. Available at: https://www.bcg.com/publications/2023/howpeople-create-and-destroy-value-with-gen-ai

Chen, C.-H., Koong, C.-S. & Liao, C. (2022). Influences of integrating dynamic assessment into a speech recognition learning design to support pupils' English speaking skills, learning anxiety and cognitive load. Educational Technology & Society, 25(1), 1–14

Chu, S-T., Hwang, G-J., Chien, S-Y., & Chang, S-C. (2023). Incorporating teacher intelligence into digital games: An expert system-guided self-regulated learning approach to promoting EFL students

Edmett, A., Ichaporia, N., Crompton, H., & Crichton, R. (2024). Artificial intelligence and English language teaching: Preparing for the future (Second edition). British Council. https://doi.org/10.57884/78EA-3C69

Kiki Agustian, Heti Suherti, Raden Roro Suci Nurdianti. (2023). THe Effect Of Social Media Addiction And Time Management On The Learning Achievement Of Economics Education Students. Review Of Multidisciplinary Education, Culture And Pedagogy (ROMEO) . Volume 2 Issue 2.

Lee, D., Kim, H.-H. & Sung, S.H. (2023). Development research on an AI English learning support system to facilitate learner-generated-context-based learning. Educational Technology Research and Development, 71, 629–666. https://doi.org/10.1007/s11423-022- 10172-2

Nurjamol, N. (2019). Reinforcing the development of foreign Oral competence of the students of higher education. Int. J. Innov. Technol. Explor. Eng, 8, 3215-3218.

Ziesche, S. & Kumar Bhagat, K. (2022). Here, there, and everywhere – AI in education: State of the education report for India 2022. UNESCO. Available at: https://en.unesco.org/news/stateeducationreport-india-2022-artificial-intellige nce.education

Salomov Ilhom Salimovich
Buxoro davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi



ORCID:0000-0002-7148-9451

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING LOYIHALASH-KONSTRUKTORLIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari tadqiq etilgan. Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida muhandislardan CAD/CAM/CAE tizimlarida ishlash, 3D modellashtirish va raqamli loyihalash ko'nikmalari talab etilmoqda. Tadqiqot davomida texnika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining hozirgi holati tahlil qilinib, raqamli vositalar yordamida loyihalash-konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi ishlab chiqilgan. Pedagogik eksperiment natijalari talabalarning loyihalash ko'nikmalari va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining sezilarli yaxshilanganligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, loyihalash-konstruktorlik ko'nikmalari, muhandislik ta'limi, CAD tizimlari, 3D modellashtirish, pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv.

KIRISH

XXI asr ishlab chiqarish tarmoqlarida to‘liq raqamli transformatsiya jarayoni kechmoqda. Sanoatning 4.0 davri zamonaviy muhandislardan nafaqat klassik loyihalash ko‘nikmalarini, balki raqamli texnologiyalarni chuqur bilish va qo‘llay olishni talab etadi. Jahon Iqtisodiy Forumi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilga kelib muhandislik kasblarining 75% raqamli ko‘nikmalarni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida muhandislik ta’limini modernizatsiya qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. 2023-yil 5-apreldagi “Oliy ta’limni rivojlantirish va sifatini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-144-son Qarorida kadrlar tayyorlashda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanish zaruriyati ta’kidlangan.

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hozirgi o‘quv jarayonida raqamli vositalar yordamida loyihalash-konstruktorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimli amalga oshirilmaydi. Ko‘pgina texnika universitetlarida CAD/CAE dasturlaridan foydalanish faqat alohida fanlar doirasida cheklangan, talabalarning amaliy loyihalash tajribasi yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi: raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik sharoitlari va samarali metodlarini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

-Muhandislik ta’limida loyihalash-konstruktorlik ko‘nikmalarining mazmuni va tarkibini aniqlash;

-Raqamli ta’lim muhitida loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish;


-Loyihalash-konstruktorlik kompetensiyalarini-shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va sinab ko‘rish;

-Pedagogik eksperiment natijalarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berish.

METODOLOGIYA

Pedagogik tadqiqot 2024-2025 o‘quv yilida O‘zbekiston hududidagi texnika universitetlarida (Toshkent davlat texnika universiteti, Farg‘ona politexnika instituti, Buxoro davlat texnika universiteti) o‘tkazildi. Tadqiqotda umumiy 240 nafar talaba (eksperimental guruh - 120, nazorat guruh - 120) va 36 nafar o‘qituvchi ishtirok etdi.

Tadqiqot 3 bosqichda amalga oshirildi: tahliliy-diagnostik (2024-yil avgust-noyabr), tajriba-eksperimental (2024-yil dekabr - 2025-yil may), yakun-umumlashtiruvchi (2025-yil iyun-iyul) bosqichlari.



1-rasm. Tadqiqotda qo‘llaniladigan metodlar

Metodlarni o‘rganib quyidagi metodikalar ishlab chiqilgan

Tadqiqot doirasida bo‘lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus pedagogik metodika ishlab chiqildi. Metodika 4 ta asosiy komponentdan iborat:

-Nazariy modul: raqamli loyihalash asoslari, CAD/CAM/CAE tizimlarining tamoyillari (32 soat);

-Amaliy modul: AutoCAD, SolidWorks, ANSYS dasturlarida amaliy mashg‘ulotlar (64 soat);

-Loyihaviy modul: real ishlab chiqarish vazifalariga asoslangan murakkab loyihalarni bajarish (48 soat);

-Baholash moduli: kompetensiyalarni kompleks baholash tizimidir (portfolio, loyiha himoyasi, test).

O‘qitish jarayonida blended learning yondashuvi qo‘llanildi: an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari (60%) va onlayn platformalarda mustaqil ishlash (40%) uyg‘unlashtirildi. Virtual laboratoriyalar, masofaviy simulyatorlar va hamkorlikdagi loyihalash platformalari faol ishlatildi.

NATIJALAR

Dastlabki diagnostika bosqichida talabalarning loyihalash-konstruktorlik ko‘nikmalari 3 ta mezon bo‘yicha baholandi: texnik bilimlar, raqamli ko‘nikmalar va muammolarni yechish qobiliyati. Har bir mezon uchun 5 ballik shkala qo‘llanildi.

1-jadval.

Talabalarning dastlabki kompetensiyalar darajasi (o‘rtacha ball, n=240)

Mezon	Eksperimental guruh	Nazorat guruh
Texnik bilimlar	2.8	2.7
Raqamli ko‘nikmalar	2.3	2.4
Muammolarni yechish	2.6	2.5
O‘rtacha	**2.57**	**2.53**

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ikkala guruhda ham loyihalash-konstruktorlik ko‘nikmalari past darajada bo‘lib, ayniqsa raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatkichlar past (2.3-2.4 ball). Guruhlar orasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p>0.05$).

Eksperimental ta’lim natijalari

Ishlab chiqilgan metodika asosida 6 oylik o‘qitishdan so‘ng qayta baholash o‘tkazildi. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Talabalarning yakuniy kompetensiyalar darajasi (o‘rtacha ball, n=240)

Mezon	Eksperimental	Nazorat	Farq (%)
Texnik bilimlar	4.3	3.2	+34.4%
Raqamli ko‘nikmalar	4.5	2.8	+60.7%
Muammolarni yechish	4.2	3.0	+40.0%
O‘rtacha	**4.33**	**3.0**	**+44.3%**

Student t-mezoni yordamida o‘tkazilgan statistik tahlil eksperimental va nazorat guruhlar o‘rtasida yuqori darajada ahamiyatli farqni ko‘rsatdi ($t=8.74$, $p<0.001$). Bu ishlab chiqilgan metodikaning pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

Talabalar tomonidan bajarilgan loyiha ishlari 6 ta mezon bo‘yicha baholandi: texnik to‘g‘rilik, innovatsiyalik, raqamli vositalardan foydalanish darajasi, taqdimot sifati, amaliy qo‘llanish imkoniyati va muddatga rioya qilish.

3-jadval.

Loyiha ishlari sifati (% talabalar, n=240)

Sifat darajasi	Eksperimental	Nazorat
Yuqori (4.5-5.0 ball)	42.5%	15.8%
O‘rta (3.5-4.4 ball)	48.3%	54.2%
Past (2.5-3.4 ball)	9.2%	30.0%

Eksperimental guruhdagi talabalarning 42.5% yuqori darajadagi loyihalar taqdim etdi, nazorat guruhda esa bu ko‘rsatkich 15.8% ni tashkil etdi. Natijalar raqamli ta’lim muhitining loyiha ishlari sifatini oshirishdagi samara dorligini isbotladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhiti bo‘lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Eksperimental guruhda kompetensiyalar darajasi nazorat guruhga nisbatan 44.3% yuqori bo‘ldi, bu esa ishlab chiqilgan metodikaning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Eng sezilarli o‘sish raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha kuzatildi (+60.7%). Bu natija talabalarning CAD/CAM/CAE dasturlarida tizimli mashg‘ulotlar o‘tkazilishi va amaliy loyihalarda ulardan intensiv foydalanilishi bilan izohlanadi. Xalqaro tadqiqotlar (Zhang, 2022; Kumar & Singh, 2023) ham raqamli vositalarning muhandislik ta’limidagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Blended learning yondashuvi o‘zini oqlaganligini ko‘rsatdi. Talabalar so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, 87% respondentlar onlayn va oflayn ta’limning kom-

binatsiyasi qulayroq va samaraliroq deb baholadi. Bu natija Garrison va Vaughan (2008) ta'kidlaganidek, blended learning modelining afzalliklarini tasdiqlaydi.

Loyiha ishlari tahlili ham muhim ma'lumotlarni berdi. Eksperimental guruhdagi talabalar murakkab texnik masalalarni yechishda ijodiy va innovatsion yondashuvlarni ko'proq qo'lladilar. Real ishlab chiqarish vazifalariga asoslangan loyihalar talabalarning amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ba'zi qiyinchiliklar ham aniqlandi:

1.Raqamli infratuzilmaning hamma universitetlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi;

2.O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari turli darajada bo'lishi;

3.Professional CAD/CAE dasturlariga litsenziyalar tanqisligi;

4.Ba'zi talabalarning boshlanğich raqamli savodxonlik darajasining pastligi.

Bu muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv zarur: moddiy-texnik bazani mustahkamlash, o'qituvchilar malakasini oshirish, xalqaro hamkorlik va dasturiy ta'minotni sotib olish uchun mablag'larni ajratish.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- Raqamli ta'lim muhiti bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi;
- Ishlab chiqilgan pedagogik metodika talabalarning kompetensiyalar darajasini sezilarli darajada oshiradi (o'rtacha 44.3%);
- CAD/CAM/CAE tizimlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning raqamli ko'nikmalarini yuqori darajada rivojlantiradi;
- Blended learning yondashuvi va real ishlab chiqarish masalalariga asoslangan loyihalar pedagogik samaradorlikni oshiradi.

Amaliy tavsiyalar:

- Texnika universitetlarida raqamli loyihalash laboratoriyalarini tashkil etish;



- O'quv dasturlarida CAD/CAM/CAE fanlarining ulushini oshirish (kamida 15-20%);
- O'qituvchilarni raqamli texnologiyalar bo'yicha muntazam qayta tayyorlash;
- Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda amaliy loyihalar tizimini joriy etish;
- Virtual laboratoriyalar va simulyatorlardan keng foydalanish;
- Talabalarning loyihalash ko'nikmalarini baholashning kompleks tizimini yaratish.

Keyingi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: raqamli ta'limning boshqa muhandislik kompetensiyalariga ta'sirini o'rganish, sun'iy intellekt texnologiyalarini loyihalash jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini tadqiq etish va talabalarning uzoq muddatli professional rivojlanishini monitoring qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi "Oliy ta'limni rivojlantirish va sifatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-144-son Qarori.

2. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. John Wiley & Sons.

3. Kumar, A., & Singh, R. (2023). Digital transformation in engineering education: A systematic review. International Journal of Engineering Education, 39(2), 456-472.

4. Smith, J., & Brown, M. (2022). CAD/CAM integration in mechanical engineering curriculum. Journal of Engineering Education Research, 25(4), 112-128.

5. Zhang, L. (2022). The impact of digital technologies on engineering students' design competencies. Engineering Education Review, 18(3), 234-251.

6. Jahon Iqtisodiy Forumi (2023). The Future of Jobs Report. Jeneva: World Economic Forum.

7. Alimov, R. X., & Karimova, S. N. (2023). Muhandislik ta'limida raqamli texnologiyalar. Toshkent: TDTU nashriyoti.

8. UNESCO (2022). Engineering for Sustainable Development: Delivering on the Sustainable Development Goals. Paris: UNESCO Publishing.

9. Jonson, D., & Williams, K. (2021). Project-based learning in engineering education: Best practices and outcomes. European Journal of Engineering Education, 46(5), 678-695.

10. Anderson, T., & Dron, J. (2020). Three generations of distance education pedagogy. International Review of Research in Open and Distance Learning, 12(3), 80-97.

11. Rashidov, J. B. (2022). Oliy ta'limda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish. Pedagogika jurnali, №3, 45-52.

12. Chen, X., Li, Y., & Wang, Z. (2023). Virtual laboratories in engineering education: A meta-analysis of effectiveness. Computers & Education, 175, 104356.

Usmonov Ziyodulla Ulmas o‘g‘li
Osiyo texnalogiyalar universiteti,
“Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi, i.f.f.d.



HTTPS://ORCID.ORG/0009-0004-7740-2347

NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI ISH BILAN TA’MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya: Dunyo davlatlarida inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida inklyuziv bandlik e’tirof etilmoqda. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishsizligi, mehnat faoliyatini olib boorish jarayoni hamda bandlik siyosatini tashkiliy-amaliy mexanizmlarini takomillashtirish va mamlakatimizda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarga ustuvorlik sifatida qaysi yo‘nalishlarni belgilab olish zarurligini aniqlash uchun tahlillar olib boriladi. Tadqiqot doirasida xorijiy mamlakatlarning inklyuziv bandlikni ta’minlash bo‘yicha real tajribalarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv bandlik, kvotalangan ish, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ishsizlik, mehnat jarayoni, xalqaro konvensiya, subsidiya, qobiliyatlar.

Kirish



Jahon iqtisodiyotida inklyuziv bandlikni ta’minlash mehnat bozorida teng imkoniyatlarni yaratish, aholining har xil ijtimoiy qatlamlari, jumladan, yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va kam ta’minlangan toifalarni iqtisodiy faollikka jalb qilish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim omil hisoblanadi. Inklyuziv bandlik ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlab, resurslardan foydalanishni optimallashtiradi va ichki talabni rag‘batlantiradi. Jahonda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish uchun inson kapitali samaradorligini rivojlantirish, munosib bandlikni ta’minlash va inklyuziv iqtisodiyotga o‘tishning zamonaviy tendentsiyalari ro‘y bermoqda. Bu kabi islohotlar negizida Birlashgan millatlar tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlaridan 8-maqsadi “Barqaror, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishni, to‘liq va samarali bandlikni va hamma uchun munosib mehnatni rag‘batlantirish”[1] fundamental asos vazifasini o‘tamoqda. Bundan kelib chiqib, inklyuziv bandlikni ta’minlash global rivojlanish strategiyalarida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi zarur.

Jahonda inklyuziv bandlikni ta’minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar mehnat bozorida tenglik va adolat mezonlarini shakllantirish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini iqtisodiy modellarga integratsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish va mehnat munosabatlarida inklyuzivlikni baholash indikatorlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bunda institutsional iqtisodiyot, bixevioristik iqtisodiyot va gender iqtisodiyoti kontseptsiyalaridan keng foydalanilayotgani kuzatiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va mehnat bozoridagi transformatsiyalar inklyuzivlikni ta’minlash modellarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu tendentsiyalar natijasida bandlik siyosatining inklyuzivligiga qaratilgan zamonaviy tahliliy instrumentlar va prognozlash usullari takomillashtirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu masalarga yechim izlashdan avval nogironligi bo‘lgan shaxslarning o‘ziga xos xususiyati, mehnat unumdorligi, mehnat bozorida ular duch kelayotgan to‘siqlar va boshqalar haqida turli davlat olimlari ilmiy qarashlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hayotida tadbirkorlikning ahamiyati malayziyalik olimlar nazdida quyidagicha: “Imkoniyati cheklangan odamlarni rag‘batlantirish orqali bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi tadbirkorlik bilan shug‘ullanish bandlik imkoniyatlarini rag‘batlantirish, ishsizlik va bu odamlar qashshoqligini yengadi”[2].

Jahon mamlakatlari tajribasidan ma’lumki, ko‘zi ojizlarning huquqlarini himoya qiluvchi dastlabki tashkilot tarixi bir asrga borib taqaladi. Misol tariqasida Britaniyada “Milliy ko‘zi ojizlar ligasi 1893 yilda taxminan ko‘zi ojiz ishchilar uyushmasi sifatida tashkil etilgan”[3].

Nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligi, jamoatchilikka integratsiyalashuvi, shaxsiy faoliyatda samaradorlikka erishish yo‘nalishida tadqiqot o‘tkazgan amerikalik olim Gerald L. White muammoning quyidagi jihatini izohlagan: “Aynan nogironlik tushunchasining o‘zi ham nogironligi mavjud odamlarga raqobatbardosh ish bilan ta’minlanish uchun kata to‘siq hisoblanadi”[4].

Margaret Anne esa o‘z tadqiqotida mehnat bozoriga kirish jamiyatdagi turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillar bilan bir qatorda “nogironligi bo‘lgan shaxslarning individual bandlik natijasi omillari”[5] muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan.

Chilida “ko‘zi ojiz talabalarning o‘qituvchilari tomonidan o‘tkazilgan, ularning bandlik jarayoniga integratsiyalashuvi holatini aniqlashga qaratilgan tadqiqotda ta’lim jarayoni kasbga doir malakani shakllantirmasligi”[6], aksincha, „kam sonli maktablar asosiy ish joylariga yo‘naltiradi, kam maosh bilan va bu

[1] BMT web-sahifasi: https://sdgs.un.org/goals/goal8

[2] Norhasyikin Rozali, Promoting Social Entrepreneurship among Entrepreneur with Disabilities in Contribution for Community // ProQuest, Malaysia Perlis, 2018-y. 2-b jami 5 b. URL: https://doi.org/10.1051/matecconf/201815005101 MUCET 2017

[3] Akihiro Sugino, Work and the blind identity in Japan with reference to the British experience // ProQuest, London School of Economics and Political Science, 2014-y. 125-b jami 308 b.

[4] Gerald L. White, Problem-solving, self-efficacy, community integration, and employment of blind adults // ProQuest, University of Arkansas 2013-y. 10-b. jami 101 b.

[5] Margaret Anne, Factors correlated with employment outcomes for individuals who are blind or visually impaired // ProQuest, George Mason University, 2004-y. 3=b. jami 159 b.

[6] http://azkurs.org/pars_docs/refs/145/144053/144053.pdf

odamlarga tayinlangan ish uchun kvotalarni bajarishni qiyinlashtiradi”[7], deb ta’kidlangan.

Imkoniyati cheklangan mehnatga layaqotli yoshlar o‘rtasida Rossiyada tadqiqotlar o‘tkazildi va ushbu tadqiqot natijalari „mehnat motivatsiyasining pasayishi kuzatilayotganligini, Rossiya Federatsiyasi mehnat vazirligi tomonidan 2015 yilda o‘tkazilgan tadqiqotlar mehnatga layoqatli yoshdagi nogironlarning 17 foizi ishlamasligini ko‘rsatdi. 2017-2018-yillarda bu foiz turli mintaqalarda ham o‘sdi 30% dan (Moskva) 50% gacha (Boshqirdiston Respublikasi)”[8] – ko‘rsatmoqda. Buning asosiy sababi mehnatga bo‘lgan motivatsiyaning tushub ketganligi hisoblanadi.

Shuningdek, mavjud islohotlarga qaramasdan nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida dolzarblik kasb etib turgan yana bir muammo haqida Vadin Nikita quyidagicha ta’kidlagan: „Bandlik xizmatlarning samaradorligi bilan bog‘liq va ularning nogironlar bilan ishlashga uslubiy tayyorgarligida muammolar mavjud. Nogironlar orasidan ish izlovchilarni umumiy oqimga kiritish mumkin emas”[9].

Nogironligi bo ‘lgan shaxslar uchun majburiy kvotalarning belgilab qo‘yilganligi, xalqaro nogironlar huquqi to‘g‘risidagi konvensiya asosida hamma davlatlarda qonunlarning yaratilishi va ularning bandligini ta’minlash uchun ajratilayotgan subsidiya hamda imtiyozlarga qaramasdan, hali-hanuz „asosan xususiy biznesning 85 foiz dan oshiqroq”[10] qismi imkoniyati cheklangan shaxslarni o‘z faoliyatlarining qiymat zanjiriga qo‘shishni xohlashmaydi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilish uchun olib borilayatgan islohotlar qatariga nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini mukammal darajada himoya qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasini bevosita qo‘llash uchun „Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani (Nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida”[11]gi qonun qabul qilinganligi e’tiborga loyiqdir.

Inklyuziv iqtisodiyotni inklyuziv biznessiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ko‘zi ojizlarning mehnatga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘la qondirish uchun eng avvalo barcha turdagi bizneslarni inklyuziv biznesga aylantirishimiz zarur. Shunday ekan, “oddiy biznesni inklyuziv biznesga aylantirish uchun nima talab etiladi? Javoblardan biri – imkoniyati cheklangan aholini qiymat zanjiriga kiritishdir”[12].

Tadqiqot metodologiyasi

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ish bilan bandligini ta’minlash muammosi yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim:

-Ish beruvchilarning nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatiga nisbatan yondashuvlarini tahlil etish;

-Nogironligi mavjud shaxslarni mehnat qilishga nisbatan layoqatini tahlil etishdan iborat.

Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasini o‘rganish davomida NBShlar bandligini ta’minlash uchun eng avvalo quyidagi ustuvor vazifalarni belgilab olish shart:

1.Kvotalar samarasini nazorat qilish:

2.Nogironligi mavjud insonlar bandligining ijtimoiy modelini yaratish:3. Har bir shaxsga xos qobiliyatlarni rivojlantirish:

4. Moliyaviy rag‘bat tizimini joriy qilish:

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti inson kapitalidan keng miqyosda foydalanishni nazarda tutib mehnat jarayonini inklyuzivligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatidan foydalanish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun jozibador emas. Chunki, ishsizlik yuqori va iqtisodiyo t zaif bo‘lgan holatda jamiyatning barcha qatlamlarini ish bilan ta’minlash imkonsiz buladi. Ayni shu boisdan tadqiqot muammosi ya’ni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nogironligi mavjud shaxslarning yorqin tajribalarini o‘rganish va mamlakatimizga mos keladigan bandlik siyosatini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.. Ushbu tadqiqot ishida nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat jarayoniga integratsiyalashuvi bo‘yicha xorijiy tajriba tahlil etilib, hamda uni tizimli tarzda yo‘lga qo‘yish uchun tavsiyalar berildi. Ushbu jarayonda iqtisodiy tahlil, analiz, sintiz, guruhlash va ilmiy abstraksiya metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida inklyuziv bandlik muammolariga yechim sifatida taklif etilayotgan normativ hujjatlarga qo‘shimchalar kiritish lozim bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Jahon davlatlarining inklyuziv bandlikni ta’minlash amaliyotini o‘rganish natijasida shuni ta’kidlashimiz joizki, nogironligi bo‘lgan shaxs(NBSh)larni shunchaki ish joylariga yo‘naltirishdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki har bir insonga individual o‘zligini namayon qilish taklif etilgan ish o‘rni nogironlik belgilarini bartaraf etish qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga mo‘ljallangan davlat maqsadli va tizimli ishlar majmuasidan iborat. Bunday siyosat ikkala tomonga ham birdek manfaatli bo‘lib, byudjet mablag‘lari samaradorligini oshiradi hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning moliyaviy barqarorlikka erishishlari uchun xizmat qiladi.

[7] Maritza Fajardo, Pablo J. Castro-Carrasco, Teachers’ subjective theories about the employment integration their blind students // ProQuist, Chili 2020-y. 8-b. jami 11 b. Maritza Fajardo 1; Pablo J. Castro-Carrasco

[8] Трудоустройство людей с ограниченными возможностями. Сайт Минтруда РФ. [Электронный ресурс] URL: https://rosmintrud.ru/employment/resettlement (дата обращения 13.12.2019).

[9] Vadin N.I. Совершенствование механизма трудоустройства инвалидов в России. // Avtoreferat, Moskva – 2020, 4-b. Jami 33 b.

[10] Россия в цифрах. 2019: Крат. стат. сб. / Росстат – М., Р76 2019 – С. 238.

[11] O‘RQ. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani (Nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida // Lex.uz, 695-son, 08.06.2021 y.

[12] Q. Isayev, Har bir inson – bebaho kapital // xalq so’zi, № 34, 18.02.2023-y. 4-b.

O‘zbekiston nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta’minlash siyosatini yuritarkan, xorij tajribasidan nafaqat qonuniy asosni, balki uzoq yillik sinalgan ijro amaliyotini olishi maqsadga muvofiq.

Har bir davlat jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv da’vosida ekan, ushbu jamiyatda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini kafolatlovchi fundamental hujjat - bu nogironlar huquqlari to‘g‘risida konvensiya hisoblanishi shart. Ushbu hujjat BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda 61/106 rezolyutsiyasi asosida qabul qilingan. Bu konvensiya imkoniyati cheklangan shaxslarning kamsitilishiga va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy to‘siqlarga duch kelishining oldini oluvchi xalqaro darajadagi huquqiy asosdir. Ushbu hujjat nogironlar huquqlarini amalga oshirish va ulardan boshqa sog‘lom insonlar kabi teng imkoniyatlardan foydalana olishlarini kafolatlaydi.

Ushbu konvensiyaning unikalligi shundaki, barcha ishtirokchilar tomonida norozilikarsiz yakdil ovoz berilmasdan qabul qilingan.

Shuningdek, ushbu konvensiya ko‘zi ojiz shaxslar hayotida muhim ahamiyat kasb etib, 27-moddada mehnat va bandlik sarlavhasi ostida quyidagi jumlalar keltirilgan: “...Bu mehnat bozori va ishlab chiqarish muhiti nogironlar uchun ochiq inklyuziv va ishtirok etish imkoniyati bo‘lgan sharoitda nogiron o‘zi tanlagan va erkin rozi bo‘lgan mehnat orqali turmush kechirishga pul ishlab topish imkoniyatiga ega bo‘lish huquqini qamrab oladi”[13].


Xorijiy mamlakatlarda va davlatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslar qaysi kasblarda ish bilan bandligini aniqlash hamda o‘zaro qiyosiy tahlil olib borish maqsadida ushbu kasblarni jadvalda aks ettiramiz.

1-jadvaldan anglashiladiki, xorijda keng ko‘lamda amal qiladigan, ammo O‘zbekistonda aksariyat hollarda uchratilmaydigan kasb-lavozim turlari dasturchi, massaj terapevti, operator va kompozitorlardir. Ushbu kasblarga nogironligi mavjud shaxslarni oldindan yo‘naltirishga xizmat qiladigan dasturlar ishlab chiqish ularning mehnat bozorida tanlov imkoniyatlarini oshiradi.

1-jadval[14]

NBShlar faoliyat olib borayotgan kasblar tasnifi

Xorijiy davlatlarda	O‘zbekistonda
Dasturchi	O‘qituvchi
O‘qituvchi	Musiqachi
Ilmiy tadqiqotchi	Hunarmand, ishchi
Advokat	To‘quvchi, tikuvchi
Huquqshunos maslahatchi	Huquqshunos
Journalist	NJB xodimi
Muharrir	Maxsus kutubxona xodimi
Xonanda	
Kompozitor	
Musiqa o‘qituvchisi	
Call-markaz operatori	
Massaj terapevti	



1-rasm. Dunyo davlatlari tajribasiga ko‘ra majburiy kvotalash tizimining asosiy yo‘nalishlari[15]

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini ta’minlashda kvotalash mexanizmi asosiy instrument vazifasini o‘tab kelmoqda. Jamiyatning ushbu qismini ish bilan ta’minlash imkoniyatini yaxshilash uchun yangi kvotalar ajratib boriladi. Xorijiy amaliyotni o‘rganish natijasida davlatlar tajribasidan kelib chiqib kvotalash tizimini 3 ta yo‘nalishga ajratishni joiz deb bildik(1-rasm).

Dunyo davlatlari inklyuziv bandlikni ta’minlashda kvotalangan ish joylarini ajratish amaliyotini 3 yo‘nalishda amalga oshirishadi. Ushbu yo‘nalishlarning e’tiborli jihati shundaki, davlatlarning bandlik siyosati natijasida zaxiralangan ish joylari xususiy, davlat yoki ikkala sektor ulushiga to‘g‘ri kelishi bilan ajralib turadi.

Ushbu yo‘nalishlarga quyidagi davlatlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin:

-1-yo‘nalishga Hindistom

-2-yo‘nalishga Tailand

-3-yo‘nalishga esa Xitoy, Yaponiya, Belgiya, Gretsiya, Italiya, Germaniya.

NBSHlar uchun zaxiralangan ish joylarini ajratish amaliyotining tarixiy evolyutsiyasiga nazar soladigan bo‘lsak, turli davlatlar kesimida nogironlik belgisiga

[13] Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция - Toshkent: Baktria press, 2013, 35-36 betlar, jami 56 b.

[14] Muallif tomonidan tuzilgan.

[15] Muallif tomonidan tuzilgan.

qarab farqlanadi. Misol uchun, Yaponiyada dastlab kvotalangan ish joylari barcha uchun amal qilmasdan, faqat jismoniy cheklovi bor NBSHlar uchun amal qilgan. Ammo, 1998-yildan boshlab barcha NBSHlar uchun taalluqli bo‘lgan. Yana bir misol sifatida Niderlandiyani keltirishimiz mumkin. Hozirgi davrda aksariyat davlatlarda kvotalangan ish joylariga bo‘lgan talabni tashkilotlar bajarishga majbur. Biroq 1980-yillarda zaxiralangan ish joylari majburiy bo‘lmasdan, ixtiyoriy xarakterga ega bo‘lgan.

Zaxiralangan ish joylarining samaradorligi past degan xulosaga kelgan davlatlar ham yo‘q emas. Misol uchun, Buyuk Britaniya ushbu amaliyotdan 1996-yilga kelib voz kechgan. Bu mexanizmga muqobil sifatida NBSHlarni ish bilan ta’minlagan korxonalarga moliyaviy qo‘llab-quvvatlovlar amalga oshiriladi.

Kvotalash mexanizmlarini oqilona amalda qo‘llab kelayotgan davlatlar sirasiga Avstriya, Vengriya, Germaniya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Fransiya, Chexiya, Yaponiya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu davlatlar ichidan Germaniyaning kvotalangan ish joylari tashkiliy mexanizimini tartibga solish amaliyoti diqqatimizni tortdi.

2-jadval

Germaniyada nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun majburiy kvotalangan ish o‘rinlarini nazorat qilish mexanizmi[16]

Tashkilotdagi minimal xodimlar soni	Jami xodimlar ulushida nogironligi bor xodimlar	Majburiy kvotani bajarmagan har bir xodim uchun jarima (har bir oyda)
60 dan yuqori	2 %	260 yevro
60 ta	3 %	180 yevro
50 - 60	5 %	105 yevro
40 – 50	6 %	105 yevro
5 ta	0 %	0 yevro

“Bu kvota tizimidan birinchilardan bo‘lib mamlakatlar ichida Germaniya foydalanishni boshlagan. Hozirgi kunda Germaniyada kvota qiymati 6% ga teng. Shu bilan birgalikda hukumat tomonidan kvota tizimining samarali ishlashi uchun yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan usulda tashkilotlarga jarima to‘lashni majburiyat etib belgilagan”[17].

2-jadval ma’lumotlarini quyidagicha izohlash mumkin. Germaniyada umumiy holatda korxonalar uchun majburiy zaxiralanishi kerak bo‘lgan ish joylari 6 % ni tashkil qilishi aytilsa-da, bu ko‘rsatkich umumiy xodimlar soniga nisbatan teskari proporsional tarzda amal qiladi. Masalan, 60 tadan ortiq xodimi bor korxona 2 % ga teng ish o‘rnini nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun zaxiralashga majbur. Agar bu talabni bajarmasa kvota doirasida ishga qabul qilinmagan har bir ish o‘rni uchun 260 yevrodan jarima to‘lashga majburdirlar. Mos ravishda 60 ta xodimli korxonalarda 180 yevro 50 – 60 oralig‘ida xodimga ega bo‘lgan korxonalar uchun jarima miqdori 105 yevro kamayib, 40 – 50 tagacha bo ‘lgan korxonalarda kvotalangan ish joyi 6 % ni tashkil etadi.

Ushbu nazorat mexanizmi faqat jazoga asoslanmasdan, zaxiralangan ish joylariga NBSHlarni jalb qilgan korxonalar uchun davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, subsidiya va boshqa imtiyozlarga ega bo‘lishi ta’minlab qo‘yilgan.

Yaponiyada kvotalar samaradorligini oshirish uchun rag‘batlantirish mexanizimidan foydalanishadi. Unga ko‘ra, hukumat tomonidan NBSHlarni kvotalangan ish joylariga qabul qilgan korxonalar uchun texnik bazasini hamda asosiy vositalarini modernizatsiya qilish uchun grantlar ajratiladi.



Skandinaviya davlatlarida rag‘batlar tizimi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu davlatlarda ijtimoiy-demokratik model qo‘llanilib, quyidagi kafolatlarni o‘z ichiga oladi:

1.Xarajatlarni qoplashga yetadigan ijtimoiy ta’minot;

2.Qobiliyatlardan kelib chiqib kasb o‘rganish (maxsus ustaxonalar tashkil etilgan);

3.Ishga joylashgan NBSHlarning 50 foizidan oshiq qismini davlat subsidiya ko‘rinishida qoplab beradi;

4.Ish beruvchilarga mehnat unumdorligidagi farqni qoplash uchun davlat byudjetidan imtiyozlar ajratadi.

NBShlarni ish bilan ta’minlash va inklyuziv jamiyatga o‘tishdagi yorqin tajribasi bilan ajralib turuvchi davlat Buyuk Britaniyadir. Ushbu davlatda ko‘zi ojizlarning hayotda o‘z o‘rnini topish, moliyaviy mustaqillikka erishish, ochiq mehnat bozorida teng sharoitlar ostida raqobatlasha olish imkoniyatini beruvchi Britaniya Qirolligi ko‘zi ojizlar milliy instituti mavjud. Bu institut ko‘zi ojiz shaxslarga quyidagi ijtimoiy xizmatlar taklif etiladi.

[16] Muallif tomonidan tuzildi.

[17] http://azkurs.org/pars_docs/refs/145/144053/144053.pdf

-uyda ishlashni xohlovchilar institut fondi orqali moddiy ko'mak olishlari mumkin;

-biznesni tashkil etish va uni boshqarish kurslarida o'qish;

-maxsus kurslarni muvaffiqiyatli tamomlaganlar uchun biznes boshlashlaridagi boshlang'ich kapital fond orqali moliyalashtiriladi.

Xulosa va takliflar

1. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash bevosita ushbu aholini kambag'allik darajasidan olib chiqib, iqtisodiyot tarmoqlariga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayon dastlabki yillarda davlat byudjeti xarajatlarini oshirsa-da, uzoq muddatli davrda xarajatlarni minimallashtirib, uning manzilliligini ta'minlaydi.

2. Inklyuziv biznes va ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun davlat dasturlari asosida qayta moliyalash stavkasidan yuqori foizda bo'lmagan imtiyozli kreditlar taqdim etish, nogironlogi bo'lgan shaxslarning bandligini oshiradi.

3. Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'minlanmagan xarajatlarini qisqartirish uchun nogironlik pensiyalari miqdorini eng kam oylik ish haqiga tenglashtirish va ularning biznes ko'nikmalarini shakllantirib, shaxsiy bizneslarini boshlashlari uchun moliyaviy yordam dasturini ishlab chiqish eng muhim omildir.

4. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan bandlik darajasini ko'tarish davlat tomonidan jazolash tajribasini minimallashtirib, moliyaviy rag'bat tizimini kuchaytirish maksimal samaradorlik beradi.

5. O'zbekistonda inklyuzib bandlikni takomillashtirish uchun xorij tajribasiga asoslangan, uzoq muddatga mo'ljallangan izchil davlat ijtimoiy strategiyasini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Chunki nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashda ulardagi o'zlariga xos psixalogik omillar sababidan samaradorlik qisqa vaqtda yuzaga chiqmaydi.

6. O'zbekistonda tashkilotlar tomonidan 3% li kvotalangan ish o'rnini ajratishni monitoring qilish uchun maxsus komissiya tuziladi. Ayni shu komissiya a'zolari tarkibida nogironligi bo'lgan shaxslar mavjud bo'lishi zaxiralanayotgan bo'sh ish joylari nogironlar uchun qulay va munosib bo'lishida o'z hissasini qo'shadi.

Tashakkurnoma

Ushbu tadqiqot ishini olib borishda menga yaqindan yordam bergan ikki jamoani alohida e'tirof bilan tilga olishim joizdir. Bular ga oila a'zolarim, do'st-u birodarlarim hamda ikkinchi jamoa bu hamkablarim va rahbariyatdir. Ota-onamning o'z duolari, rafiqamni doimiy madadlari, akalarim va opamni aniqva porloq kelajakka olib boruvchi maslahatlari, do'stlarimni beminnat turli yordamlari hamda ish faoliyatimni olib borayotgan Osiyo texnologiyalar universiteti, Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasi professor o'qituvchilariga sog'lom muhit uchun chin yurakdan minnatdorchiligimni bildiraman.

Adabiyotlar ro'yxati

1.BMT web-sahifasi: https://sdgs.un.org/goals/goal8

2.Norhasyikin Rozali, Promoting Social Entrepreneurship among Entrepreneur with Disabilities in Contribution for Community // ProQuest, Malaysia Perlis, 2018-y. 2-b jami 5 b. URL: https://doi.org/10.1051/matecconf/201815005101

3.MUCET 2017

4.Akihiro Sugino, Work and the blind identity in Japan with reference to the British experience // ProQuest, London School of Economics and Political Science, 2014-y. 125-b jami 308 b.

5.Gerald L. White, Problem-solving, self-efficacy, community integration, and employment of blind adults // ProQuest, University of Arkansas 2013-y. 10-b. jami 101 b.

6.Margaret Anne, Factors correlated with employment outcomes for individuals who are blind or visually impaired // ProQuest, George Mason University, 2004-y. 3=b. jami 159 b.

7.URL: http://azkurs.org/pars_docs/refs/145/144053/144053.pdf

8.Maritza Fajardo, Pablo J. Castro-Carrasco, Teachers' subjective theories about the employment integration their blind students // ProQuist, Chili 2020-y. 8-b. jami 11 b.

9.Maritza Fajardo 1; Pablo J. Castro-Carrasco

10.Трудоустройство людей с ограниченными возможностями. Сайт Минтруда РФ. [Электронный ресурс]

11.URL: https://rosmintrud.ru/employment/resettlement (дата обращения 13.12.2019).

12.Vadin N.I. Совершенствование механизма трудоустройства инвалидов в России. // Avtoreferat, Moskva – 2020, 4-b. Jami 33 b.

13.Россия в цифрах. 2019: Крат. стат. сб. / Росстат – M., P76 2019 – С. 238.

14.O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida // Lex.uz, 695-son, 08.06.2021 y.

15.Q. Isayev, Har bir inson – bebaho kapital // xalq so'zi, № 34, 18.02.2023-y. 4-b.

16.Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция - Toshkent: Baktria press, 2013, 35-36 betlar, jami 56 b.

17.http://azkurs.org/pars_docs/refs/145/144053/144053.pdf

Umarov Bahrom Norboyevich
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent



https://orcid.org/0000-0003-1085-2437

O‘QIB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINING NEYROPEDAGOGIK ASOSLARI


Annotatsiya: Maqolada o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari nevrologiya, kognitiv psixologiya va pedagogika fanidagi yutuqlarni birlashtirgan fanlararo soha - neyropedagogika nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Unda o‘qib tushunishning asosini tashkil etuvchi neyrokognitiv mexanizmlar, jumladan, diqqat, xotira, neyroplastiklik, hissiy ishtirok va metakognitiv strategiyalar tahlil qilinadi. Maqolada semantik matnni qayta ishlash sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali didaktik yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘z va iboralar: neyropedagogika, o‘qib tushunish, neyroplastiklik, kognitiv jarayonlar, ishlaydigan xotira, diqqat, hissiy intellekt, metakognitsiya, o‘qish kompetensiyasi, neyrodidaktika.



Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qib tushunish o‘quvchilarning funktsional savodxonligining asosiy komponenti sifatida e’tirof etiladi, bu nafaqat akademik muvaffaqiyatni, balki shaxsning mustaqil o‘rganishga, tanqidiy fikrlashga va axborot bilan o‘zaro ta’sir qilishga tayyorligini ham ta’minlaydi. Tez o‘zgarib borayotgan axborot jamiyatida o‘qib tushunish kompetentsiyaning ahamiyati muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv va individual o‘zini o‘zi anglash o‘qiganlarni tanqidiy tushunish, talqin qilish va qo‘llash qobiliyatisiz imkonsizligi bilan dolzarbdir.



Bu ko‘nikma nafaqat akademik yutuqlarning asosini tashkil etadi, balki barqaror kognitiv strategiyalarni ishlab chiqish, meta-fan ko‘nikmalarini rivojlantirish va fuqarolik mas’uliyati kabi kengroq maqsadlarni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘qib tushunish va global rivojlanish strategiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlik asosan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, inklyuziv va adolatli sifatli ta’limni ta’minlash va umrbod o‘qish imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan 4-maqsadda aks etgan[1]. Unda 2030-yilga kelib universal savodxonlikka erishish zarurligini aniq ko‘rsatib beradi, bu nafaqat rasmiy o‘qish qobiliyatini, balki o‘qib tushunishni ham o‘z ichiga oladi. Binobarin, o‘qish savodxonligini rivojlantirish barqaror rivojlanishga erishish, bilimga kirishni va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda tizimni shakllantiruvchi omilga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi PF-5847-sonli farmonida o‘quvchilarning funktsional savodxonligini, jumladan, o‘qish savodxonligini rivojlantirish milliy ta’lim siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida aniq belgilangan[2]. Qolaversa, PIRLS (2021) va PISA (2021) kabi xalqaro qiyosiy tadqiqotlar natijalari o‘zbek o‘quvchilari o‘qish savodxonligining past darajasini namoyish etishi shoshilinch pedagogik va metodologik ta’sirni talab qilishini ko‘rsatadi[3].

D.Amaliya va boshqalarning tadqiqotlariga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining o‘qish motivatsiyasini shakllantirishda ota-onalarning ishtiroki matnni chuqur tushunish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga bevosita ta’sir qiladi[4]. Xuddi shunday, R.A.Sari Sahvan boshlang‘ich maktabda o‘qish ko‘nikmalarini barqaror rivojlantirish uchun asos sifatida oilaviy savodxonlikning muhimligini ta’kidlaydi [5, 71-bet].

Zamonaviy tadqiqotchilar A.E.Fomin[6] va A.E.Kinsel[7] ishlari matnni muvaffaqiyatli tushunishni belgilovchi kognitiv va metakognitiv mexanizmlarni aniqlab beradi.

Mahalliy ilmiy hamjamiyatida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida o‘qish savodxonligi rivojlanishining milliy xususiyatlarini tahlil qiluvchi G.X.Sayfitdinova [8] va lingvistik kompetentsiya va o‘qib tushunisho‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi M.N.Toshpo‘latova [9] ishlari muhim ahamiyatga ega.

M.K.Sharipovaning matnni emotsional-semantik qayta ishlashning uzoq muddatli kontentni saqlashga ta’sirini ko‘rsatuvchi ishi o‘qish savodxonligining neyropedagogik jihatlarini o‘rganishga muhim hissa qo‘shadi[10].

Yuqoridagi ilmiy pozitsiyalarni umumlashtirib, o‘qib tushunish kompetensiyasi alohida ko‘nikma emas, balki kognitiv, lingvistik, tanqidiy va qiymatga asoslangan komponentlarni o‘z ichiga olgan tizimli tuzilma degan xulosaga kelish mumkin. O‘qib tushunish kompetensiyani rivojlantirish ham xalqaro, ham milliy ta’lim siyosatida ustuvor vazifa hisoblanadi. O‘qib tushunishni samarali rivojlantirish maktab, oila va ijtimoiy-madaniy kontekstlarda uzluksizlikni ta’minlaydigan fanlararo yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

O‘qib tushunish kompetensiyasining neyropedagogik asoslari kognitiv nevrologiya, psixolingvistika, kognitiv pedagogika va didaktikadan olingan ilmiy bilimlarning sintezini ifodalaydi, bu esa o‘qishning ma’no yaratishning murakkab jarayoni sifatidagi asosiy kompetensiyasiga qo‘llaniladi. Zamonaviy pedagogikada o‘qib tushunish shunchaki matnni yod olish emas, balki bolaning rivojlanishi, maqsadli o‘rganish va hissiy-harakat tajribasi orqali shakllangan miya faoliyatiga asoslanishi, deb qaraladi[11].

Neyropedagogika fanlararo soha bo‘lib, u miyani o‘rgatish mumkinligi va uning tuzilishi tajriba hamda



muhit ta’sirida o‘zgarib borishini nazarda tutuvchi neyroplastiklik g‘oyasiga asoslanadi[12, 65-bet]. Binobarin, o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligi ta’lim muhitini tashkil etishga va o‘qituvchining metodologik resurslariga, o‘quvchining neyrokognitiv imkoniyatlariga mos kelishiga bog‘liq. Bu yerda pedagogik ta’sirlarni o‘quvchilarning funktsional ritmlari va kognitiv yetukligi bilan muvofiqlashtirish printsipi ayniqsa muhimdir. Shu munosabat bilan, o‘qib tushunish kompetensiyasini yarim sharlararo o‘zaro ta’sirni rivojlantirish, ishchi xotirani faollashtirish, matnni kodlash hamda talqin qilishning sensorimotor jarayonlarini sinxronlashtirishga qaratilgan keng qamrovli neyropedagogik qo‘llab-quvvatlash natijasi sifatida ko‘rib chiqish kerak.

Tadqiqotlarga ko‘ra, yozma ma’lumotni semantik tushunish samaradorligi vizual, eshitish va kinestetik idrokni birlashtirgan multimodal yetkazib berish kanallaridan foydalanish bilan sezilarli darajada oshadi [13]. Ushbu yondashuv miya yarim sharlari po‘stlog‘ining turli sohalarini faollashtiradi, an’anaviy og‘zaki yo‘naltirilgan modeldan farqli o‘laroq, semantik birliklarning chuqur yodlanishini ta’minlaydi. Buni bir vaqtning o‘zida ma’ruza materialini og‘zaki tushuntirishlar, vizual diagrammalar va taktil modellarni amaliy shaklida idrok etgan o‘quvchilar nazorat guruhiga nisbatan semantik tushunishda 50% gacha o‘sish kuzatilgan tajriba tasdiqlaydi. Ushbu ma’lumotlar ko’p kanalli idrok mexanizmini nazarda tutgan holda o‘quv modullarini loyihalash zarurligini ko‘rsatadi.

Kognitiv jarayon sifatida o‘qib tushunish bir necha bosqichlardan o‘tadi:

dastlabki idrok etish;
sintaktik va semantik dekodlash;
aqliy modelni qurish;
shaxsiy tajriba bilan o‘zaro bog‘liqlik;
kontekstual talqin.

Bu bosqichlarning har biri o‘ziga xos neyrokognitiv resurslarni talab qiladi. Masalan, o‘qilgan narsani ishchi xotirada saqlash diqqat va muammoli vaziyatni boshqaruvchi po‘stloqning ishtirokiga bog‘liq, yangi ma’lumotni fon bilimlari bilan birlashtirish esa xotirani shakllantiruvchi markazlarning faolligiga bog‘liq. Diqqat va hissiyotlarga sezgir bo‘lgan miya tuzilmalarining xususiyati tufayli matn mazmunini samarali tushunish bevosita o‘rganish paytidagi hissiy muhitga bog‘liq[13, 59-bet].

Neyropedikaga oid asarlarida bir necha bor ta’kidlanganidek, hissiy ishtirok tushunish jarayoni uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Emotsional qayta ishlash markazi sifatida amigdala uzoq muddatli xotira uchun mas’ul bo‘lgan neyrokonstruktsiya bo‘lgan hipokampus bilan kuchli aloqalarga ega.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy his-tuyg‘ular (qiziqish, hayrat, empatiya) bilan to‘ldirilgan ma’lumotlar kuchliroq sinaptik aloqalar bilan mustahkamlanadi [14]. Bu shuni anglatadiki, hikoya qilish, vizualizatsiya va interaktiv o‘zaro ta’sir orqali yaratilgan o‘qishning hissiy konteksti semantik tushunish va axborotni saqlash chuqurligini oshiradi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy amaliyoti ong xaritalash texnikasi, hikoya qilish, personajlarni vizualizatsiya qilish, musiqa orqali matn tahlili va rol o‘ynashni joriy etishdan ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda [15]. Neyropedagogika tamoyillariga asoslan-

gan bu usullar o‘quvchilarga nafaqat ma’lumotni o‘zlashtirishga, balki hissiy va qadriyatlarga asoslangan o‘rganishga ham imkon beradi, matnni tushunishni sezilarli darajada kengaytiradi va yarim sharlararo aloqalarni mustahkamlaydi.

Neyropedagogika, yosh, ammo tez rivojlanayotgan soha, allaqachon o‘qishni mexanik jarayon sifatida an’anaviy tushunishdan tashqariga chiqishga imkon beradigan vositalarni taklif etadi. U o‘qishni ko‘plab neyropsixologik jarayonlar vositachiligidagi kognitiv-emotsional faoliyat sifatida tasdiqlaydi. Shu ma’noda, o‘qib tushunish kompetensiyasi shunchaki akademik muvaffaqiyatning bir komponenti emas, balki shaxsning intellektual rivojlanishining asosi, o‘zgaruvchan dunyoga moslashish, ma’lumotlar bilan mazmunli muloqot qilish va qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Binobarin, neyropedagogika ta’lim o‘zaro ta’sirining yangi paradigmasini shakllantirish uchun asos yaratadi, bunda markaziy figura matnning o‘zi emas, balki u bilan neyron, hissiy va semantik faoliyat darajasida faol muloqot qiladigan subyektdir.

Tadqiqot natijasi

O‘qib tushunish kompetentsiyasini rivojlantirishning asosiy neyrofiziologik mexanizmlaridan biri xotirani mustahkamlashdir. Neyropedagogik nuqtai nazardan, tushunish uchun o‘qish shunchaki yodlab olishni emas, balki matn komponentlari va ilgari olingan bilimlar o‘rtasida barqaror semantik aloqalarni shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonda asosiy omil uyqu, ayniqsa tinch uyqu fazasi bo‘lib, bu davrda ma’lumot qisqa muddatli saqlashdan uzoq vaqt xotiraga o‘tkazuvchi tuzilmadan, uzoq muddatli saqlashga, mantiqiy fikrlash va xotira saqlovchi tuzilma - bosh miya po‘stlog‘iga o‘tkaziladi [16].

Garvard tadqiqotlari shuni tasdiqladiki, materialni o‘rgangandan so‘ng yetarlicha uxlagan o‘quvchilar uni «tun bo‘yi siqilish»dan dam olmasdan o‘tganlarga qaraganda 35-40% yaxshiroq takrorlaydilar va talqin qiladilar[16].

A.F.Beliskiyning kognitiv nazariyaga ko‘ra, ishchi xotira ma’lumotni qisqa muddatli va cheklangan hajmda saqlaydi. Bu cheklovlar o‘qib tushunishda muhim ahamiyatga ega, chunki haddan tashqari ko‘p axborot xotirani ortiqcha yuklaydi va matnni tushunishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun, neyropedagogika matnni kichik, mazmunan bog‘liq qismlarda berishni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, murakkab fikrlash jarayonlarini dam olish va refleksiv faoliyati bilan almashtirib turish, shuningdek, diagramma, jadval va infografika kabi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi[17, 59-bet].

Neyropedagogikada takrorlashning roli alohida e’tiborga loyiqdir. Samarali takrorlash chiziqli matnni mashq qilishga emas, balki intervalli va o‘zgaruvchan yondashuvlarga tayanishi kerak. Bu, ayniqsa, matnni chuqur talqin qilish uchun zarur bo‘lgan terminologiya, syujet chiziqlari va kontseptual asosni mustahkamlash uchun qimmatlidir.

Xotiradan tashqari, diqqat, tanlangan axborotni qayta ishlash mexanizmi sifatida, o‘qib tushunish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Kiruvchi ma’lumotlar bilan ortiqcha yuklangan miya uzoq vaqt davomida diqqatni jamlash qobiliyatini yo‘qotadi, bu esa matnning asosiy semantik birliklarini ajratish va talqin qilish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, neyropedagogika tashqi ta’sirlarni minimallashtiradigan ta’lim makonini modellashtirishni taklif qiladi, maksimal konsentratsiya davomiyligi 15-20 daqiqadan oshmaydigan vaqt bloklaridan foydalanadi, faol, refleksiv yoki motorli faoliyat bilan almashinadi[14].

Hissiy jihatdan yuklangan ma’lumotlar diqqat va yodlashni kuchaytirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Hissiyotlarni qayta ishlash uchun mas’ul bo‘lgan miya tuzilishi sifatida hayrat, quvonch, qo‘rquv yoki hamdardlikni uyg‘otadigan ma’lumotlar miya tomonidan ustuvor vazifasini bajaradi. Bu shaxsiy tajriba bilan bog‘liq hikoyalar, mojaro va yechimga ega syujet elementlari, shuningdek, aniq estetik yoki axloqiy mazmunga ega matnlar yaxshiroq esda qolishi va aniqroq tushunishni uyg‘otishining sababini tushuntiradi. Binobarin, neyropedagogik yondashuv o‘qituvchilardan o‘qib tushunishni nafaqat kognitiv, balki hissiy va tajriba sifatida ham tashkil qilishni talab qiladi, bunda o‘quvchi o‘zini matnning “hammuallifi” deb his qiladi.

O‘qib tushunish qobiliyatini rivojlantirishning samarali usullaridan biri matn ichidagi semantik aloqalarni vizualizatsiya qilish texnikasidan foydalanishdir. Assotsiatsiya xaritalari, tematik aqliy sxemalar va klaster tuzilmalari semantik qayta ishlash jarayonlarini va parchalanib ketgan tushunchadan yaxlit tushunchaga o‘tishni tashqi tomondan “obyektivlashtirishga” yordam beradi. Bu miyaning vizual sohalarini faollashtiradi, ma’lumotni fazoviy kodlash orqali sinaptik aloqalarni mustahkamlaydi va o‘qishni matn va fikrlashni bir-biriga yaqinlashtiradigan interpretativ modellashtirish jarayoniga aylantiradi [14].

Neyrokognitiv effektni kuchaytiradigan qo‘shimcha omil bu o‘rganishning jismoniyligi, kognitiv faoliyat va motor tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Neyropsixologik ma’lumotlar motor faoliyati (imo-ishoralar, qo‘l yozuvi va obyektlarni boshqarish) bilan shug‘ullanish o‘qilgan materialni saqlash va qayta ishlashni yaxshilashga hissa qo‘shadi. Bu o‘qitish amaliyotida ta’lim loyihalari, teatrlashtirilgan tomoshalar va matnni boshqa ifoda shakl (chizmalar, maketlar, qisqa videolar, sahna ko‘rinishlari va infografikaga aylantirish)lari bilan bog‘liq ijodiy vazifalarni integratsiyalash orqali aks etadi. Bu kontekstdagi asosiy tushuncha meta-fan savodxonligi bo‘lib, u tizimni shakllantiruvchi element

sifatida matnni tushunish kompetensiyasini o‘z ichiga oladi.

O‘qib tushunish nafaqat akademik muvaffaqiyatning asosi, balki insonning hayot davomida o‘rganish qobiliyatini belgilaydigan universal kognitiv ko‘nikmadir. Shuning uchun neyropedagogik yondashuv maktab amaliyotida tizimli ravishda amalga oshirishni talab qiladi, bu o‘qituvchilarni o‘quvchilarning neyrofiziologik xususiyatlari, individual ma’no yaratish strategiyalari, kognitiv uslublari va nutq yetukligi darajalari bilan ishlashga tayyorlashni o‘z ichiga oladi.

Muhokama

Maktab ta’limining dastlabki bosqichlarida o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish ayniqsa muhim vazifadir, chunki bu yoshda matnli ma’lumotlarni talqin qilish va tushunishning kelajakdagi qobiliyatini belgilaydigan kognitiv naqshlarning poydevori qo‘yiladi.

Neyropsixologiyaga ko‘ra, maktabning dastlabki yillari yuqori neyroplastiklik, nutq va tushunish uchun mas’ul bo‘lgan sohalarning faol rivojlanishi, shuningdek, ijro funktsiyalari va o‘zini o‘zi boshqarishni tartibga soluvchi frontal tuzilmalarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu shuni anglatadiki, aynan shu vaqtda pedagogik ta’sir o‘qib tushunishni barqaror kompetensiya sifatida rivojlantirishga eng o‘quvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

T.Kuzminaning neyropedagogik usullar yordamida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarini o‘qitishni optimallashtirishga qaratilgan tadqiqoti vizual tayanchlar, jismoniy faollik, o‘yin modellashtirish va faoliyat rejimlarini o‘zgartirish nafaqat o‘zlashtirilgan ma’lumotlar hajmining sezilarli darajada oshishiga, balki uni refleksiv ravishda qayta ishlash va umumlashtirish qobiliyatining ham sezilarli darajada oshishiga olib kelishini tasdiqladi [15, 59-bet].

Yarim sharlararo o‘zaro ta’sirni rivojlantirish mashqlari (shu jumladan oyna harakatlari, qadamlarni kesib o‘tish va ritmik mashqlar) miyaning ikkala yarim sharini ham faollashtiradi, analitik va intuitiv funktsiyalar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi, bu ayniqsa adabiy va publisistik matnlar bilan ishlashda muhimdir.

O‘qishni o‘rgatishda neyropedagogik yondashuv, nafaqat ma’lum bir usullar to‘plamidan foydalanishni, balki miya rivojlanish naqshlarini chuqur tushunishni ham o‘z ichiga oladi. Xususan, 9-10 yoshgacha vizual idrok ustunlik qiladi, eshitish va mavhum-mantiqiy idroklar esa keyinroq rivojlanadi. Bu matnlarni vizual boyitish, semantik dekodlash va axborot integratsiyasini osonlashtiradigan aqliy tasvirlarni shakllantiradigan illyustratsiyalar, diagrammalar va piktogrammalardan foydalanishni talab qiladi.

Hikoya qilish, dramatizatsiya, rol o‘ynash va matnni ijodiy talqin qilish bilan birlashtirilganda, tushunish jarayonida chuqurroq ishtirok etishga erishiladi. Biroq, o‘quvchilarda bu kompetentsiyani rivojlantirish, ayniqsa, ilg‘or tayyorgarlik, umrbod o‘rganish va kasbiy qayta tayyorlash kontekstida o‘quvchi qiziqish uyg‘otadi.

Yuqori darajadagi neyroplastiklikni namoyon etadigan bolaning miyasidan farqli o‘laroq o‘quvchilar miyasi oldingi tajribani hisobga olish, mulohaza yuritishga tayyorlik, tanqidiy fikrlash va o‘zini o‘zi boshqarish kabi turli yondashuvlarni talab qiladi.

O‘quvchilarda o‘qishni samarali tushunishning asosiy sharti motivatsion-qiymat komponentini faollashtirishdir. Yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga ongli ehtiyoj bo‘lmasa, diqqat va xotira bilan bog‘liq neyron tarmoqlari tizimli ishlamaydi. Bu yerdagi samarali strategiyalarga muammoga asoslangan o‘rganish, amaliy tadqiqotlar, loyihaga asoslangan o‘rganish va o‘qish haqidagi ma’lumotlar muhokama qilinadi, qayta talqin qilinadi va tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan hamkorlikdagi o‘rganish kiradi. Binobarin, o‘quvchilarda matnni tushunish qobiliyati o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlash, tushunishni monitoring qilish, o‘qilganlarni qayta tuzish va sharhlashni osonlashtiradigan metakognitiv amaliyotlarni tashkil qilish orqali rivojlanadi.

Bundan tashqari, o‘quvchi matn mazmuni haqida oldindan gipoteza shakllantiradigan va keyin uni o‘qish jarayonida sinab ko‘radigan “bashoratli o‘qish” deb ataladigan usulning ahamiyatini ta’kidlash kerak. Ushbu yondashuv natijani oldindan ko‘rish va oldindan bilish uchun mas’ul bo‘lgan dopaminergik tizimni faollashtiradi, bu esa qiziqishni oshiradi va uzoq muddatli xotirada ma’lumotni saqlashni yaxshilaydi. Bu usul, ayniqsa, murakkab nazariy matnlar va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashda foydali bo‘lishi mumkin, bu yerda tushunish nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrokka, balki yangi ma’lumotlarning fon bilimlari bilan faol o‘zaro bog‘liqligiga ham asoslangan.

Binobarin, yoshdan qat’i nazar, o‘qib tushunish bir qator neyrokognitiv ko‘nikmalarni maqsadli rivojlantirishni talab qiladi:

— diqqatni jamlash;

— ma’lumotni saqlash;

— ma’noni qayta ishlash;

— metakognitiv monitoring;

— hayot tajribasi kontekstida talqin qilish qobiliyati.

Ushbu komponentlar miya funktsiyasining o‘ziga xos xususiyatlariga qaratilgan va ko‘p kanalli, hissiy jihatdan boy, mazmunli o‘rganishni ta’minlaydigan maqsadli pedagogik ish orqali rivojlanishi mumkin.



Neyropedagogika doirasida o‘qib tushunish qobiliyatini rivojlantirish tizimli yondashuvni talab qiladi, bu yerda tahlil va dizayn birligi shunchaki pedagogik texnologiya emas, balki o‘quvchining kognitiv faoliyatining yaxlit modelidir. Bu yondashuv neyrobiologik, kognitiv, metodologik va didaktik integratsiyalash kabi darajalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu darajalar kesishmasida o‘qituvchining neyropedagogik kompetensiyasi o‘quvchining hozirgi neyrokognitiv rivojlanish darajasiga, ularning individual idrok kanallariga va kognitiv uslublariga muvofiq ta’lim ta’sirlarini moslashtirish qobiliyati sifatida shakllanadi. Bunday kompetensiyaga ega o‘qituvchi “semantik maydonning me’mori” vazifasini bajaradi, ko‘p kanalli matnni idrok etish va uni turli xil tasvirlash shakllari (vizual diagrammalar, modellar, assotsiativ xaritalar, ovoz chiqarib fikrlash, munozaralar va ijodiy talqinlar) orqali qayta tiklash uchun sharoit yaratadi.

O‘quv jarayonida nafaqat nutq sohalari, balki hissiy javob, fazoviy fikrlash, motor rejalashtirish va o‘zini o‘zi boshqarish uchun mas’ul tuzilmalar ham faollashadi. Bu, o‘z navbatida, o‘rganishni nafaqat samaraliroq, balki ekologik jihatdan ham do‘stona qiladi, u kognitiv resurslarni kamaytirmaydi, balki yangi neyron aloqalarini yaratish orqali ularni kengaytiradi.

Ta’kidlash joyizki, neyropedagogika barcha o‘quvchilar uchun bir xil qo‘llaniladigan universal yechimlar yoki usullarni taklif qilmaydi. Aksincha, u shaxsiylashtirish va moslashuvchanlikka qaratilgan. Ba’zi o‘quvchilar ko‘proq vizual yordamga muhtoj, boshqalari og‘zaki matnga muhtoj, boshqalari esa strukturalashtirish va sxemalashtirishga muhtoj. Bu o‘quvchining kognitiv xususiyatlarini baholash usulni tanlashdan oldin bo‘lishi kerak, degan muhim xulosaga olib keladi. Bunga tezkor baholash, o‘qish strategiyalarini kuzatish va matnni talqin qilishdagi xatolarni tahlil qilish orqali erishish mumkin. Keyin olingan ma’lumotlar ta’lim strategiyalarini moslashtirish uchun ishlatiladi.

Neyropedogetik tamoyillarning amaliy qo‘llanilishi modulli o‘quv muhitida eng samarali hisoblanadi, bu yerda har bir modul maqsad qo‘yish, faol harakat, ma’lumotni ko‘p sensorli qayta ishlash va keyingi mulohaza bilan birga keladi. Ushbu tashkil etish diqqatni strukturalashtirish, kognitiv faollikni kuzatish va o‘qib tushunish uchun ichki strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. O‘quvchilar matnni qayta ishlashda faol ishtirokchilarga aylanadigan o‘quv modeli ayniqsa samarali: ular matn haqida savollar beradilar, diagramma tuzadilar, o‘qiganlari haqida mulohaza yuritadilar, uni shaxsiy tajriba bilan bog‘laydilar, gipotezalarni shakllantiradilar va guruh muhokamalarida ishtirok etadilar.

Neyropedagogik yondashuvni amalga oshirishning istiqbolli shakllaridan biri bu o‘qib tushunishni o‘yinlashtirishdir. Neyropsixologik rivojlanish tamoyillariga asoslangan raqamli ta’lim mahsulotlarini ishlab chiqish (masalan, diqqat, mantiq, vizual-fazoviy idrok, tez o‘qish va semantik rekonstruksiya uchun mashg‘ulotlar) ayniqsa mashg‘ulot ularning yoshi va o‘qish savodxonligi darajasiga moslashtirilgan bo‘lsa, o‘quvchilarning matn bilan ishlashga qiziqishini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

O‘quvchilarning o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish quyidagilarni talab qiladi:

– dalillarga asoslangan nevrologiyaga e’tibor qaratish;

– pedagogik moslashuvchanlik va shaxsiylashtirilgan ta’lim;

– o‘qishning hissiy va motivatsion komponentlariga e’tibor berish;

– mazmunli matnni qayta ishlash uchun ko‘p sensorli muhit yaratish;

– kognitiv mashg‘ulotlarni matnni o‘rganish jarayoniga integratsiya qilish;

– o‘zini o‘zi refleksiv va semantik talqin qilishning meta-subyekt ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Xulosa

1. O‘qib tushunish kompetensiyasi neyropedagogik ta’sirlar va neyroplastiklik vositachiligidagi kognitiv, hissiy va motivatsion jarayonlarning murakkab o‘zaro ta’siri orqali rivojlanadi. O‘qib tushunishni samarali o‘qitish vizual idrok, qayta ishlash, diqqat, uzoq muddatli xotira va matnning semantik integratsiyasi uchun mas’ul bo‘lgan neyron zanjirlarini tizimli ravishda rag‘batlantirishni talab qiladi. Miyaning ikkala yarim sharini faollashtiradigan usullardan, jumladan, vizual ko‘rsatkichlar, assotsiativ xaritalar, kognitiv modellashtirish va kontekstga asoslangan o‘rganishdan foydalanish chuqur va mazmunli o‘qish uchun mas’ul bo‘lgan neyron tarmoqlarini mustahkamlashga yordam beradi.

2. O‘qib tushunish kompetensiyasini o‘rganuvchining yoshga bog‘liq va individual neyrofiziologik xususiyatlarini hisobga olmasdan olish mumkin emas. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, neyrorivojlanish sur’atlarining o‘zgaruvchanligi metakognitiv strategiyalarning rivojlanish darajasiga, shuningdek, ma’lumotni talqin qilish, bashorat qilish va baholash qobiliyatiga asoslangan vazifalarni moslashuvchan differentsiatsiyalashni talab qiladi. Neyropedogedik diagnostika vositalaridan foydalanish tushunishdagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida aniqlash, shaxsiylashtirilgan o‘qish traektoriyalarini ishlab chiqish va doimiy kognitiv qiyinchiliklarning oldini olish imkonini beradi.

3. O‘qib tushunishni rivojlantirishga neyropedagogik yondashuvni qo‘llash o‘quv jarayoniga o‘qituvchi, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi tuzilgan o‘zaro ta’sirlarni kiritishni talab qiladi, bunda o‘qituvchi neyrokognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi vazifasini bajaradi. Bu esa rivojlantiruvchi til muhitini yaratishni, hissiy jihatdan yuklangan materiallar orqali ichki motivatsiyani faollashtirishni va neyroplastik o‘zgarishlarni boshlash uchun zarur bo‘lgan doimiy kognitiv zo‘riqishni keltirib chiqaradigan o‘qitish amaliyotlaridan foydalanishni talab qiladi. Binobarin, o‘qib tushunishni rivojlantirish nafaqat lingvistik vazifa sifatida, balki pedagogik tartibga solish va ilmiy asoslangan ta’lim loyiha orqali miya tuzilmalarini yetuklashtirishga qaratilgan maqsadli ta’sirlar natijasi sifatida ham qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs
2. https://lex.uz/ru/docs/-4545884
3. https://gov.uz/oz/uzedu/news/view/4076
4. Амалия Д., Ирайанти Р., Нооркхалисах Н. Влияние участия родителей на развитие читательской грамотности учащихся начальных классов. *Jurnal Cahaya Edukasi*, 2025. [Электронный ресурс]. URL: https://jurnalcahayaedukasi.com/index.php/jce/article/view/269.
5. Сари Сахван, Р.А. Роль семейной грамотности в развитии навыков чтения у школьников. *Jurnal Al-Fatih*, 2025. [Электронный ресурс]. URL: http://www.jurnal.stit-al-ittihadiyahlabura.ac.id/index.php/alfatih/article/view/610.
6. Фомин А.Е. Метакогнитивный мониторинг решения заданий на проверку знаний: психологические предикторы и связь с академической успешностью // Психолого-педагогические исследования. –СП; 2017. Т. 9, № 4. С. 33–42.
7. Кинцель А.Е. Модель метакогнитивных навыков в решении учебных задач и критерии ее эффективности // Антропологическая дидактика и воспитание. 2022. -Т. 5, № 3. С. 218–228.
8. Сайфитдинова Г.Х. Методические основы формирования читательской компетенции у младших школьников. *Педагогика ва психология журнали*, –Бешкек; 2023.
9. Тошпулатова М.Н. Языковая компетенция как фактор понимания прочитанного у учащихся основной школы. Fan, ta’lim va innovatsiyalar, –T; №4, 2022.
10. Шарипова М.К. Эмоционально-смысловое восприятие текста и развитие долговременной памяти. O ‘ZMU xabarlari, –T; №2, 2023.
11. Ржевская Н.В. Нейропедагогический подход к анализу понятия «компетентность» // *Педагогика және психология*. – Алматы: КазНПУ им. Абая, 2016. – №2 (27). – С. 63–70. [Электронный ресурс]. – url: https://rmebrk.kz/journals/4497/23535.pdf (дата обращения: 05.01.2026).
12. Абдираимов Ш. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолашнинг илмий-методик асослари. Пед.фан.фалс. док... дисс. –Тошкент. 2022. –Б.148.
13. Чурило Н.В. Нейропедагогика как основа эффективного образовательного процесса // Auditorium. – 2019. – №4. – С. 70–75. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/neyropedagogika-kak-osnova-effektivnogo-obrazovatelnogo-protsessa (дата обращения: 05.01.2026).

14. Рахматова Ш.Р. Учебный текст как средство формирования критического мышления учащихся//Современные проблемы науки и образования. –Бешкек; – 2022. – №6. – С. 95–100.

15. Кузьмина Т. Оптимизация обучения младших школьников на основе нейропедагогического подхода: исследовательская работа.– М.: Методическое портфолио, 2010. – 72 с.– url: http://moemesto.ru/metodportfolio/file/14825417/display/ (дата обращения: 05.01.2026).

16. Лушникова И.И. Применение данных нейропедагогики при обучении деловому английскому языку на основе интегративно-дифференцированного подхода // *Современное языковое образование: инновации и перспективы развития*. – Иркутск: ИГЛУ, 2014. – С. 85–91. – url: http://csl.isc.irk.ru/bd/ucheb (дата обращения: 05.01.2026).

17. Белицкий А.Ф. Нейропедагогический подход на уроках русского языка и литературы (из опыта работы) // Методическая разработка. – 2023. – url: https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/622009 (дата обращения: 05.01.2026).

Siddikov Isomiddin Xakimovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Axborotlarga ishlov berish va boshqarish tizimlari kafedrasi professor,t.f.d

Ganiyev Akmal Abduhalilovich
Xalqaro Nordik universiteti
Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasi katta o‘qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss7/733

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI MONITORING TIZIMLARINING NEFT-KIMYO KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIGI



Orcid: https://orcid.org/0009-0006-9402-1508

Orcid: https://orcid.org/0000-0002-6983-6709

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarining neft-kimyo korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tadqiq etilgan. Taklif etilayotgan monitoring yondashuvi texnologik ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida tahlil qilish hamda me’yoriy holatdan og‘ishlarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Natijada favqulodda vaziyatlarning oldi olinadi, avariya ehtimoli kamayadi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta’minlanadi.

Kalit so‘zlar: neft-kimyo korxonalari, iqtisodiy samaradorlik, mantiqiy-grafik model, favqulodda vaziyat, sun’iy intellekt, favqulodda to‘xtash.

Kirish

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida energiya resurslari va neft mahsulotlari bozorlarini bosqichma-bosqich erkinlashtirish haqida so‘z yuritiladi. Ushbu islohotlar bozor tamoyillarini joriy etish, raqobatni kuchaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo‘lib, shu bilan birga aholini ijtimoiy himoya qilish kafolatlarini saqlab qolish ham nazarda tutiladi.[1]

Neft-kimyo korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi va texnologik xavfsizlik darajasi iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Favqulodda to‘xtashlar va avariyalar ishlab chiqarishning majburiy to‘xtashi, rejalashtirilmagan ta’mirlash ishlari, ortiqcha energiya sarfi hamda mahsulot yo‘qotishlari kabi sezilarli iqtisodiy zararlarni keltirib chiqaradi.



Shu sababli ishlab chiqarish jarayonlarini barqarorlashtirish va yo‘qotishlarni minimallashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarining joriy etilishi texnologik ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida tahlil qilish va me’yoriy holatdan og‘ishlarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv favqulodda holatlarning oldini olishga xizmat qilib, avariya ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Monitoring tizimlari tomonidan xavfli parametrlarning oldindan aniqlanishi natijasida favqulodda to‘xtashlar soni qisqaradi, avariya oqibatida yuzaga keladigan rejalashtirilmagan ta’mirlash va tiklash xarajatlari kamayadi hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta’minlanadi.

An’anaviy boshqaruv tizimlarida avariya yuz bergandan keyin amalga oshiriladigan chora-tadbirlar katta moliyaviy yo‘qotishlarga sabab bo‘lsa, sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari profilaktik boshqaruvni ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ali F. Dalain o‘zining maqolasida sanoat tizimlari uchun intellektual boshqaruvga mo‘ljallangan analitik boshqaruv tizimlarini yaratish usullarini ishlab chiqqan. Tadqiqotda ishlab chiqilgan model sensor-signallarni tahlil qilish, ma’lumotlar integratsiyasi va real-vaqtli monitoringni qo‘llab-quvvatlovchi algoritmik yondashuvni taqdim etadi. [2]

I.Kh. Siddikov va A.A. Ganiyevning maqolasi esa neft-kimyo sanoatidagi texnologik jarayonlarni diagnostika va xavf tahlili nuqtai nazaridan o‘rganadi. Ular ishlab chiqqan algoritmik yondashuv texnologik holatlarni aniqlashda matematik modellashtirish va intellektual tahlilni birlashtiradi. [3]

I.Kh. Siddikov va A.A. Ganiyevning maqolasi Ushbu maqolada neft-kimyo sanoati korxonalarida texnologik xavfsizlikni ta’minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish va boshqarishning mantiqiy vaziyatli modelni qurish masalasi ko‘rilgan.[4]

A.F. Egorov, T.V. Savitskaya va P.G. Mikhailovaning maqolasida esa kimyo sanoatidagi xavflarni baholash va xavfsizlikni boshqarish masalalari yoritilgan. Mualliflar xavf tahlilining ehtimollik modellarini ishlab chiqqan bo‘lib, u texnologik tizimlarda ishonchlilik, avariya xavfi va inson omilini modellashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar texnologik jarayonlar uchun intellektual xavf-boshqaruv tizimlarini yaratishda metodologik poydevor hisoblanadi.[5]

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavjud neft-kimyo ob’ektlari murakkab xususiyatga ega bo‘lib uning tarkibida turli xil vazifalarni bajaruvchi texnologik ob’ektlardan iboratdir. Bunda ishlab chiqarish korxonolari yaxshi strukturaga ega bo‘lib ularda murakkab kimyo-fizikaviy jarayonlar sodir bo‘ladi. Har bir kimyoviy korxonani ma’lum bir mahsulot yoki yarim mahsulotni olish uchun yagona birlik sifatida ishlaydigan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari to‘plami neft maxsulotlariga ishlov berish sifatida qarash mumkin.

Kimyoviy va texnologik jarayonlar tashqi va ichki muhit omillarining doimiy ta’siri ostida bo‘ladi. Tashqi ommilar sifatida xom ashyo sifat ko‘rsatgichini doimi ravishda o‘zgaruvchanligi, energiya ta’minotidagi uzilishlar xamda boshqaruv tizimining topshiriqlarini o‘zgarishi va tashqi muxitning ta’siri qaralishi mumkin.

Ichki omillar sifatida boshqaruv jarayonining noto‘g‘ri qarorlari yoki boshqaruv tizimlari texnologik jihozlarining ishlamay qolishi va texnologik nosozliklar, shuningdek jarayon dinamikasining o‘zgaruvchanligi misol bo‘lishi mumkin. Ushbu ommillar natijasida turli xil nosozliklar sodir bo‘lishi mumkin.

Neft-kimyo korxonalari va agregatlari holatini to‘liq aniqlash uchun texnologik jarayonlarning axborot va boshqaruv tizimi darajasida tashqi va ichki muhit

parametrlarini tavsiflovchi ma'lumotlarni to'plash va o'zgartirishni tashkil qilish kerak. Bu xom ashyo, energiya, tuzatuvchi boshqaruv harakatlari, ob – havo sharoiti va boshqa parametrlarini, shuningdek ob'ekt agregatlari, boshqaruv tizimlari va texnologik jarayonlar parametrlarini nazorat qilishdir kiriadi.

Kimyoviy va texnologik jarayonlarning holatini nazorat qilish boshqaruv tizimlari uskunalari, hamda boshqaruv qurilmalarining bosqichma-bosqich va to'satdan ishlamay qolishi ehtimolini tahlil qilish uchun axborot kanallarini o'z ichiga olishi kerak. Axborot va boshqaruv tizimining ushbu darajasida ishlatiladigan texnik vositalar majmuasining imkoniyatlariga qarab, kimyoviy-texnologik tizim holatlarini tasniflash va texnologik ish rejimlarini tuzatish yoki ta'mirlash ishlarini bajarish to'g'risida qaror qabul qilish, ularni xizmat ko'rsatish va boshqarish xodimlari yoki mahalliy boshqaruv davrlarining ijro etuvchi tizimi orqali amalga oshirish mumkin.[6]


Murakkab tizimlarning xavflilik darajasini tahlil qilish va baholash usullarini umumlashtirish asosida ularda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xavflarni aniqlash, tahlil qilish hamda xavfsizlikni boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv tizimlarning hayotiy siklining barcha bosqichlarida xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi.

Xususan, neft-gaz sanoatida xavfning hosil bo'lish manbalari sifatida kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks tahlil qilish, avariyalar yuz bergan holatlarda hamda normal ekspluatatsiya jarayonida inson salomatligi va atrof-muhitga ko'rsatiladigan salbiy ta'sirni baholash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, kimyoviy ishlab chiqarish xavfsizligini boshqarish tizimini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega.

Mazkur jarayonda mantiqiy-grafik modellar muhim vosita bo'lib, ular favqulodda vaziyatlarning dastlabki qo'zg'atuvchi hodisalari bilan ularning keyingi rivojlanish bosqichlari o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash imkonini beradi. Natijada, turli xavf-xatarlarning yuzaga kelish mexanizmlarini oldindan baholash va ularni samarali boshqarish uchun ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi. [3; 652 b].

Ular quyidagicha ifodalanadi: semantik tarmoqlar (yoki semantik grafalar) yoki senariy tarmoqlari. Semantik tarmoqning (grafaning) uchlari fan sohasining ba'zi tushunchalarini (vaziyatlar, omillar va boshqalar) aks ettiradi.

Mantiqiy-grafik modelni shartli ravishda bir qator darajalarga bo'lish mumkin, ularning har biri avariya yoki uning oqibatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishining ma'lum bir bosqichini aks ettiradi. Avariya rivojlanishining asosiy darajalarini va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi umumlashtirilgan Mantiqiy-grafik model quyida keltirilgan.



1-rasm. Neft-kimyo ob'ektlarining avariyalarini tahlil qilishning umumlashtirilgan mantiqiy-grafik modeli

1. Birinchi daraja avariyaning sabablarini aks ettiradi (P_o, $o=\overline{1,O}$): texnologik og'ish yoki buzilish; tashkiliy og'ish yoki buzilish; boshqaruv tizimlarining ishlamay qolishi (*O* – favqulodda vaziyatlarga olib keladigan sabablarning umumiy soni).

2. Ikkinchi daraja haqiqiy favqulodda vaziyatni aks ettiradi (S_j, $j=\overline{1,M}$ – favqulodda vaziyatlarning umumiy soni).

3. Uchinchi daraja ba'zi avariyalarni amalga oshirishdan kelib chiqadigan asosiy xavf omillarini (F_i,$i=\overline{1,n}$) aks ettiradi (*n* - birlamchi xavf omillari soni, $n \in N$; *N* – avariyalar yuz berishi mumkin bo'lgan xavf omillarining umumiy soni).

4. To'rtinchi daraja birlamchi omillarni (F_l, $l \in N$) amalga oshirishdan kelib chiqadigan ikkilamchi xavf omillarini (F_i) aks ettiradi va avariyaning keyingi rivojlanishini anglatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu daraja bo'lmasligi mumkin, ya'ni asosiy xavf omillari to'g'ridan-to'g'ri turli xil xavf turlariga olib kelishi mumkin.

5. Oxirgi daraja xavf turlarini aks ettiradi (R^k, $k=\overline{1,K}$ avariyada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf turlari). Bu yerda quyidagi belgilar qabul qilingan: R^1 – iqtisodiy, R^2 – ijtimoiy va R^k – ekologik zararning tabiati bo'yicha xatarlar.

Xavfni tahlil qilishning mantiqiy modeli - bu favqulodda hodisalarning rivojlanish ketma-ketligini mantiqiy iboralar va bayonotlar to'plami. U mantiqiy-grafik modelga muvofiq shakllantiriladi va barcha turdagi favqulodda vaziyatlar uchun qo'llaniladi.[4]

Tahlil va natijalar

Neft-kimyo korxonalarida sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik barqarorligini oshirish bilan bir qatorda, favqulodda to'xtashlar va avariyalar bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan mantiqiy-grafik model asosida avariyalarning kelib chiqish sabablari, ularning rivojlanish bosqichlari hamda yakuniy oqibatlari tizimli ravishda tahlil qilindi.



Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, texnologik parametrlarning me’yoriy qiymatlardan og‘ishi, boshqaruv tizimlaridagi nosozliklar va tashkiliy kamchiliklar favqulodda vaziyatlarning asosiy qo‘zg‘atuvchi omillari hisoblanadi. Sun’iy intellekt algoritmlari asosida ushbu og‘ishlarni real vaqt rejimida aniqlash va prognozlash imkoniyati mavjud bo‘lib, bu avariyalar rivojlanishining dastlabki bosqichlarida profilaktik choralar ko‘rishga sharoit yaratadi.

Iqtisodiy jihatdan qaralganda, favqulodda to‘xtashlar sonining kamayishi ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita yo‘qotishlarning qisqarishiga olib keladi. Jumladan, majburiy to‘xtashlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmining kamayishi, ortiqcha energiya sarfi, rejalashtirilmagan ta’mirlash ishlari va ishchi kuchi bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar sezilarli darajada kamayadi. Bu esa ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsientining oshishiga va operatsion samaradorlikning yaxshilanishiga olib keladi.

Shuningdek, mantiqiy-grafik model asosida xavf omillarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik turlarga ta’siri baholanib, sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari ushbu xavflarning kompleks boshqaruvini ta’minlashi aniqlandi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi saqlanib, korxonaning umumiy iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari neft-kimyo korxonalarida favqulodda vaziyatlarning dastlabki sabablarini erta aniqlash imkonini berib, avariyalar rivojlanishining oldini olishda samarali vosita hisoblanadi.

2. Mantiqiy-grafik modeldan foydalanish avariyalar va xavf omillari o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tizimli ravishda aniqlashga hamda xavflarni kompleks baholashga imkon yaratadi.

3. Favqulodda to‘xtashlar sonining kamayishi hisobiga sof ishlab chiqarish hajmining o‘rtacha 2,3%ga oshishi ta’minlanadi, bu esa monitoring tizimlarining iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

4. Ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorlashuvi energiya, xom ashyo va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirib, rejalashtirilmagan xarajatlarni minimallashtiradi.

5. Sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari nafaqat texnologik va ekologik xavfsizlikni oshiradi, balki neft-kimyo korxonalarining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» farmoni.

2. Ali F. Dalain Development methods of implementing analytical management information systems for technological monitoring of complex industrial purposes. IJCSNS International Journal of Computer Science and Network Security, VOL.19 No.4, April 2019 p. 79-86

3. Siddikov I.Kx., Ganiev A.A. Algorithms For Diagnostics of Technological States in Petrochemical Industry. 5th International CEO Communication, Economics, Organization & Social Sciences Congress. 2022y -P. 651-656

4. Siddikov I. X., Ganiyev A.A. Neft-kimyo uskunalari xavfsizligini boshqarishning mantiqiy-grafik modeli. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2025-yil, maxsus son. (№ 003) 50-57b.

5. А.Ф. Егоров, Т.В. Савицкая, П.Г. Михайлова. Методы и модели анализа риска и управления безопасностью химических производств. Теоретические основы химической технологии, 2010, том 44, №3 -С 341-345

6. Ganiyev Akmal Abduhalilovich. Neft-kimyo sanoatida boshqaruv jarayonlarining tizimli tahliliy yondashuvi. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi: amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili, muammolar va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami, 2025-yil, 263-266b



Aziza Azimova Alisher qizi
Xalqaro Nordik Universiteti katta o'qituvchisi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Phd mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0005-0130-9637

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MORFOLOGIK USULDA YASALGAN KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARI


Annotatsiya: So‘z yasalishi tildagi yangi so‘zlarni yaratish jarayonini anglatadi va morfologik usul bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Morfologik usulda so‘z yasalishi so‘zlarning o‘zgarishi, qo‘shimchalar qo‘shish orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqola morfologik usulda so‘z yasalishining tarixiy rivojlanishi hamda morfologik usulda konchilik leksik birliklari yasalish usullarini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: affiksatsiya, prefix, suffix, kompozitsiya, derivatsiya, yasovchi qo’shimcha, yangi ma’no, morfologik usul.



KIRISH

Qadimiy davrlardan boshlab, so‘z yasalishining morfologik usullari tilning rivojlanishi va boyishida katta rol o‘ynagan. O‘rta asrlar va yangi davrlarda so‘z yasalishi jarayonlari yanada tizimlashtirilgan va ilmiy tadqiqotlar orqali yanada chuqurroq o‘rganilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi 65000 ga yaqin so‘zning 75 – 80% so‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali ya’ni morfologik usul orqali so‘z yasalganligi fikrimizni isbotlaydi [10; 233-b.]. Quyida morfologik usulda so‘z yasalishini davrlar miqyosida rivojlanish tarixini ko‘rib chiqamiz:



1. Qadimiy Davrlar

Qadimiy tillarda so‘z yasalishi morfologik usul orqali amalga oshirilgan. Bu davrda ko‘proq affiksasiya (qo‘shimchalar qo‘shish) va so‘z birikmalari orqali yangi so‘zlar hosil qilingan. Misol uchun, qadimiy turkiy tillarda affiksasiya usuli orqali yangi so‘zlar yaratish keng tarqalgan bo‘lgan. Bu davrda affikslar orqali so‘zlarning ma’nosini kengaytirish va so‘zlarni yangi shakllarga o‘zgartirish orqali tilning boyishi amalga oshirilgan.

2. O‘rta Davrlar

O‘rta asrlarda morfologik so‘z yasalishi metodologiyasi davom etdi, ammo bu davrda tilning normativ asoslari shakllanib, so‘z yasalishi jarayoni yanada rivojlandi. O‘rta asrlarda yozma adabiyot va ilmiy asarlar orqali so‘z yasalishi ko‘proq tizimlashtirildi. Ko‘plab tillarda, shu jumladan, o‘zbek tili, affiksasiya usuli keng qo‘llanilgan. O‘zbek tilshunosligidagi morfologiya sohasi o‘ziga xos taraqqiyot tarixiga ega. Tarixiy manbalarga ko‘ra, turkiy til morfologiyasini ta’rif qilgan o‘rta asr tilshunoslaridan biri Asiruddin Abu Hayyon (1256–1345) bo‘lib, u Mahmud Koshg‘ariy asaridan foydalanishi mumkin. Abu Hayyonning “Kitobul idrok lil-lisonil atrok” asaridan foydalangan holda, XIV–XV asrlarda yozilgan “Attuhfatuz zakiya fil lug‘atit turkiya” asarida o‘zbek tilining morfologik xususiyatlari birinchi marta sistemali ravishda bayon qilinadi. Ikkala asar muallifi o‘z izlanishlarida arab grammatikasi an’anasi va terminologiyasiga asoslanadi, lekin turkiy tilning agglyutinativ tabiatini o‘z tavsiflarida aks ettirishga intilgan [11;17.].

3. Yangi Davrlar

Yangi davrlarda, xususan, 19-asr va 20-asr boshlarida, morfologik so‘z yasalishi haqida ilmiy tadqiqotlar va grammatik tavsiflar paydo bo‘ldi. Lingvistika ilmfanining rivojlanishi bilan morfologik yasalish jarayonlari yanada chuqur o‘rganila boshlandi. Grammatik qoidalar, affiksatsiya va kompozisiya kabi morfologik usullar batafsil tavsiflangan.

· 19-asr: Tillarning morfologik tuzilishi va so‘z yasalishi haqidagi ilmiy tadqiqotlar boshlanadi. Tilshunoslar, masalan, Ferdinand de Saussure, morfologik strukturalarni o‘rganish bilan birga tilning so‘z yasalishi jarayonlarini ham o‘rganishga kirishdilar.

· 20-asr: Lingvistika va tilshunoslik sohasida morfologik so‘z yasalishi jarayonlariga oid nazariyalar va modellarga qiziqish ortdi. O‘zbek tilshunosligida ham bu davrda so‘z yasalishiga oid yangi tadqiqotlar va maqolalar paydo bo‘ldi.

4. Hozirgi Davr

Bugungi kunda morfologik so‘z yasalishi yanada zamonaviy usullar va texnologiyalar yordamida o‘rganilmoqda. Kompyuter lingvistika, tilning statistika asosidagi modellarini yaratish, va korpus tahlil qilish orqali so‘z yasalishi jarayonlari yanada aniqroq va kengroq tahlil qilinmoqda. Morfologiya sohasida hozirgi davr ko‘plab darslik, qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda. Bu borada N.Mahmudov, A.Nurmonovlarning “Nazariy gramatika” (1995), G‘.Abduraxmonovaning “O‘zbek tili gramatikasi” (1999), R. Sayfullaeva, B. Mengliev, T. Boqieva va boshqa tadqiqotchilar tomonidan esa substansial yo‘nalish asosida “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya” qo‘llanmasi, Q.Sapaevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili; morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya (2009) va boshqa darsliklar nashr etilganligi alohida e’tiborga molikdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Affiksatsiya usuli nafaqat boshqa sohalarda balkim, konchilik sohasida ham so‘z yasalishining eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Bu usul orqali konchilikka oid yangi so‘zlar va terminlar hosil qilinadi. Morfologik usul orqali yasalgan konchilik va metallurgiya terminlari soha bilimlarini aniq ifodalash va tushunishni osonlashtirishga yordam beradi. Bu usul tilni boyitishda va texnik sohalarda yangi terminlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Kubryakova E.S ta’kidlaganidek, affiksasiya usulida “Suffiks va prefikslar, ya’ni so‘z yasovchi formatlar o‘zida tilning eng kichik (minimal)

so‘z yasovchi, qurilish elementlarini aks ettiradi” [5; 54-b.]. I.V.Arnold esa morfologik usulda so‘z yasash usullarini bir necha turlarga bo‘lib, ular yangi leksik birliklar hosil qilishda faol ishtirok etishini ta’kidlab o‘tgan.

G.B. Antrushina o‘zining «Ingliz tili leksikologiyasi» inglizcha kitobida uch xil so‘z yasash usulini ko‘rsatib o‘tgan: derivation-derivasiya, somposition-kompozisiya, conversion-konversiya [3; 118 – 119-b.]. P.V. Saryovning statistik ma’lumotlariga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, so‘z yasash, so‘zdan so‘z yasash, leksik-semantik kabi usullar yangi so‘zlarning vujudga kelishida asos bo‘lib xizmat qiladi [8; 11-b.]. Morfologik usulda so’z yasalishining quyidagi turlari mavjud:

a) affiksatsiya (derivation);
b) kompozitsiya (composition);
c) tovush o‘zgarishi (sound interchange);
d) taqlid (sound imitation/onomatopoetic shords);
e) konversiya (conversion);
f) qisqartirish (shortering; abbreviation and clipping) [4;84.]

ASOSIY QISM

Affiksatsiya usulini 2 turga: so‘zga prefikslar (old qo‘shimchalar) va suffikslar (orqa qo‘shimchalar) qo‘shish orqali yangi so‘zlar hosil qilinishini ingliz va o‘zbek tillarida konchilik leksik birliklari misolida tahlilini ko‘rib chiqamiz. 1. O‘zbek tilida affiksatsiya usulida suffikslar (orqa qo‘shimchalar) qo‘shish orqali yasalgan konchilik leksik birliklar:

• **Konchi** (Kon + -chi): “Kon” so‘ziga “chi” suffiksi qo‘shilib, kon qazib olish bilan shug‘ullanadigan shaxsni anglatadi.

• **Rudachi** (Ruda + -chi): “Ruda” so‘ziga “-chi” suffiksi qo‘shilib, ruda qazib olish bilan shug‘ullanuvchi shaxsni bildiradi.

• **Qazuvchi** (Qazib olish + -uvchi): “Qazib olish” fe’lidan “-uvchi” suffiksi qo‘shilib, qazib olish jarayonini amalga oshiruvchi shaxsni ifodalaydi.

• **Kumushchi** (Kumush + -chi): Kumush (metall) so‘ziga “-chi” qo‘shimchasi qo‘shilganda, kumush qazib olish bilan shug‘ullanuvchi shaxsni anglatadi.

• **Zararsizlantirmoq** (Zarar + -siz + -lantirmoq): “Zarar” so‘ziga “-siz” (zararsiz) va “-lantirmoq” fe’l qo‘shimchalaridan foydalanib, zararni yo‘qotish jarayonini bildiruvchi so‘z yaratilgan.

• **Rudali (minerallar)** (Ruda + -li): “Ruda” so‘ziga “-li” qo‘shimchasi qo‘shilib, ruda tarkibidagi minerallarni anglatadi.

• **Tuzilma** (Tuzil + -ma): “Tuzil” fe’lidan “-ma” qo‘shimchasi yordamida hosil qilingan so‘z, metall yoki minerallarning tuzilishini bildiradi.

Ingliz tilida affiksatsiya usulida **suffikslar** (orqa qo‘shimchalar) qo‘shish orqali yasalgan konchilik leksik birliklar:

• **Depletion** (Deplete + -tion): “Deplete” fe’liga “-tion” suffiksi qo‘shilib, biror narsaning kamayishi yoki tugashi jarayonini ifodalaydi.

• **Extraction** (Extract + -tion): “Extract” fe’liga “-tion” qo‘shimchasi qo‘shilib, biror moddani ajratish yoki chiqarish jarayonini bildiradi.

• **Drilling** (Drill + -ing): “Drill” fe’liga “-ing” qo‘shimchasi qo‘shilib, burg‘ulash jarayonini bildiradi.

• **Smelting** (Smelt + -ing): “Smelt” fe’liga “-ing” qo‘shimchasi qo‘shilib, metallarni eritish jarayonini ifodalaydi.

• **Concentration** (Concentrate + -tion): “Concentrate” fe’liga “-tion” qo‘shimchasi qo‘shilib, biror moddani yo‘naltirish jarayonini bildiradi.

• **Conveyor** (Convey + -or): “Convey” fe’liga “-or” qo‘shimchasi qo‘shilib, ko‘mirning sinishini kamaytiradigan qo‘llab-quvvatlash ramkalarini ifodalaydi.

Shuningdek, prefixlar ya’ni oldi qo‘shimchalar yordamida konchilik leksik birlarini yasalish usullari ham mavjud buni quyidagi misollar yordamida ko‘rib chiqamiz. O‘zbek tilida ba- , be-, ser-, no- kabi old qo’shimchalar yordamida yasalgan so‘zlar sifat so’z turkumi doirasida uchraydi:

• **Noqulay** (shaxta tuzilmasi): “Qulay” so‘ziga “no-“ prefiksi qo‘shilib, shaxta tuzilmalaridagi jarayonning noqulayligini bildiradi.

• **Serqatnov** (kon yo‘li): “Qatnov” so‘ziga “ser-” prefiksi qo‘shilib, qazib olish konlarining serqatnovligini ifodalab kelgan.

• **Baquvvat** (resurslar): “Quvvat” so‘ziga “ba-“ prefiksi qo‘shilib, resurslarning mustahkam, baquvvat ekanlini ifodalab kelgan.

• **Bezarar** (moddalar): “Zarar” so‘ziga “be-“ prefiksi qo‘shimchasi qo‘shilib, zarar keltirmaydigan moddalarni ifodalab kelgan.

Ingliz tilida prefikslar yordamida yasalgan konchilik terminlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• **De-mining**: “De-” prefiksi, minalarni olib tashlash jarayonini bildiradi.

• **Reclamation**: “Re-” prefiksi, yer yoki resurslarni qayta tiklash jarayonini anglatadi.

• **Overburden**: “Over-” prefiksi, kon qazish jarayonida yer ostidagi materiallar ustida joylashgan qo’shimcha materialni bildiradi.

• **Subsurface**: “Sub-” prefiksi, yer ostidagi qatlamlarni anglatadi.

• **Pre-drilling**: “Pre-” prefiksi, qazish ishlaridan oldin bajariladigan jarayonlarni bildiradi.

• **Post-mining**: “Post-” prefiksi, kon qazish jarayonidan keyingi faoliyatlarni anglatadi.

• **Interburden**: “Inter-” prefiksi, yer ostidagi qatlamlar orasidagi materiallarni bildiradi.

• **Non-renewable**: “Non-” prefiksi, qayta tiklanmaydigan resurslarni anglatadi, masalan, neft yoki ko’mir.

• **Misallocation**: “Mis-” prefiksi, resurslarni noto’g’ri taqsimlashni bildiradi.

• **Overexploitation**: “Over-” prefiksi, resurslarni haddan tashqari foydalanishni anglatadi.

Bundan tashqari, ingliz va o‘zbek tillarida konchilik sohasida shaxslarni bildiruvchi qo‘shimchalar ko‘plab so‘zlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir qo‘-



shimcha so‘zning ma’nosini aniqlashtiradi va sohada o‘zining aniq funksiyasini ifodalaydi. Bu qo‘shimchalar orqali konchilik jarayonlarida ishtirok etuvchi shaxslar va ularning vazifalari aniq va tushunarli tarzda ifodalanadi.Ingliz tilida konchilik sohasida shaxslarni yoki konchilik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni bildiruvchi ko‘plab qo‘shimchalar mavjud. Ingliz tilida ***“-er”*** yoki ***“-or”*** qo‘shimchasi ko‘pincha shaxsni yoki muayyan faoliyatni amalga oshiruvchi shaxsni bildiruvchi so‘zlarni yaratishda ishlatiladi. Konchilik sohasida ham ***“-er”*** suffiksi keng qo‘llaniladi***, “-ist”*** va ***“-ian”*** qo‘shimchasi esa ko‘proq ilmiy va mutaxassislik sohalarida ishlatiladi.Quyida bunday qo‘shimchalar va ularning konchilik sohasidagi o‘rni keltirilgan:

1. “-er “ shaxs oti yasovchi qo‘shimchasi:

• **Miner** (Mineral + -er): Rudani yoki mineralni qazib oluvchi shaxs.

• **Driller** (Drill + -er): Burg‘ulash jarayonini amalga oshiruvchi shaxs.

• **Blaster** (Blast + -er): Partlatish ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

• **Loader** (Load + -er): Yuklarni yoki rudalarni ko‘chirish va yuklash jarayonini amalga oshiruvchi shaxs.

• **Hauler** (Haul + -er): Yuklarni yoki rudalarni tashish va olib borish jarayonini amalga oshiruvchi shaxs yoki transport vositasi.

• **Smelter** (Smelt + -er): Metallni eritish va tozalash jarayonini amalga oshiruvchi shaxs yoki uskunani bildiradi.

• **Loader (Load + -er)**: Yuklarni yoki rudalarni ko‘chirish va yuklash jarayonini amalga oshiruvchi shaxs yoki uskunani bildiradi.

• **Sorter (Sort + -er)**: Rudalarni yoki boshqa materiallarni saralash bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

• **Crusher (Crush + -er)**: Rudalarni yoki boshqa materiallarni maydalash jarayonida ishlatiladigan uskunani yoki shaxsni bildiradi.

2. “-or” shaxs oti yasovchi qo‘shimchasi::

• **Supervisor** (Supervise + -or): Ishchilarga rahbarlik qiluvchi yoki ish jarayonlarini nazorat qiluvchi shaxs.

• **Conductor** (Conduct + -or): Konchilik jarayonlarida materiallar yoki energiyani boshqaruvchi shaxs.

• **Excavator (Excavate + -or)**: Ko‘chirish va qazish jarayonlarini amalga oshiruvchi mashina yoki shaxs.

• **Operator (Operate + -or)**: Uskunalarni boshqaruvchi yoki ishga tushiruvchi shaxs. (Eslatma: “Operator” ko‘proq umumiy so‘z bo‘lib, konchilikda ham ishlatiladi).

3. “-ist” shaxs oti yasovchi qo‘shimchasi:

• **Geologist** (Geology + -ist): Yerning tuzilishini, rudalar va minerallarni o‘rganuvchi mutaxassis.

• **Metallurgist** (Metallurgy + -ist): Metallurgiya jarayonlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis.

• **Chemist** (Chemistry + -ist): Kimyoviy jarayonlarni o‘rganadigan yoki ularda ishlovchi shaxs.

4. “-ian” shaxs oti yasovchi qo‘shimchasi:

• **Electrician** (Electric + -ian): Konchilikda elektr tizimlarini o’rnatadigan va saqlaydigan shaxs.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ingliz tilidagi shaxs oti yasovchi qo‘shimchlarining o‘zbek tilidagi muqobil varianti asosan “-chi” qo’shimchasiga to‘g‘ri keladi:

• **Konchi** (Kon + -chi): Kon doirasida ishlovchi shaxs.

• **Bo‘ronchi** (Bo‘ron + -chi): Tog’ konlarida ishlaydigan mutaxassis.

• **Korchi** (Kor + -chi): Kon ishlarini olib boruvchi shaxs.

• **Zavodchi** (Zavod + -chi): Konlarda ishlab chiqarishga tegishli shaxs.

• **Qo‘rg‘onchi** (Qo‘rg‘on +-chi): Konjoyida ish olib boruvchi yoki qayta ishlovchi shaxs.

• **Kopravodchi** (Kopravod +-chi): Kon qazish jarayonida ishlovchi shaxs.

• **Boshqaruvchi** (Boshqaruv + -chi): Konchilik loyihalarini boshqaruvchi yoki muvofiqlashtiruvchi shaxs.

• **Quvurchi** (Quvur + -chi): Yer osti quvurlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

• **Nazoratchi** (Nazorat + -chi): Konchilikda ish jarayonlarini nazorat qiluvchi shaxs.

Yuqorida keltirib o‘tilgan qo‘shimchalar asosan ot so‘z turkumida uchrasa, sifat yasovchi qo‘shimchalar

ham konchilik leksik birliklarini yangi so‘zlar yasalishida faol ishtirok etadi. Konchilik sohasida “-al”, ‘-ar’, “-ic”, “-ous”, “-ive” kabi qo‘shimchalar yordamida yasalgan sifatlar mavjud. Quyida otlardan sifat yasalgan ba’zi konchilik leksik birliklari keltirilgan:

1. Nature (Nature + al) - Resurs yoki xom ashyolarning tabiiylik sifatini bildiradi.

2. Metallic (Metal + -ic) - Metalga xos yoki metal sifatida bo‘lgan narsalarni bildiradi.

3. Granular (Granule + -ar) - Donador yoki granulyar tuzilishga ega bo‘lgan materiallarni bildiradi.

4. Effective (Effect + -ive) - Konchilikda resurslar yoki ish jarayonlarining samaralilik darajasini ifodalab keladi.

5. Porous (Pore + -ous) - Poralar yoki teshikchalar mavjud bo‘lgan materiallarni ifodalaydi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan so‘z yasovchi qo‘shimchalarning o‘zbek tilidagi muqobil variant asosan **“- li”** sifat yasovchi qo‘shimchaisga to‘g‘ri keladi: Metal**li**, ta’sir**li**, zarar**li**, pora**li**, foyda**li**, xavf**li.**

Ingliz tilida morfologik usulda fe’ldan fe’l yasash (***verbal derivation***) konchilik terminologiyasida ba’zan uchraydi. Bu usulda birinchi fe’l (verb) asos sifatida ishlatiladi va undan yangi fe’l yaratiladi, bu jarayon konchilik jarayonlarida o‘ziga xos faoliyatlarni ifodalashda yordam beradi. Fe’ldan fe’l yasalishi asosan ***“- ing”*** qo‘shimchasi orqali amalga oshiriladi. Quyida fe’ldan fe’l yasalgan ba’zi konchilik terminlari keltirilgan:

• **Drill (Drill + -ing)** - Burg‘ulash jarayoni yoki faoliyati;

• **Extract (Extract + -ing)** - Rudani yoki foydali moddalarni ajratish yoki olish jarayoni;

• **Load (Load + -ing)** - Yuklarni yoki rudalarni yuklash jarayoni. Masalan, “loading” (yuklash) — materiallarni yoki rudalarni transport vositalariga yuklash.

• **Crush (Crush + -ing)** - Rudalarni yoki materiallarni maydalash jarayoni;

• **Process (Process + -ing)** - Rudalarni yoki boshqa materiallarni qayta ishlash jarayoni.

• **Blast (Blast + -ing)** - Portlatish jarayoni;

• **Concentrate (Concentrate + -ing)** - Rudalarni tozalash va ular tarkibidagi foydali moddalarni oshirish jarayoni;

• **Ventilate (Ventilate + -ing)** - Havo almashinuvi va tozalash jarayoni;

• **Smelt (Smelt + -ing)** - Metalllarni eritish jarayoni;

• **Mine (Mine + -ing)** - Rudalarni yoki mineral moddalarni qazib olish jarayoni.

Shuningdek, ingliz tilida ***“-tion”*** qo‘shimchasi so‘zlarning nom sifatida ishlatilishi uchun qo‘shiladi va odatda jarayon yoki holatni ifodalaydi. Konchilik sohasida ham bu qo‘shimcha keng qo‘llaniladi va ko‘pincha jarayonlar, holatlar yoki operatsiyalarni ta’riflaydi. Quyida “-tion” qo‘shimchasini olgan ba’zi konchilik atamalari va ularning o‘zbek tilidagi ma’nolari keltirilgan:

1. **Extraction (Extract + -tion)** - mineral yoki ruda moddalarini er ostidan yoki boshqa materiallardan ajratish jarayoni.

2. **Excavation (Excavate + -tion**) - qazish, konchilikda er osti resurslarini qazish jarayoni.

3. **Ventilation (Ventilate + -tion)** - konchilik jarayonlarida va er ostida havoni yangilash va tozalash jarayoni.

4. **Exploration (Explore +tion)** - tadqiqot, yangi konlarni yoki resurslarni kashf etish jarayoni.

5. **Contamination (Contaminate +tion) -** ifloslanish, konchilikda muhitning zararli moddalar bilan to‘yingani.

6. **Stabilization (Stabilize+ tion)** - barqarorlashtirish, konchilikda materiallar yoki erning barqarorligini ta’minlash.

7. **Restoration (Restore +tion)** - tiklash, konchilikda zarar ko‘rgan yoki yo‘qolgan resurslarni tiklash jarayoni.

O‘zbek tilida ushbu ***“-ing” va “-tion”*** qo‘shimchasi harakat nomini ifodalovchi ***“-sh, -ish, -uv”*** qo’shimchalariga to‘g‘ri keladi: tekshir**uv**; qaz**ish**; tikla**sh**; ta’minla**sh**; kuzat**uv**; ajrat**ish**; nazorat qil**ish**; tozlala**sh**; almashtir**ish**; barqarorlashtir**ish.**

Shuningdek, ingliz tilida morfologik usulda ravish (adverb) yasalgan konchilik leksik birliklari ham mavjud bo‘lib, bu usul orqali hosil qilingan ba’zi leksik birliklar quyida keltirilgan: **Accurately (Accurate + -ly) -** To‘g‘ri yoki aniq ravishda; **Efficiently (Efficient + -ly) -** Samarali yoki foydali ravishda; **Carefully (Careful + -ly) -** Ehtiyotkorlik bilan; **Rapidly (Rapid + -ly)** - Tezkor yoki yuqori tezlikda; **Regularly (Regular + -ly) -** Doimiy yoki muntazam ravishda; **Properly (Proper + -ly) -** To‘g‘ri yoki mos ravishda; **Effortlessly (Effortless + -ly) -** Og‘irlik yoki kuch talab qilmaydigan ravishda; **Temporarily (Temporary + -ly) -** Muvaqqat yoki vaqtinchalik ravishda; **Thoroughly (Thorough + -ly) -** Batafsil yoki to‘liq ravishda; **Consistently (Consistent + -ly) -** Doimiy yoki barqaror ravishda.

O‘zbek tilida bu kabi ravishlar asosan “holda”, “tarzda”, “ravishda”so‘zlariga to‘g‘ri keladi: “ mos ***ravishda***, suyuq ***holda***, muntazam ***ravishda***, doimiy ***ravishda***

Ingliz tilida morfologik usulda sifatlardan otlar yasash (*nominalizatsiya*) usuli ham ko‘p uchraydigan holat hisoblanadi va konchilik terminologiyasida keng qo‘llaniladi. Bu usulda sifatli so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shib, ular otga aylantiriladi va shu orqali konchilik sohasidagi maxsus tushunchalar yaratiladi. Quyida sifatlardan ot yasalgan konchilik terminlari va ularning tushunchalari keltirilgan:

• **Hardness (Hard + -ness**) - Materialning qattiqlik darajasini bildiradi.

• **Strength (Strong + -th)** - Materialning mustahkamlik yoki kuchini bildiradi.

• **Density (Dense + -ity)** - Materialning zichligini ifodalaydi.

• **Absorbency (Absorbent + -cy)** - Materialning suyuqlik yoki boshqa moddalarni so‘rish qobiliyatini bildiradi.

• **Conductivity (Conductive + -ity)** - Materialning elektr yoki issiqlik o‘tkazish qobiliyatini bildiradi.

• **Reactivity (Reactive + -ity)** - Kimyoviy moddalar bilan reaksiyaga kirishish qobiliyatini bildiradi.

• **Toughness (Tough + -ness)** - Materialning zarbalarga chidamliligi yoki mustahkamligini ifodalaydi.

• **Durability (Durable + -ity)** - Materialning uzoq muddat davomida ishlash qobiliyatini bildiradi.

O‘zbek tilida esa sifatdan ot yasalish usulida asosan “-lik” qo‘shimchasi ishlatiladi. Buni misollar yordamida ko‘rib chiqamiz: chidamli***lik***, zich***lik,*** qattiq***lik***, issiq***lik***, mustahkam***lik.***

M: Bir vaqtning o‘zida yer osti va yer yuzasidagi inshootlarning xavfsiz holatini ta’minlash, konchilik ishlari olib borish natijasida yer yuzasining siljishi va yong‘inga nisbatan ***xavfsizligini*** *ta’minlash, qazib olish ishlarini to‘g’ri tashkil etilishiga bog‘liqdir [12;18.]* .

Morfologik usulda sifatlardan fe’l yasalishi konchilik terminologiyasida kamroq uchraydi, lekin mavjud. Bu usulda sifat (*adjective*) so‘zlaridan fe’llar (verbs) yaratish orqali konchilik sohasida muayyan jarayonlar va faoliyatlar ifodalanadi. Quyida sifatlardan fe’l yasalgan ba’zi konchilik terminlari va ularning tushunchalari keltirilgan:

• **Strengthen (Strong + -en)** - Materialning mustahkamligini oshirish jarayoni.

• **Harden (Hard + -en)** - Materialning qattiqligini oshirish jarayoni.

• **Densify (Dense + -ify)** - Materialning zichligini oshirish jarayoni.

• **Purify (Pure + -ify**) - Materialni ifloslantiruvchi moddalardan tozalash.

• **Smoothen (Smooth + -en)** - Yuzani silliqlash jarayoni.

• **Acidify (Acidic + -ify)** - Materialga yoki erga kislotali xususiyat qo‘shish.

Sifatlar fe’l yasalishi usuli o‘zbek tilida faol ishtirok etadi. Yuqorida keltirilgan fe’l yasovchi qo‘shimchalarning o‘zbek tilidagi muqobil varianti “-sh, -ish, -lash, -lashtirish” suffiksiga to‘g‘ri keladi: mustahkam***lash***, zich***lash***, mustahkam***lash***, qattiq***lashtirish***, zich***lashtirish***, silliq***lashtirish***, ***quyuqlashtirish.***

XULOSA

Ushbu maqolada morfologik usul orqali so‘z yasalishining tarixiy jarayonini keng ko‘lamda tahlil etildi. Morfologiya tillarda so’zlarning tuzilishi va ularning yasalish jarayonlarini o’rganadigan bo‘limdir. U asosan so’zlarning ildizlari, qo‘shiqlari va ularning o‘zaro munosabatlari yuzasidan turli usullarni o‘z ichiga oladi. Morfologik usul orqali so‘z yasalishi tilda doimiy o‘zgarishlarni aks ettirib, uning dinamik rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Har bir yangi so‘z va uning yasalishi jarayoni tilning boyligiga yangi qatlam qo‘shadi. Bu jarayon tilni yuqori darajada qiziqarli va dinamik qiladi, bunday rivojlanish kelajakda ham davom etishini ko‘rsatadi. Natijada, morfologik usul - bu tilning ajralmas bir qismi bo‘lib, u so‘zlar orasidagi munosabatlarni va tilda voqealar spektrini kengaytiradi. Bu usul tildagi yangiliklarni va ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettirgan holda, o‘z davomiyligini yo‘qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABOIYOTLAR

1. Abduvahob Madvaliev. O‘zbekcha Izohli lug‘at. - „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. – 680 b.

2. Arnold I.V. Leksikologiya angliyskogo yazika. - M.: 1959.-325 s.

3. Antrushina M.V. Leksikologiya angliyskogo yazika. - M.: 2004.-319 s.

4. Axmedov O.S. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq va bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol.fan.d-ri. ... diss. – Toshkent, 2016. –255 b.

5. Kubryakova E.S.Semantika proizvodnogo termina//Vnutrennaya struktura yazika. - M.: 1972.-154 s.

6. Mahmudov N., Nurmonov A. O’zbek tili nazariy grammatikasi. T.: o’qituvchi, 1995. 228 b.

7. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –T.: O‘zbekiston, 2002.

8. Saryov V.P. Produktivnoe imennoe slovoobrazovanie v sovremennom angliyskom yazike. - M.: 1984.-231 s.

9. Q.Sapayevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili (morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya) (2009)

10. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati.- T.: 2007.- 233 b.

11. Zamonaviy o‘zbek tili. Ijild. Morfologiya. (Mualliflar jamoasi). -T.:MUMTOZ SO‘Z, 2008. 17 b.

12. Yer osti konchilik ishlari texnologiyasi: darslik / I.Mislibayev, F.Umarov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.-232 b.













www.journal.nordicuniversity.org